

ARES

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

2024/10

VOLUME 5

ISSUE 10



We increase scientific potential together!

ARES.UZ

Exact Sciences
Natural Sciences
Technical Sciences
Pedagogical Sciences
Medical Sciences
Social and Humanitarian Sciences



ISSN 2181-1385

VOLUME 5, ISSUE 10

OCTOBER, 2024

www.ares.uz

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 5, ISSUE 10, OCTOBER, 2024

EDITOR-IN-CHIEF

G. Mukhamedov
Professor, Doctor of Chemical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

EDITORIAL BOARD

B. Eshchanov
Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
U. Khodjamkulov
Acting Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
S. Madayeva
Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan
R. Bekmirzayev
Professor, Doctor of Physical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University
G. Nurshiyeva
Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Kazakhstan
I. Tursunov
Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
Y. Safronova
Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia
G. Ruzmatova
Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan
N. Shermuhamedova
Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan
B. Khusanov
Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Namangan State Pedagogical Institute
K. Tulantayeva
Associate Professor, Candidate of Historical Sciences, National University of Kazakhstan
O. Naumenko
Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Science and Technology MISIS
M. Rakhimshikova
Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University
H. Matniyazova
Senior Scientific Researcher, Doctor of Sciences in Biology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Kh. Paluanova
Associate Professor, Doctor of Sciences in Philology, Uzbekistan State World Languages University
M. Gulyamova
Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State World Languages University
N. Makhmudova
Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University
K. Makhmudov
Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
S. Atkamova
Acting Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University
R. Begmatova
Acting Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University
M. Sultonov
Associate Professor, Doctor of Chemical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University
N. Zolotyx
Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia
J. Kholmuminov
Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State University of Oriental Studies
A. Kholmakhmatov
PhD in Political Sciences, Ministry of Higher and Secondary Specialized Education
S. Gayupova
Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
D. Karshiyev
Associate Professor, Candidate of Physical Sciences, Tashkent Paediatric Medical Institute
T. Shevchenko
Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia
F. Rajabov
Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
R. Ikramov
Associate Professor, Candidate of Juridical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
D. Otajonova
Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University
C. Nasritdinov
Associate Professor, Chirchik Higher School of Tank Command-Engineering
Z. Yakhshiyeva
Associate Professor, Doctor of Chemical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University
B. Yuldashev
Associate Professor, Tashkent Paediatric Medical Institute
Y. Islamov
Associate Professor, Candidate of Biological Sciences, Tashkent Paediatric Medical Institute
S. Allayarova
Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan
M. Djumabekov
Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University
K. Toshov
Senior Lecturer, PhD, National University of Uzbekistan
T. Khojiyev
Associate Professor, PhD, National University of Uzbekistan
A. Shofkorov
Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Uzbekistan State University of World Languages University
I. Ergashev
Professor, Doctor of Political Sciences, National University of Uzbekistan
J. Davletov
Senior Lecturer, PhD in Philosophical Sciences, Urgench State University
A. Makhmudov
Doctor of Philosophy in Economical Sciences, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan
A. Yuldashev
Associate Professor, Doctor of Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University
S. Pirmatov
Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Tashkent State Technical University
J. Namozov
Associate Professor, PhD in Geographical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
S. Toshtemirova
Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
U. Shermatova
PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

S. Akhunova
Associate Professor, PhD in Economical Sciences, Fergana Polytechnic Institute
N. Juraeva
Senior Lecturer, PD in Economical Sciences, Fergana Polytechnic Institute
S. Iskhakova
Associate Professor, Candidate of Agricultural Sciences, National University of Uzbekistan
U. Rustamov
Acting Associate Professor, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
I. Mambetov
PhD in Philological Sciences, Karakalpak State University
Z. Sanakulov
Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University
D. Sharipov
Senior Scientific Researcher, PhD in Technics, Tashkent University of Information Technologies
O. Jabborova
Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
G. Tojiyeva
Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Karshi State University
E. Makhkamov
Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Chirchik State Pedagogical University
A. Tursunov
Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Navoi State Mining Institute
N. Bobomuradov
PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport
N. Umarova
Associate Professor, PhD in Psychological Sciences, Tashkent State Pedagogical University
O. Hayitov
Professor, Doctor of Psychological Sciences, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan
U. Kasimov
Professor, Doctor of Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University
Sh. Otajonov
Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, National University of Uzbekistan
L. Sobirova
PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport
Sh. Kurbanov
Associate Professor, PhD in Technical Sciences, Karshi Engineering-Economic Institute
B. Salimov
Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State Transport University
M. Vafoeva
Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Samarkand State University
K. Inakov
Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan
G. Rashidova
Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Jizzakh branch of National University of Uzbekistan
K. Mamadaliev
Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
Sh. Muradkasimova
Senior Lecturer, Doctor of Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of World Languages
T. Kuyliev
Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Tashkent State Agrarian University
D. Karshieva
Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
N. Soatova
Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University
S. Botirova
Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Al-Fraganus University
S. Eshonkulova
Professor, Doctor of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University
G. Imomova
Associate Professor, Doctor of Philological Sciences, Karshi State University
N. Beketov
Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
P. Turapova
Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University
D. Niyazova
Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Karshi State University
B. Ramazonov
Associate Professor, PhD in Biological Sciences, Chirchik State Pedagogical University
N. Berdaliyev
Associate Professor, PhD in Political Sciences, Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering
N. Sultonova
Associate Professor, PhD in Philosophical Sciences, Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering
N. Yuldosheva
Associate Professor, PhD in Philology, Karshi State University
L. Akhatov
Acting Associate Professor, PhD in Philosophical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
O. Dulanboeva
PhD in Sociological Sciences, National University of Uzbekistan
A. Davlatova
Associate Professor, Doctor of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University
D. Rustamova
Associate Professor, Candidate of Economical Sciences, Tashkent State University of Economics
T. Sultanov
Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Tashkent State University of Economics
U. Kudratova
Senior Lecturer, Candidate of Philosophical Sciences, Tashkent State University of Economics
M. Achilova
Senior Lecturer, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
A. Pardaev
Associate Professor, PhD in Historical Sciences, Karshi State University
G. Ravshanova
Acting Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Karshi State University
L. Valiev
PhD in Philosophical Sciences, Tashkent State Transport University
N. Koshanova
Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
R. Tursunov
PhD in Pedagogical Sciences, Military Unit No. 30161
B. Khasanboev
PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik Higher School of Tank Command-Engineering
A. Paluanova
Senior Lecturer, PhD in Physical and Mathematical Sciences, Nukus State Pedagogical Institute

Editorial Secretary, Ph.D.: T. Madalimov

ZAMONAVIY INTENSIV OLMA BOG‘LAR UCHUN PAST BO‘YLI PAYVANDTAGLARDA KO‘CHATINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Ixtiyor Choriyevich Namozov
Toshkent davlat agrar universiteti, professor
ihtiyor_8226@mail.ru

Mirakbar Mirshoxid o‘g‘li Mirjaxparov
Erkin tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Vegetativ payvandtaglarni qalamchalaridan ko‘paytirish payvandtaglarning novdasini pastki qismidan olingan qalamchalarning tutuvchanligi barcha sinalgan payvandtaglarda yetarlicha qoniqarlidir. Tanlangan payvandtaglar orasida MM102 da eng yuqori ko‘rsatkich – 3 yilda o‘rtacha 40,7%, M9 da esa eng past – 21,4% bo‘ldi.

Vegetativ payvandtaglarni qalamchasidan ko‘paytirish ko‘chatchilik bilan shug‘ullanuvchi fermer hamda tomorqa xo‘jaliklari uchun yaxshi samara beradi va sifatli olma ko‘chatlarini tayyorlanadi.

Kalit so‘zlar: Bog‘payvandtag, payvandust, qalamcha, substrat, navlar, olma, ko‘chat, daraxt, kurtak payvand, ko‘chatzor, ildiz, tuproq, agrotexnika.

TECHNOLOGY OF GROWING SEEDLINGS ON LOW HEIGHT ROOTS FOR MODERN INTENSIVE APPLE ORCHARDS

ABSTRACT

The article outlines the tasks of developing a technology for growing apple seedlings attached to low-growing wings that grow vegetatively for intensive gardens based on advanced technologies in the field of fruit.

It is possible to show Korey and local Nafis varieties, which are connected to the low-fat M9 limestone, which is based on late winter varieties of winter crops and their cold-frost resistance against the standard grade.

Keywords: Garden, grafting, grafting, cuttings, substrate, varieties, apple, seedling, tree, bud grafting, nursery, root, soil, agrotechnics.

KIRISH

Hukumatimiz tomonidan ko‘zda tutilgan respublika aholisi uchun meva yetishtirish hajmini oshirish, jadal tipdagi bog‘ maydonlarini kengaytirishni talab etadi, bu esa mevali o‘simliklar

ko‘chatlarini ko‘p miqdorda yetishtirib berish bilan uzviy bog‘liqdir.

Mevali o‘simliklari ko‘chatlarini yetishtirishda payvandtagni to‘g‘ri tanlash ko‘p jihatdan ko‘chatchilikning rivojlanish muvaffaqiyatini belgilab beradi. Ko‘p yillik amaliy tajribalar va tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, barpo etilayotgan bog‘larning yuqori hosildorligi, qishga chidamliligi va uzoq umr ko‘rishi, mazkur meva o‘simligi ko‘chatlari ularga aynan mos bo‘lgan payvandtagda yetishtirilgandagina ta’minlanadi.

Payvandtagning payvando‘stga ta’siri ko‘p tomonli bo‘lib, u o‘simlikning butun hayoti mobaynida yuzaga chiqadi. Payvandtagga qo‘yiladigan biologik va xo‘jalik xarakteridagi talablar aynan shu bilan belgilanadi.

O‘zbekiston bog‘lari uchun shunday payvandtaglar zarurki, ular bog‘ barpo etiladigan sharoitlarga yaxshi moslashishi, payvando‘st navlar bilan fiziologik jihatdan yaxshi mos kelishi, ular bilan mustahkam birikib ketishi, sovuqqa chidamli, kasallik va zararkunandalarga nisbatan immun bo‘lishi, mevali daraxtlarning uzoq yashashi, va yuqori hosildorligini ta’minlashi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Internet tizimidagi http://ej.kubagro.ru [8] saytda aytilishicha, o‘simliklarning vegetativ yo‘l bilan ko‘payishi – bu, onalik qismidan yangi organizmning hosil bo‘lishidir. Tabiatda kuzatiladigan vegetativ ko‘payish usullari xilma-xildir. Bularning eng oddiysi – bitta vegetativ hujayradan, uning muntazam bo‘linishi va hosil bo‘lgan hujayralarning differensiatsiyasi natijaida organizmning tiklanishidir.

D.S. Izbasarov va K.G. Karichevlarning [3] ishlarida mevali ekinlarning ekish materialini yog‘ochlashgan poya qalamchalaridan yetishtirish bo‘yicha tadqiqotlar keltiriladi. Bunday qalamchalarni vegetativ yo‘l bilan ko‘payuvchi payvandtaglarning ona ko‘chatzorlarida tayyorlash mumkin. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, Qozog‘istonning janubiy va janubiy-sharqiy iqlim sharoitlarida mazkur usul uta maqbuldir. U ko‘chatzordan ko‘chatlarning chiqishini bir yilga tezlashtirish, ekish materialini yetishtirish bo‘yicha xarajatlarni qisqartirish, klon payvandtaglarida ko‘chat ko‘paytirish koeffitsientini oshirishga imkon beradi.

Oryol shahridagi mevali ekinlar seleksiyasi ITI olimlari Ye. Sedov, N. Krasova, Z. Serovalarning [7] ta’kidlashicha, kuchsiz o‘suvchi daraxtlarni faqatgina ildiz otgan pakana yoki yarim pakana payvandtaglar qalamchalari yoki parxishlariga payvand qilib emas, balki kuchli o‘suvchi urug‘lik payvandtaglarga kuchsiz o‘suvchi payvandtagni 18-20 sm uzunlikda oraliq payvand qilib (interkalyar) ham olish mumkin.

Tajribalar “Mevachilik va uzumchilik” kafedrasida ishlab chiqilgan uslub bo‘yicha olib borildi. Dala tajribalari Toshkent

davlat agrar universitetning ilmiy tadqiqot va o‘quv-tajriba xo‘jalik stansiyasidagi ko‘chatzorda o‘tkazildi. Biometrik o‘lchovlar va hisoblar: har bir variantda 10 ta o‘simlikda olib borildi. Tajriba to‘rt qaytariqda o‘rganildi. Tajriba uchun olmani vegetativ yo‘l bilan ko‘payuvchi M9, M7, MM102, MM104, MM105, MM111, MM109 payvandtaglari olindi. Nazorat sifatida olmani “MM106” payvandtagi olindi.

Biokimyoviy va fiziologik tadqiqotlar I.V.Michurin nomidagi Rossiya bog‘dorchilik ilmiy-tadqiqot institutining “Mevali ekinlar navlarini sinash uslubi va dasturi”ga (1973) muvofiq o‘tkazildi. Tuproq, barg va mevalarning tahlili, tuproqning suv-fizik xususiyatlari paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutida ishlab chiqilgan uslub (1977) bo‘yicha amalga oshirildi.

Tajriba ma’lumotlariga statistik ishlov berish B.A.Dospexov (1985) uslubi bo‘yicha dispersion tahlildan o‘tkazildi.

NATIJALAR

N.V. Govorushenkoning [2] tadqiqotlari navning biologik xususiyatlari, payvandtag sifati va qo‘llaniladigan texnologiya elementlariga bog‘liq ravishda kuchsiz payvandtaglarga payvand qilingan bir yillik olma ko‘chatlarini shoxlantirishga differensiatsiyalangan yondashuvni qo‘llash to‘g‘risida bilib olish imkonini beradi. Vegetativ yo‘l bilan ko‘payuvchi payvandtaglar onalik o‘simliklarini chopiq qilish uchun optimal organik substrat – sholi kepagi tanlangan.

Ko‘chatchilik amaliyotida kuchsiz o‘suvchi olma payvandtaglarini ko‘paytirishda onalik tuplarda novdalarning ko‘pchilik qismi (30% va undan ko‘proq) umuman ildiz hosil qilmaydi va buning oqibatida ular ekishga yaroqsiz hisoblanadi.

Kuchsiz o‘suvchi har xil tipdagi payvandtaglarning qalamchadan ko‘payishga qodirligini aniqlash uchun ildiz otmagan novdaning pastki qismidan, shuningdek, novdaning o‘rta qismidan qalamcha olib 2015-2017 yillarda maxsus tajriba o‘tkazdik.

Uzunligi 23-25 sm bo‘lgan qalamchalar bahorda (mart boshida) ko‘chatzorning birinchi dalasiga ekildi. Novdaning pastki qismidan olingan qalamchalar hech qanday tayyorgarchiliklarsiz o‘tqazildi, o‘rta qismdan olingan qalamchalar esa kuzdan boshlab oddiy xandaqlarda kilchevka qilindi. O‘tqazilgan qalamchalar yoz mobaynida 12-14 marta sug‘orildi.

Quyidagi 1-jadval ma’lumotlari ko‘rsatganidek, novdaning pastki qismidan olingan qalamchalarning tutuvchanligi barcha sinalgan payvandtaglarda yetarlicha qoniqarlidir. U MM102 da eng yuqori – 3 yilda o‘rtacha 40,7%, M9 da esa eng past – 21,4% bo‘ldi.

1-jadval

Kuchsiz o‘suvchi payvandtaglar qalamchalarining ildiz otuvchanligi
(o‘tqazilgan soniga nisbatan %, 2021-2023 yy.)

Payvandtag	Novdaning pastki qismidan olingan qalamchalar			Novdaning o‘rta qismidan olingan qalamchalar		
	2021	2022	2023	2021	2022	2023
M9	26,8	17,0	20,5	5,6	0,5	4,8
M7	40,5	29,4	40,9	25,4	12,7	18,7
MM102	36,0	38,5	47,8	27,0	23,6	37,8
MM104	45,7	31,0	40,3	13,5	18,1	32,5
MM105	37,4	22,0	27,1	20,2	11,3	19,6
MM111	38,2	25,6	36,5	23,2	12,6	25,3
MM109	35,0	33,8	32,1	30,2	22,5	33,5
MM106 (nazorat)	65,2	30,7	45,0	40,0	21,7	24,5

Shu bilan birga novdaning o‘rta qismidan olingan qalamchalarning tutuvchanligi hamma payvandtagda ham yetarlicha yuqori bo‘lmaydi – faqat MM104 da o‘rtacha 25,3%, M7 da 18,9 % va MM106 tipida – 28,7% bo‘ldi.

2021-2023 yillardagi issiq va sernam bahorda qalamchalarning tutuvchanligi sezilarli ortdi va aksincha 2017 yilgi sovuq yoki quruq bahor sharoitida u past bo‘ldi.

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Mamlakatimizning qulay tuproq-iqlim sharoitlarida ko‘chatzordagi tutgan qalamchalar (novdalarning ham pastki, ham o‘rta qismidan olingan) shu yilning o‘zida kurtak payvand qilishga yaroqli bo‘ldi.

Ildiz otgan parxishlar va urug‘ ko‘chatlarga nisbatan mazkur o‘simliklar ancha sust o‘sadi va ularning diametri kurtak payvand uchun yaroqli ko‘chatlarga qo‘yilgan standart talablariga javob beradi.

2-jadval

Ko‘chatzorning birinchi dalasida har xil payvandtaglarda ildiz otgan qalamchalarining rivojlanishi (2021-2023 yy)

Payvandtag	Parxishlar		Novdaning pastki qismidan olingan qalamchalar		Novdaning o‘rta qismidan olingan qalamchalar	
	Baland-ligi, sm	novda diametri, mm	baland-ligi, sm	novda diametri, mm	balandligi, sm	novda diametri, mm
M9	103	0,9	93	0,8	82	0,7

M7	70	0,6	67	0,6	51	0,5
MM102	86	0,7	80	0,7	62	0,6
MM104	94	0,9	91	0,7	82	0,7
MM105	62	0,8	55	0,7	46	0,6
MM111	74	0,9	68	0,8	62	0,7
MM109	95	0,9	86	0,8	77	0,7
MM106	109	0,8	99	0,8	83	0,6
Sivers olmasi (nazorat)	91	0,8	-	-	-	-

MUHOKAMA

Shunday qilib, respublikamiz sharoitlarida sinalgan barcha kuchsiz o‘suvchi payvandtaglarni faqatgina ildiz otgan parxishlar bilan emas, balki ildiz otmagan novdalarning pastki qismidan olingan qalamchalar bilan ham, ularni ko‘chatzorning birinchi dalasiga qalin ekib (qatorda 20-22 sm o‘rniga 8-10 sm), muvaffaqiyatli ko‘paytirish mumkin.

Bu vaqtda MM111, M7 va MM106 payvandtag tiplari novdasining o‘rta qismidan olingan qalamchalarning yaxshi ildiz otishi, ularni qo‘shimcha qalamcha bilan ko‘paytirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda kuchsiz o‘suvchi payvandtaglarda olma ko‘chatlari yetishtirish uchun dastlabki materialning keskin tanqisligini hisobga olsak, ularni qalamchadan ko‘paytirish (ayniqsa kamyob M9 va M7 tiplarini) qo‘shimcha ekish materiali olish imkonini beradi.

XULOSA

Maqolada vegetativ payvandtaglarni qalamchalaridan ko‘paytirish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan shu ma’lumotlarga asoslangan holda payvandtaglarning novdasini pastki qismidan olingan qalamchalarning tutuvchanligi barcha sinalgan payvandtaglarda yetarlicha qoniqarlidir. U MM102 da eng yuqori – 3 yilda o‘rtacha 40,7%, M9 da esa eng past – 21,4% bo‘ldi.

Vegetativ payvandtaglarni qalamchasidan ko‘paytirish ko‘chatchilik bilan shug‘ullanuvchi fermer hamda tomorqa xo‘jaliklari uchun yaxshi samara beradi va sifatli olma ko‘chatlarini tayyorlash imkoni tug‘iladi.

REFERENCES

1. Aripov A.U., Aripov A.A. “Urug‘li intensiv meva bog‘lari”. Toshkent: “Sharq”, 2013. 25-28 b.

2. Govorushenko N.V. Sovershenstvovanie texnologii virashivaniya posadochnogo materiala yabloni dlya sadov

intensivnogo tipa: Diss. na soisk. uchen. step. kand. s/x. nauk. – Kiev, 1998 . – S. 68-70.
3. Izbasarov D.S., Karmchev K.G. Novoe v virashivanii sajensev yabloni. // Sadovodstvo i vinogradarstvo. – Moskva, 2001. – №4. – S. 17-18.
4. Kaplin Ye.A. Metodm formirovaniya matochnix rasteniy v matochnike klonovix podvoev yabloni. // Rol sortov i novix texnologiy v intensivnom sadovodstve. – Michurinsk, 2003. – s. 133-135.
5. Ostanaqulov T.E., Narzieva S., G‘ulomov B.X. Mevachilik asoslari. S., 2011. 88-90 b.
6. Popov A.S. Primenenie regulyatorov rosta v plodovom pitomnike. // Biosferosovmestimie i sredozashitnie texnologii pri vzaimodeystvii cheloveka s okrujayushey sredoy. – Krasnodar, 2002. – s. 161-163.
7. Sedov Ye., Krasova N., Serova Z. Yabloni na vstavochnix podvoyax. // AiF na dache. – Moskva, 2004. – №16 (179). – S. 244-245.
8. http://ej.kubagro.ru

KAMBAG‘ALLIKNING FALSAFIY VA IJTIMOIY ASOSLARI: TARIXIY TAHLIL

Jaxongir Alisher o‘g‘li Ilxomjonov
OXUS universiteti
jahongirilhomjonov165@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada kambag‘allik tushunchasi falsafiy va tarixiy nuqtai nazardan keng qamrovda o‘rganilgan. Tarixiy manbalar, mutafakkirlar qarashlari va nazariyalar asosida kambag‘allikning evolyutsiyasi hamda zamonaviy dunyoda bu muammoni hal qilishga bo‘lgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqola orqali kambag‘allikning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlariga oid fikrlar keng ko‘lamda yoritilgan, bu esa uning zamonaviy talqinlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, tarix, falsafa, iqtisodiyot, ijtimoiy tengsizlik, nazariyalar, evolyutsiya.

ABSTRACT

This article explores the concept of poverty from a philosophical and historical perspective. It examines the evolution of poverty through historical sources, philosophical views, and theoretical frameworks, analyzing approaches to address poverty in the modern world. The article provides a comprehensive discussion of the social, economic, and political aspects of poverty, contributing to a deeper understanding of its contemporary interpretations.

Keywords: poverty, history, philosophy, economics, social inequality, theories, evolution, Rawls, Aristotle.

KIRISH

“Kambag‘allik” iqtisodiy atama sifatida yaqin o‘tmishda fanga kirib kelgan bo‘lsada uning asl mohiyati va uning jamiyat hayotiga ta’siri qadim zamonlarda to shu kungacha ilmiy jamiyatlar orasida haligacha dolzarbligini yo‘qotgani yoq. Bugungi zamonaviy dunyoda ham ko‘plab munozaralarga sabab bolmoqda. Kambag‘allik haqida qadimgi ilmiy asarlarda, aksariyat hollarda kambag‘allik jamiyatga foyda keltirgan deb aytilgan. Kambag‘allik yoki unga chambarchas bog‘liq muammolar bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar zamonaviy kambag‘allik boyicha izlanishlarning boshlang‘ich nuqtalar hisoblanadi. Bunga misol qilib psixalogiya soxasidagi Jan Luis Vivesning XVI asr

boshlarida yozgan asarlari, epedimaloqiya boyicha Doktor Jon Snouning vabo epidemiyasi sabablari bo‘yicha tadqiqotlarida (XIX asr boshlarida London), uy xo‘jaligi iqtisodiyoti: Ernst Engel kambag‘al va kambag‘al bo‘lmagan odamlarning sarf-xarajatlaridagi farqlarni o‘rganish (Germaniyada XIX asr o‘rtalarida), ijtimoiy fanlar: Charlz Booth 19-asr oxirida Londonda kambag‘allikni sinchkovlik bilan kuzatish tadqiqotlari, makroiqtisodiyot: Jon Meynard Keynsning 1930-yillar boshidagi “Buyuk Depressiya” davrida yuzaga kelgan ommaviy ishsizlik sabablarni tushunishga qaratilgan harakatlarida va albatta, yana ko‘plab misollarni mavjud. Kambag‘allik doir tatqiqotlarning katta qismi so‘nggi ikki yuz yil ichida unga qarshi siyosatning ma’naviy va iqtisodiy asoslarini yaratishda muhim rol o‘ynagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYYA

Ilm va harakat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik murakkab va ularning siyosat maydonida paydo bo‘lishi ko‘p narsalarga, jumladan texnologiyaga, jamoatchilik xabardorligiga va kuchlar muvozanatiga bog‘liq. Shunga qaramay, kambag‘allik haqidagi fikrlar qanday rivojlangani haqida o‘rganilishi kerak bo‘lgan voqealar bor. Bu bugunning asosiy munozaralarni tub ildizlari hisoblanadi. Ushbu bahslarning ba’zilari uzoq vaqtdan beri davom etib kelmoqda. Biroq qadimgi va zamonaviy dunyo insonlarning fikirlashlarida katta farqlar mavjud. Ushbu farqlarni o‘rganish bilim taraqqiyotni mustahkamlaydi va uni kengroq aks ettirishini ko‘rsatadi. Phd ishinig birinchi bop birinchi qismida kambag‘lik tushunchasing paydolishi tarixi va uning iqtisodiy ahamiyati yoritadi.

Tarixiy kelib chiqishi: Qadimgi dunyoda kambag‘allik dunyoviy ishlarga aloqador yani qonunlar, soliqlar va davlat xarajatlari masala sifatida ko‘rilmagan. Dastlabki tushunchalarga kora barcha narsa savob ishlarga ko‘ra mukofot sifatida qaralgan. Keyinchalik yunon faylasufi va olimi Aristotelning asarlarida ayniqsa “ Nikomax etikasi va siyosati” asarida . Faqat eng malakali insongina Davlat rahbari lavozimiga saylanishi kerak degan fikrlar miloddan avvalgi 350- yillarda paydo bo‘lgan. Bu fikir orqali Arisrtotel o‘zing davri uchun revalutsiyon fikrni ya‘ni boylik va hukumronlik o‘z navbatida kambag‘allik ham insonga u qilgan yaxshi yoki yomon ishlar uchun emas balki o‘zing salohiyati va qobilyatiga qarab berilishini takidlab o‘tgan. Aristotelning adolat tushunchasi jamiyat rivojiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu ochiq-oydin erkin va intiluvchan o‘rta sinf (kambag‘al, lekin erkin odamlar) uchun jozibador edi va biroz umid uyg‘otivchi fikrlar edi. “Teng imkoniyatlar” g‘oyalari va barchaning “erkinlik” huquqlari g‘oyalarini Aristotel qattiyat bilan ilgari surgan bo‘lsada, biroq, Arestoteling bu tenglik g‘oyasi to‘liq tenglik emas edi. U qillikni maqullagan va buni adolatdan deb hisoblagan. Bunga misol Aristotel yozgan: “...tug‘ulgan saotdan

boshlab, bazi erkaklar uchun bo‘ysinish va boshqalari xukumron bolishini belgilash kerak. Qullarning borligi ham maqsadga muvofiqdir ham adolatdandir.”

Bu yerda Aristotel jamiyatdagi irarxiyalar uchun muhim dalillar keltirgan edi, ular ijtimoiy barqarorlik va samaradorlikning axloqiy jihatdan muhum maqsadlariga xizmat qildi. Agar Aristotel qullikni o‘z misoli sifatida ishlatmaganda, uning dalillari ko‘proq shakllangan bo‘lishi va zamonaviy dunyo uchun maqbul bolardi. Aristotel bu o‘rinda jamyatdagi qullar qatlami (o‘sha davrda qashshoqlar va undan ham pastgi qatlami) mavjud bolishi jamiyat va uning iqtisodiy taraqqiyoti uchun foydali deb bildi. Bu fikr quldorlik davri fiodal tizim va hatta sano‘at inqilobi davrida ham to‘gri g‘oya sifatida qaraldi biroq hozrgi davrda bu g‘oya o‘zining dolzarbligini to‘laligicha yoqotgan chunki Arestotel inson kapitali va uning yoqotilishini inobatga olmagan.

Miloddan avvalgi 500-yillarda Konfutsiy kambag‘allik yaxshi hukumat oldini olishda yordam berishi kerak bo‘lgan “oltita ofat” dan biri ekanligini takidlab o‘tgan (Boshqa besh balo: erta o‘lim, kasallik, baxtsizlik, jirkanch ko‘rinish, va zaiflik. Bundan tashqari, beshta ne’mat bor edi: boylik, uzoq umr, sog‘lik, yaxshi xulq va yoqimli tashqi ko‘rinish). Bu vaqtda G‘arbliklarning asosiy tashvishlari, boylik, tengsizlik bilan bog‘liq surunkali kambag‘allik emas edi balki, buning o‘rniga, asosiy tashvish uyg‘un ijtimoiy tuzum qurushda edi. Kanfutsiyning fikriga ko‘ra qachon odamlar to‘q bo‘lsa ehtiyojlarini malum miqdorini qondirishga imkon bo‘lsa va yetishmovchilik sabab boshqa joylarga ko‘chib ketishmasagina uyg‘un jamiyat qurush mumkun bo‘lgan. Uning fikriga ko‘ra bunday jamiat qurushga eng asosiy g‘ov yetishmochilik bo‘lgan. Kanfutsiyning g‘oyalari bir necha ming yillar oldin aytilgan bo‘lsada Aristotelning g‘oyalaridan farqli ravishda bugunki kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yoq.

NATIJALAR VA MUHKAMA

Keyingi davrdadagi kamabg‘allik haqidagi fikrlar shakillanishi islom dini yaralishi va tarqalishi davriga tog‘ri keldi. Islom intellektual an’analari butun musulmon olamida jamiyatlarning qadriyatlari va axloqiy tamoyillarini shakllantirishda yetakchi kuch bo‘lib xizmat qilgan. O‘rta Osiyoning qadimiy shaharlari, jumladan, Samarqand va Buxoroda islom ta’limotlarini yoyish, mehr-oqibat va ijtimoiy mas’uliyat madaniyatini yuksaltirishda alloma va mutafakkirlar muhim rol o‘ynagan. Islom dinining asosiy aqidalaridan biri sadaqa (zakot) va kam ta’minlanganlarga rahm-shafqat qilish tamoyilidir. Bu tamoyil ildizlarini Qur’on amrlari va Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning so‘zlaridan olinib, jamiyatdagi kambag‘allik va tengsizlikni bartaraf etish uchun axloqiy asos yaratgan. Qadimgi O‘zbekiston hududida yashagan olimlari islom ilmini chuqur o‘rganishgan, hamda, kambag‘allikni nafaqat

shaxsiy dard, balki jamoaviy jamiyat mas'uliyati sifatida ko'rib, bu tamoyillarni qo'llab-quvvatlashgan. Islomiy g'oyalarda kambag'allik dard deb qaralgan va mo'minlarni bir-birlariga yordam berishga chaqirilgan. Islomning besh arkonidan biri bo'lgan zakot muhtojlarga yordam berish va ijtimoiy farovonlikni saqlashga qaratilgan sadaqaning farz shaklidir. Bu haqda Qur'onda ko'p marta zikr qilingan, jumladan, Baqara (2:43) va Baqara (2:267) suralarida mo'minlar kambag'al va miskinlarga xayr-ehson qilishlari buyurilgan. Qadimgi movrounnaxr olimlari Qur'onning ushbu amrlarini yaxshi bilishgan va jamiyatdagi kambag'allikni bartaraf etish uchun zakot majburiyatlarini bajarish muhimligini ta'kidlagan. Shuningdek hadislarda ham hayriya masalasiga ko'p bor to'xtalib o'tishgan. Muhammad (s.a.v) payg'ambarning so'zlari va xatti-harakatlari sadaqaning ahamiyati haqida ko'proq yo'l-yo'riq beradi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) "Sadaqa molni kamaytirmaydi" degan mashhur rivoyatlari kabi sadaqaning fazilatlarini ta'kidlaydigan ko'plab hadislar mavjud (Sahih Muslim). Islom dini g'oyalari va ular asosida yozilgan asarlar keyinchalik ham O'rta Osiyo hududida davlat boshqaruvida muhum ahamiyat kasb etdi. Jumladan: Temuriylar saltanatining qudratli hukmdori Amir Temur o'zining harbiy mahorati va ulkan zafarlari bilan shuhrat qozongan bo'lsada. Biroq, uning hukmronligini sinchiklab o'rganish yanada nozik manzarani ko'rsatadi. Amir Temur ham o'zining ulkan saltanatida kambag'alikni boshqarish haqidagi o'z g'oyalarni ilgari surgan. Uning o'ziga xos pozitsiyasini tavsiflovchi yagona, aniq matn mavjud bo'lmasa-da, biz tarixiy voqealar va uning davrida amalga oshirilgan iqtisodiy siyosatlardan ma'lum bir tushunchalarni olishimiz mumkin. Amir Temur o'z davridagi Yevropalik hukumdor va olimlarning fikriga teskari ravishda kambag'allikni jamiyat uchun zararli omil deb bilgan va o'z saltanatida unga qarshi kurashish uchun ko'lab iqtisodiy islohatalar amalga oshirgan bulardan: Amir Temurning iqtisodiy qarashlari tizimida soliq masalasi asosiy o'rinni egallaydi. Iqtisodiyot soliq tizimi orqali tashkil etilganligi va boshqarilganligi sababli mamlakatning iqtisodiy va harbiy hayoti tartibga solinadi. Tadbirkor o'zining soliq siyosatida ham xalq manfaati ustuvorligiga amal qiladi. U soliq tizimi orqali aholi qashshoqlashsa, buning natijasida davlat ham qashshoqlashadi, aholining boy yashashi uchun adolatli soliq tizimi zarur, deb hisoblagan. Shuningdek Amir Temur sarmoyasini yo'qotgan savdogarlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni hamda, qiynalayotgan dehqonlarni yerga ishlov berishda davom etishini uchun urug' va texnika bilan ta'minlashni buyurgan. Bu orqali, ularning iqtisodiyotga hissa qo'shishda davom etishini ta'minlagan. Amir Temur o'limidan so'ng mamlakatda sodir bo'lgan tartibsizliklar mintaqada ilimga bo'lga qiziqishni yo'qolishiga sabab bo'ldi. Biroq Yevropada sodir bo'lgan renesans va uning oqibatida mamlakatlar iqtisodiyotidagi

kuzatilgan reformalar o‘z davrining olimlarini jamyatning farovonlik va kambag‘allik masalalarini chuqur tahlil qilishga undadi va katta bahslarga sabab bo‘ldi. Zamanaviy dunyoning kambag‘allikga doir qarashlarni shakillanish evalutsiyasini quyidagi ketmaktelikda tartibga solish va davrlarga ajratish mumkun. (Jadval 1).

Kambag‘allikda doir ahamiyatga ega ilmiy fikrlar va izlanishlar xranalogiyasi

№	Davr	Yillar	Asosiy shaxs va hodisalar	Sohaga qo‘shgan hissasi
1.	**Premodern ilmiy tadqiqotlar va dastlabki izlanishlar**			
1.1	Jean Luis Vives	16-asr boshlari	Shaharlarning kambag‘allarni qo'llab-quvvatlash majburiyatini targ'ib qilgan.	Ijtimoiy mas’uliyat haqidagi yozuvlari bo‘lgan eski qo‘lyozma va kitob.
1.2	Dr. John Snow	1813-1858	Uning va’boga oid tadqiqotlari orqali kambag‘al yashash sharoitlari va salomatlik ko‘rsatgichlari orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatgan.	Londondagi va’bo tarqalishini ko‘rsatadigan xarita.
1.3	Ernst Engel	1821-1896	Englening Qonuni, kambag‘al va kambag‘al bo'lmagan xonadonlarni ajratib turadigan miqdoriy o‘lchovni ishlab chiqqan.	Englening Qonunini ko‘rsatuvchi grafik (daromadning oziq-ovqatga sarflanadigan foizi va umumiy daromad).
2.	**Birinchi Kambag'allik Yoritilishi (19-asr)**			

2.1	Sanoat inqilobi	1760-1840	Sanoatlashtirishning shahar kambag‘alliklariga salbiy ta’sirini ko‘rsatgan.	
2.2	Charles Booth	1840-1916	Londondagi yashash sharoitlari haqida batafsil empirik ma’lumotlarni taqdim qilgan.	Londondagi kambag‘allik darajalariga qarab ranglangan hududlarni ko‘rsatadigan xarita.
2.3	John Maynard Keynes	1883-1946	Buyuk Depressiya davrida ommaviy ishsizlik va kambag‘allikka qarshi kurashish uchun davlat aralashuvini targ‘ib qilgan.	Iqtisodiyotni jamoat ishlari va bandlik dasturlariga e’tibor qaratgan holda tasvirlash.
3.	**Erta zamonaviy davr kambag'allik tadqiqotlari (20-asr boshlari)**			
3.1	Utilitarizm va ijtimoiy tadqiqotlar	18-19-asr	Umumiy varovonlikni ko‘paytirish siyosatlarini, shu jumladan kambag‘allikni kamaytirishni targ‘ib qilgan.	varovonlik va is’temolni bir tomonda, kambag‘allikka oid siyosatlarni esa boshqa tomonda ko‘rsatuvchi tarozi diagrammasi.
3.2	Kambag‘allarga oid qonunlar bo'yicha bahslar	19-asr	Ijtimoiy yordam siyosatining samaradorligi va axloqiy jihatlarini muhokama qilgan.	

3.3	Sotsializm va ishchi harakatlari	19-asr oxiri - 20-asr boshlari	Ishchilar huquqlari va kambag‘allikni bartaraf etish uchun tizimli o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlagan.	
4.	**Urushdan keyingi qayta baholash va yangi nazariyalar (1950 yildan keyin)**			
4.1	Yangi iqtisodiy fikrlash	1950-yillar	John Rawlsning adolat tamoyillari adolat va tenglikni ta’kidlagan.	Turli ijtimoiy-iqtisodiy guruhlarni muvozanatlashtiruvchi adolat tarozi.
4.2	Amerikada kambag‘allikning qayta kashf etilishi (1960-yillar)	1960-yillar	Farovon jamiyatlarda ham davom etayotgan kambag‘allikni ko‘rsatgan.	"Boshqa Amerika" kitobiva Amerika shaharlarining tasviri.
4.3	Rawlsning adolat tamoyillari	1971	Teng taqsimlash va kambag‘allikka qarshi siyosatga e’tibor qaratgan.	Rawlsning farq tamoyilini ko‘rsatuvchi diagramma, ijtimoiy manfaatlar va eng kam imkoniyatga ega guruhlar.
5.	**20-asr oxiri va global majburiyatlar**			
5.1	Jahon banki shiori (1990)	1990	Kambag‘allikni kamaytirishga global majburiyatni aks ettirgan.	"Bizning orzuyimiz kambag'allikdan xoli dunyo" shiori.
5.2	Global daromad tengsizligi tadqiqotlari	1990-yillar	Global daromad tengsizligi va kambag'allikning tarixiy baholarini taqdim etgan.	Daromad tengsizligi va kambag'allik darajalarini aks ettiruvchi dunyo xaritasi.

6.	**Zamonaviy tushunchalar va ta'sirlar**			
	Iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni kamaytirish	2000-yillar	O‘sish bilan teng taqsimlashni muvozanatlash zarurligini ta’kidlagan.	Iqtisodiy o‘sish tendentsiyalari va kambag‘allikni kamaytirish metrikalarini ko‘rsatuvchi grafik.
6.2	Texnologiya va jamoatchilik xabardorligi	2000-yillar	Kambag‘allikni kamaytirish strategiyalarini shakllantirishda texnologiya va xabardorlikning rolini ko‘rsatgan.	Odamlarni bog‘layotgan texnologiya (kompyuterlar, smartfonlar) belgisi.
6.3	Hukumat aralashuvlari	2000-yillar	Bozor mexanizmlari va ijtimoiy siyosatni muvozanatlashni ta’kidlagan.	Bozor mexanizmlari va ijtimoiy siyosatni muvozanatlashni ta’kidlagan.

Yuqoridagi fikrladan eng katta ahamiyatga va tasirga ega bolganlaridan biri shubhasiz Engel qonunidir. Engel qonunining rivojlanishi: Nemis statistik olimi Ernst Engel 19-asr o‘rtalarida uy xo‘jaliklari xarajatlarini o‘rganish orqali iqtisodiy nazariyaga katta hissa qo‘shdi. U hozirda Engel qonuni deb nomlanuvchi qonunni kashf etdi, u kambag‘al va kambag‘al bo‘lmagan uy xo‘jaliklarini sarf qilish odatlariga ko‘ra farqlash uchun miqdoriy ko‘rsatkichni beradi. Engel qonuni shuni ko‘rsa tadiki, uy xo‘jaliklarining daromadlari oshgani sayin, oziq-ovqatga sarflangan daromadlar ulushi kamayadi. Bu munosabatlar kambag‘al uy xo'jaliklari boyroq uy xo‘jaliklariga qaraganda o‘z daromadlarining katta qismini oziq-ovqatga sarflashini anglatadi. Oziq-ovqatga bo‘lgan talabning daromad egiluvchanligi birdan kam bo‘lib, oziq-ovqat zarurat ekanligini ko‘rsatadi.

Bu qonun kambag‘lik darajasini aniqlashdagi dastlabki o‘lchovlardan bir hisobladi. Bu qonun qo‘llanilishing usulining soddaligi uchun o‘z davrida keng qo‘llanilgan bo‘lsada bugungi kunda faydalish uchun ba’zi kamchiliklarga ega. Birinchidan: Qonun birinchi navbatda oziq-ovqat xarajatlariga qaratilgan bo‘lib, boshqa muhim tovarlar va xizmatlarni e’tiborsiz qoldirishi mumkin; ikkinchidan: oziq-ovqatga bo‘lgan talabning daromad egiluvchanligi turli daromad darajalari va mintaqalarda sezilarli

darajada farq qiladi; uchinchidan: siyosatchilar qonunlarni ishlab chiqishda Engel qonunini noto‘g‘ri talqin qilishlari yoki ortiqcha soddalashtirishlari mumkin. Shuningdek Engel qonuni bog‘liqlikni aniqlaydi, ammo kambag‘allikning asosiy sabablarini tushuntirmaydi. Yuqoridagi kamchiliklarga qaramay bu qonun kambag‘alikni bartaraf qilishda muhum ahamiy kasb etgan voqeylikdab biridir. Yana bir kambag‘allikga qarshi kurashishdagi muhim izalnishlardan biri 19-asr da Charles Booth tomonidan alamalga oshirilgan. Booth ning sinchkovlik bilan o‘tkazgan so‘rovlari va xaritalari Londondagi kambag‘allikni tushunish uchun batafsil empirik asos yaratdi. Ushbu ma’lumotlarga asoslangan yondashuv siyosatchilarga ta’sir qildi va 20-asr boshlarida ijtimoiy islohotlarni shakllantirishda muhim rol o’ynadi. Uning tadqiqotlari Britaniyada ijtimoiy ta’minot siyosatining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ta’kidlash joizki, u 1908-yilda davlat pensiyasini va 1911-yilda milliy sug‘urtani joriy etishga hissa qo‘shgan. Booth ning xulosalari turli shaharlar va hududlardagi qashshoqlik darajasi haqida keng muhokamalarga sabab bo‘ldi, jamoatchilik xabardorligini oshirdi va ijtimoiy masalalar bo‘yicha munozaralarni kuchaytirdi. Booth ning metodologiyasi va topilmalari qashshoqlik bilan bog‘liq keyingi tadqiqotlarga ta’sir ko‘rsatdi, shu jumladan Yorkdagi Rountree ishi va keyinchalik Qo‘shma Shtatlar va Hindistondagi tadqiqotlarga ham. Uning ishi Chikago sotsiologiya maktabi va boshqa muhim ijtimoiy fanlar tadqiqoti an’analari uchun asos yaratdi. Booth ning amalga oshirgan ishlari o‘z davri uchun tub burulish nuqtasi bo‘lgan ersada ba’zi kamchiliklardan holi emas edi. Booth va Rountree turli xil kambag‘alik chegaralaridan foydalangan, bu esa turli hududlarda kambag‘allik darajasini o‘lchash va taqqoslashda nomuvofiqliklarga olib keldi. Ushbu masala qashshoqlikni bir xilda aniqlash va o‘lchash muammolarini ko‘rsatdi. Booth ma’lumotlarining murakkabligi va kambag‘allikni xaritalashning yangi yondashuvi statistik yoki ijtimoiy fanlar metodologiyasini yaxshi bilmaydiganlar tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Bu qashshoqlik va uning sabablari haqida haddan tashqari soddalashtirilgan yoki noto‘g‘ri xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin. Boothning ishi o‘sha paytda asos bo‘lgan bo‘lsa-da, uning topilmalarining kambag‘allikni kamaytirishga uzoq muddatli ta’siri hali ham muhokama qilinmoqda. Olimlarning ta’kidlashicha, uning batafsil xaritalash va tadqiqotlariga qaramay, kambag‘allik asosidagi tizimli muammolar uning ma’lumotlari bevosita ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan vositalardan ko‘ra kengroq yechimlarni talab qiladi. Keyns davriga kelib iqtisodiyotga yondashuv birmuncha o‘zgarishlarga uchradi. Keyns “yalpi talab”, iqtisodiy faoliyat va bandlikning harakatlantiruvchi kuchi degan kontseptsiyani kiritdi va bu “yalpi taklif” omillarini ta’kidlagan klassik iqtisodiy nazariyalardan sezilarli darajada chekinishini ko’rsatdi. Uning “Bandlik, foiz va

pulning umumiy nazariyasi” (1936) nomli muhim asari Keyns maktabining nazariy asosini yaratdi. Bu nazariya hukumatning moliyaviy va pul-kredit siyosati orqali aralashuvi iqtisodiy tsikllarni boshqarish va turg‘unlik va iqtisodiy pasayish oqibatlarini yumshatish uchun zarur ekanligini ta’kidlaydi. Keyns iqtisodiy tanazzul davrida ish o‘rinlarini yaratish uchun jamoat ishlari bo‘yicha dasturlarning kuchli ta’rafdori edi. Ushbu dasturlar ishsizlikni kamaytirish va kambag‘allarga daromad keltirish va shu bilan birga umumiy iqtisodiy talabni rag‘batlantirish uchun ishlab chiqilgan edi. Bundan tashqari, uning nazariyalari odamlarni iqtisodiy o‘zgarishlarning salbiy ta’siridan himoya qiladigan ishsizlik sug‘urtasi va farovonlik dasturlari kabi ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarini ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatladi. Keyns Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVF) va Jahon banki kabi xalqaro moliya institutlarini yaratgan Bretton-Vuds tizimini(Bretton-Vuds tizimi (Bretton Woods System) — bu xalqaro valyuta-moliya tizimi bo‘lib, Ikkinchi jahon urushidan keyin 1944-yilda AQShning Nyu-Xempshir shtatidagi Bretton-Vuds shahrida bo‘lib o‘tgan konferensiyada asos solingan. Ushbu tizimning maqsadi urushdan keyingi global iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va xalqaro savdoni rivojlantirish edi. Bretton-Vuds tizimi 1971-yilda AQSh prezidenti Richard Nikson AQSh dollarini oltin bilan almashtirish majburiyatini bekor qilganidan so‘ng rasmiy tugadi. Shu tariqa, bu tizimdan so‘ng zamonaviy suzuvchi valyuta kurslari tizimi joriy etildi.) yaratishda hal qiluvchi ro‘l o‘ynadi. Ushbu institutlar global iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Bundan tashqari, ko‘pgina G‘arb davlatlari Ikkinchi jahon urushidan keyin davlatlarining farovonligini rivojlantirishda Keyns tamoyillarini qabul qildilar, bu esa kambag‘allikning sezilarli darajada qisqarishiga va turmush darajasining yaxshilanishiga olib keldi. Keyns iqtisodi ko‘pincha progressiv soliqqa tortishni qo‘llab-quvvatlaydi, bu erda yuqori daromadlilar yuqori stavkada soliqqa tortiladi, bu daromadlarni qayta taqsimlashga va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Iqtisodiy tsikllarni yumshatish siyosatini qo‘llab-quvvatlagan holda, Keyns iqtisodi kambag‘allarga nomutanosib ravishda ta’sir ko‘rsatadigan ekstremal yuksalishlar va inqirozlarning oldini olishga yordam beradi. Biroq, hukumat aralashuvining kuchayishi samarasizlikka, byurokratik qog‘ozbozlikka va resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga olib kelishi mumkin. Hukumat loyihalari har doim ham iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishning eng samarali usuli bo‘lishi mumkin emas. Bundan tashqari, taqchillik xarajatlarini moliyalashtirish uchun davlat qarzlari xususiy investitsiyalarni cheklab qo‘yishi mumkin, bu esa potentsial yuqori foiz stavkalariga va uzoq muddatda iqtisodiy o‘sishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Keyns siyosati ko‘pincha barqaror o‘sishning uzoq muddatli strategiyasi emas, balki iqtisodiy tanazzulga qisqa muddatli yechim sifatida qaraladi.

Bu siyosatlar hukumat aralashuviga bog‘liq bo‘lib, o‘z-o‘zini ta’minlaydigan iqtisodiyotning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Keyinchalik 1960-yillar Qo‘shma Shtatlarda boy jamiyatlardagi doimiy kambag‘allik haqida xabardorlikning kuchayishi bilan tavsiflangan muhim davr bo‘ldi. Ko‘pincha “kambag‘allikning qayta kashf etilishi” deb ataladigan bu davr kambag‘allik chegarasidan pastda yashayotgan millionlab amerikaliklar duch keladigan dahshatli haqiqatlarni ochib berdi. Ushbu qayta kashfiyotda ishtirok etgan asosiy omillar va raqamlar davlat siyosati va ijtimoiy ongga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Maykl Xarringtonning “Boshqa Amerika” (1962) nomli kitobining nashr etilishi aholining kambag‘allik haqida xabardorligini oshirishda muhim ro‘l o‘ynadi. Harringtonning Amerikadagi kambag‘allarning hayotini batafsil tavsifi yashirin kambag‘allikni fosh qildi va ijtimoiy tengsizlik haqida milliy baxsni keltirib chiqardi. Ommaviy axborot vositalarida voqeylikning yoritilishi va jurnalistik surishtiruvlar bu masalani yanada dolzarblashtirib, qashshoqlik haqidagi dalillarni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqdi. Bu ogohlik jamiyatning turli sohalarini, jumladan, akademiklar, siyosatchilar va faollarni muammoni tizimliroq hal qilish uchun safarbar etdi. Kambag‘allikning tom ma’noda qayta kashf etilishi muhim siyosiy harakatlarga olib keldi, xususan, Prezident Lindon B. Jonson 1964 yilda "kambag‘allikka qarshi shiddatli urush" e’lon qildi. Bu tashabbus iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy imkoniyatlarni yaxshilashga qaratilgan bir qator qonunchilik choralari va dasturlari orqali kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan edi. Ushbu davrda joriy etilgan asosiy dasturlar orasida keksalar va kambag‘allarga tibbiy yordam ko‘rsatadigan “Medicare” va “Medicaid” va kam ta‘minlangan oilalar orasida ochlikni engillashtirishga qaratilgan oziq-ovqat markasi to‘g‘risidagi qonun kiradi. 1964 yildagi Iqtisodiy imkoniyatlar to‘g‘risidagi qonun kambag‘allarning imkoniyatlarini kengaytirish va o‘z-o‘zini ta’minlashni rag‘batlantirish uchun jamoat harakat dasturlari, ish o‘rgatish va ta’lim tashabbuslarini o‘rnatdi. 1960-yillardagi siyosiy tashabbuslar aholining zaif qatlamlariga foyda keltirishda davom etadigan keyingi ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlari uchun asos yaratdi. Erta bolalik davridagi ta’lim va kengaytirilgan ijtimoiy ta’minot imtiyozlari kabi “Head Start” dasturlar kambag‘allikni kamaytirish va hayot sifatini yaxshilashga doimiy ta’sir ko‘rsatdi. Kambag‘allikni yumshatishga qaratilgan e’tibor, shuningdek, mehnat bozorida kengroq ishtirok etish va aholi orasida iste’mol xarajatlarini oshirish orqali iqtisodiy o‘sishga yordam berdi. Bu sohada ko‘zga koringan nazariyalardan biri Jon Roulzning “Adolat nazariyasi”. Amerikaning taniqli faylasufi Jon Roulz “Adolat nazariyasi” (1971) nomli muhim asari bilan siyosiy falsafaga katta hissa qo‘shdi. Roulsning adolat tamoyillari ijtimoiy adolat, iqtisodiy tengsizlik va qashshoqlikni bartaraf etish haqidagi zamonaviy munozaralarga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Uning nazariy asoslari adolatli jamiyat

yaratishga qaratilgan siyosatni baholash va loyihalash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Roulsning birinchi printsipi har bir insonning to‘liq adekvat asosiy erkinlik sxemasida teng huquqqa ega ekanligini ta’kidlaydi, bu esa boshqalar uchun o‘xshash erkinliklar sxemasiga mos keladi. Bu tamoyil adolatli jamiyatning asosi sifatida so‘z va vijdon erkinligi kabi shaxs erkinliklari va huquqlarini himoya qilish muhimligini ta’kidlaydi. Asosiy erkinliklarga e’tibor kambag‘allikni bartaraf etishga qaratilgan siyosatlar shaxsiy erkinliklarni buzmasligini ta’minlaydi. U kattaroq iqtisodiy tenglikka erishishga harakat qilganda ham saqlanishi kerak bo‘lgan huquqlarning asosini belgilaydi. Farq printsipi - bu Roulsning adolatning ikkinchi printsipi bo‘lib, unda ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar jamiyatning eng kam imtiyozli a’zolariga eng katta foyda keltiradigan tarzda tartibga solinishi kerak. Ushbu tamoyil eng kambag‘al shaxslarning farovonligini oshirishga qaratilgan qayta taqsimlash siyosati uchun kuchli dalil beradi. Eng kam foyda ko‘rganlarning ehtiyojlarini birinchi o‘ringa qo‘yib, farq tamoyili progressiv soliqqa tortish, ijtimoiy ta’minot dasturlari va ijobiy harakatlar kabi choralarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu siyosatlar qashshoqlikni kamaytirish va iqtisodiy va ijtimoiy tenglikni oshirishga qaratilgandir. Rouls, shuningdek, imkoniyatlarning adolatli tengligini ta’kidlaydi, bu o‘xshash qobiliyat va iste’dodlarga ega bo‘lgan shaxslar, ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, teng muvaffaqiyatga erishishni talab qiladi. Ushbu tamoyil ta’lim, sog’liqni saqlash va ish bilan ta’minlash imkoniyatlaridan teng foydalanishni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarga asoslanadi. Ushbu tamoyildan ilhomlangan siyosatlar kam ta’minlangan guruhlarning resurslar va imkoniyatlardan foydalanishiga to‘sqinlik qiladigan to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan. Ular kam ta’minlangan talabalar uchun stipendiya dasturlari, kamsitishlarga qarshi qonunlar va sog‘liqni saqlash subsidiyalari kabi tashabbuslarni o‘z ichiga olishi mumkin. Rouls nazariyasining asosiy kamchiliklaridan biri uning mavhum va idealistik tabiatidir. Adolat tamoyillari gipotetik stsenariylardan kelib chiqqan bo‘lib, ular real vaziyatlarning murakkabliklari va amaliy jihatlarini to‘liq aks ettira olmasligi mumkin. Rauls tamoyillarini aniq siyosat ishlab chiqishda qo‘llash qiyin, chunki u mavhum tushunchalarni amaldagi dasturlar va qonunchilikka aylantirishni talab qiladi. Rouls tamoyillari barcha madaniy va ijtimoiy kontekstlarga to‘liq mos kelmasligi mumkin bo‘lgan muayyan falsafiy an’anaga asoslanadi. Turli jamiyatlarda adolat va hukumatning roli haqida turli xil tushunchalar mavjud bo‘lib, ular Rauls siyosatining qabul qilinishi va samaradorligiga ta’sir qiladi. Rouls tamoyillarini turli kontekstlarga moslashtirish mahalliy qadriyatlar, an’analar va ijtimoiy me’yorlarni hisobga olgan holda nozik yondashuvni talab qiladi. Keyinchalik 1990 yilda Jahon banki qashshoqlikni qisqartirish bo‘yicha global majburiyatni aks ettiruvchi “Bizning orzuimiz - kambag‘allikdan

xoli dunyo” shiorini qabul qildi. Bu shior institutning turli iqtisodiy va rivojlanish siyosatlari orqali kambag‘allikni bartaraf etish missiyasini qamrab oldi. Jahon bankining ushbu davrdagi strategiyalarida barqaror rivojlanish, iqtisodiy o‘sish va dunyoning eng kambag‘al aholisining turmush darajasini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu shiorning qabul qilinishi xalqaro hamjamiyat tomonidan kambag‘allikni global miqyosda hal qilish bo‘yicha qat’iy, yagona majburiyatdan dalolat berdi. Bu qashshoqlikka qarshi kurash dasturlari bo‘yicha hamkorlikni va resurslarni taqsimlashni rag‘batlantirib, mamlakatlar bo‘ylab sa’y-harakatlarni jadallashtirishga yordam berdi. Jahon banki tomonidan kambag‘allikni kamaytirishga e’tibor qaratilishi boshqa xalqaro tashkilotlar, ikki tomonlama donorlar va milliy hukumatlarning rivojlanish kun tartibida kambg‘allikni birinchi o‘ringa qo‘yishiga ta’sir qildi. 1990-yillarda Jahon banki tomonidan kambag‘likni qisqartirish bo‘yicha kompleks strategiyalar, jumladan, tuzilmaviy tuzatish dasturlari, infratuzilma, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga sarmoya kiritish, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun mikromoliyaviy tashabbuslar joriy etildi. Ushbu strategiyalar iqtisodiy o‘sish uchun qulay muhit yaratish, muhim xizmatlardan foydalanishni yaxshilash va ijtimoiy inklyuziyani rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, shu bilan kambag‘likning alomatlari va asosiy sabablarini bartaraf etishga qaratilgan. Jahon banki kambag‘allikni o‘lchash va monitoring qilish metodologiyasini ishlab chiqishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Bu turli mamlakatlarda kambag‘allik darajasini baholash uchun standartlashtirilgan mezonni taqdim etgan Xalqaro qashshoqlik chegarasini yaratishni o‘z ichiga oladi. Takomillashtirilgan ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish ko‘proq maqsadli va samarali tadbirlarni amalga oshirish imkonini berdi, bu esa taraqqiyotni kuzatish va yaxshi natijalarga erishish uchun kerak bo‘lganda siyosatni o‘zgartirishga yordam berdi. Shuningdek 20-asr oxiri va 21-asr boshlarida daromadlarning global tengsizligiga e’tibor kuchaydi, ko‘plab tadqiqotlar turli mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha daromad taqsimotini tushunishga qaratildi. Ushbu tadqiqotlar tengsizlikning tabiati va ko‘lami haqida tanqidiy tushunchalar berdi. Tomas Piketti kabi iqtisodchilar tomonidan global daromad tengsizligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mamlakatlar ichida ham, o‘rtasida ham daromad va boylikdagi nomutanosiblik kuchayib borayotganini ta’kidladi. Piketti ishi, xususan, uning “Yigirma birinchi asrdagi kapital” kitobi aholining yuqori foizli qatlamlari o‘rtasida tengsizlik va boylikning kontsentratsiyasining uzoq muddatli tendentsiyalarini ta’kidlaydi. Branko Milanovich daromad taqsimotining tarixiy tahlillari tengsizlik tendentsiyalarining asrlar davomida keng qamrovli ko‘rinishini taqdim etdi va iqtisodiy siyosatlar va global voqealar nomutanosibliklarga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari progressiv

soliqqa tortish, ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlari, ta’lim va sog‘liqni saqlashga investitsiyalar kabi tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan siyosat tavsiyalarini ma’lum qildi. Ushbu tavsiyalar hukumatlarga iqtisodiy tenglikni oshirishga yordam beruvchi qayta taqsimlash siyosatini amalga oshirish uchun asos yaratadi. Misol uchun, Jahon tengsizlik laboratoriyasi tomonidan 2018-yilgi “Jahon tengsizlik hisoboti” boylik solig'i va global tengsizlikni bartaraf etish uchun xalqaro hamkorlikni qollab quvvotladi. Tadqiqotlar inklyuziv o‘sish muhimligini ta’kidlaydi, iqtisodiy rivojlanishning afzalliklari jamiyatning barcha qatlamlari orasida keng taqsimlanishini ta’minlaydigan siyosatni qo‘llab-quvvatlaydi. Global daromadlar tengsizligidan xabardorlikning ortishi xalqaro tashkilotlar, nohukumat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati guruhlari tomonidan tashviqot ishlariga turtki bo‘ldi. Qarzlarni yumshatish, adolatli savdo va yanada adolatli global iqtisodiy siyosatlar uchun kampaniyalar kuchayib, tengsizlikni bartaraf etish uchun tizimli o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Oksfam kabi tashkilotlarning hisobotlari boylikdagi haddan tashqari nomutanosiblikni ta’kidlab, tengsizlikni kamaytirish uchun shoshilinch siyosat aralashuvini talab qildi. Jahon tengsizlik hisoboti kabi nufuzli nashrlar va hisobotlar butun dunyo bo‘ylab jamoatchilik fikri va siyosiy kun tartibiga ta’sir ko‘rsatib, bu masalaga e’tibor qaratdi. Yuqorida holatlardan shuni xulosa qilish mumkunki, dunyo iqtisodiyotiga kambag‘allikni yangi turi yani nisbiy kambag‘allik bugungi dunyo hamjamiyati oldida yechilishi zarur bo‘lgan masala sifatida paydo bo’lib kelmqoda.

XULOSA

Maqolada kambag‘allik tushunchasining falsafiy va tarixiy rivoji keng qamrovda o‘rganilgan. Tarix davomida kambag‘allikka nisbatan turli qarashlar shakllangan bo‘lib, bu masala ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kontekstlarda muhim o‘rin egallagan. Amir Temur davridan boshlab islomiy nuqtai nazardan kambag‘allikka qarshi kurashda adolat, tenglik va yordam ko‘rsatish tamoyillari asosiy omillar sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, zamonaviy faylasuflar va iqtisodchilarning, jumladan, Jon Rols va Amartya Sen kabi olimlarning nazariyalari kambag‘allikning asosiy sabablarini tushunishga hamda uni bartaraf etish uchun turli strategiyalarni ishlab chiqishga yo‘l ochgan. Maqola, kambag‘allikni iqtisodiy, falsafiy va ijtimoiy jihatdan keng o‘rganib, bu masalani zamonaviy kontekstda hal etishga oid muhim yondashuvlarni taqdim etadi.

REFERENCES

1. Aristotle. (1999). Nicomachean Ethics. Translated by Terence Irwin. Hackett Publishing Company.

2. Rawls, J. (1971). A Theory of Justice. Harvard University Press.
3. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford University Press.
4. Milanovic, B. (2011). The Haves and the Have-Nots: A Brief and Idiosyncratic History of Global Inequality. Basic Books.
5. Piketty, T. (2014). Capital in the Twenty-First Century. Harvard University Press.
6. Townsend, P. (1979). Poverty in the United Kingdom: A Survey of Household Resources and Standards of Living. Allen Lane.
7. Johnson, L. B. (1964). State of the Union Address: War on Poverty. U.S. Government Printing Office.
8. Snow, J. (1855). On the Mode of Communication of Cholera. John Churchill.
9. Marx, K. (1867). Das Kapital: Kritik der politischen Ökonomie. Verlag von Otto Meisner.
10. Spicker, P. (2007). The Idea of Poverty. Policy Press.
11. Temur, A. (1991). Temur Tuzuklari (Amir Temur qonun-qoidalari). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis nashriyoti.
12. Qur'on. (610-632). Al-Qur'an al-Karim. Tarjimasi: Abdulaziz Mansur. Toshkent: "Hilol Nashr" nashriyoti.
13. Qur'on suralari: "Al-Baqara" (2:177), "An-Nisa" (4:36), kambag‘allik va adolatga doir qoidalar haqida.

INTENSIV OLMA BOG‘LARIDAGI DARAXTLARNING EKISH SXEMALARINI HOSILDORLIK VA MEVALAR SIFATIGA TA’SIRI

Ixtiyor Choriyevich Namozov
Toshkent davlat agrar universiteti, professor
ihtiyor_8226@mail.ru

Mirakbar Mirshoxid o‘g‘li Mirjaxparov
Erkin tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Maqolada intensiv tipdagi olma bog‘laridagi daraxtlarning ekish sxemalarini mevalarning sifatiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy asoslangan ma’lumotlar keltirilgan. Aniqlanishicha, olmaning Starkrimson navida sifati yuqori bo‘lgan mevalarning 80% dan ortiq miqdoriga pakana M-IX payvandtagida 3,5x2,0 m, o‘rta bo‘yli MM106 payvandtagida esa 4,0x3,0 m ekish sxemasida ekilgan tajriba variantlarida olindi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra olma mevalarini bir tekis yetilishiga ko‘ra 3,5x2,0 m sxemada ekilgan M-IX payvandtagidagi daraxtlardan 81,2% yuqori sifatli mevalar terib olindi. O‘rta bo‘yli MM106 payvandtagidagi daraxtlarni 4,0x3,0 m sxemada ekilgan variantda 79,7% atrofida hamda gektariga 21 t/ga va 18 t/ga yuqori sifatli mevalar terib olindi.

Kalit so‘zlar: Bog‘, payvandtag, navlar, olma, ko‘chat, daraxt, kesish, shakl berish, novda, kurtak, gul, meva, qand miqdori, hosil.

INFLUENCE OF APPLICATION PLACEMENT OF APPLE TREE IN AN INTENSE GARDEN ON HARVEST AND QUALITY OF FRUIT

ABSTRACT

The scientific article provides experimental material devoted to the study of the influence of the Starkrimson apple tree layouts when grown on a weakly vegetatively propagated stock M-IX and medium-sized MM106. With the placement scheme of this variety 3,5x2,0 m, the marketability of fruits averaged 81,2%, rootstock MM106 with a planting plan of 4,0x3,0 meters-79,7%, respectively, with the yield according to the schemes of 21 ton/ha and 18 ton/ha.

Keywords: Garden, stock, varieties, apple tree, seedling, tree, pruning, forming, shoot, bud, flower, fruit, sugar content, harvest.

KIRISH

Respublikamizda bugungi kunda intensiv olma bog‘larining maydonini muntazam oshirib borish, ularni parvarishlash texnologiyasini takomillashtirish hisobiga bog‘dorchilikning samaradorligini oshirish mamlakatimiz mevachilik sohasining dolzarb vazifalaridan biridir. Shu bois so‘nggi

yillarda intensiv olma bog‘larining maydoni qariyb 48 ming gektarga yetkazildi.

Intensiv bog‘lar maydonini kengaytirish, samarasiz eskirgan bog‘larni bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilish va intensiv asosga o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonida ham alohida belgilab berilgan [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pakana payvandtaglarda o‘stirish va shox-shabbasiga urchuqsimon shakl berish intensiv olma bog‘larida daraxtlarni gektariga 2 mingdan 5 ming donagacha joylashtirish imkonini beradi. Bu esa gektaridan katta yoshli bog‘larda barqaror 30-40 tonna hosil olishni ta’minlaydia [2; 19-b.].

M.M.Yakubov, D.Q.Nazarovalarning [6; 87–90-b.] Toshkent viloyati sharoitlarida olib borgan tadqiqotlarida Tatura usulida shakllantirilgan bog‘larda daraxtlarning joylashish zichligi o‘rganilgan. Bunda o‘simliklar zich qilib o‘tkazilganda olmaning Rozmarin navi 17 yillik daraxtlari odatdagi masofa bilan ekilgan daraxtlarga nisbatan 30% ga yuqori hosil bergan.

Qator olimlarning fikricha [3; 7–8-b.]; [4; 47–48-b.], ekish sxemasi, ya’ni o‘simlik zichligi meva sifatining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Olimlarning fikricha nisbatan sara, bir tekis va to‘liq rang olgan mevalar ekstensiv bog‘larda emas, aksincha intensiv bog‘larda yetishtiriladi deb ta’kidlashgan [5; 11–13-b.].

Tajribalar “Mevachilik va uzumchilik” kafedrasida ishlab chiqilgan uslub bo‘yicha olib borildi. Dala tajribalari Toshkent davlat agrar universitetning ilmiy tadqiqot va o‘quv-tajriba xo‘jalik stansiyasidagi hosilli olma bog‘ida o‘tkazildi. Biometrik o‘lchovlar va hisoblar: har bir variantda 10 ta o‘simlikda olib borildi. Tajriba to‘rt qaytariqda o‘rganildi.

Tajribalar X.Ch.Buriev va boshqalarning «Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi» (2014), V.F.Moiseychenkoning «Metodika uchetov i nablyudeniy v opitax s plodovimi i yagodnimi kulturami» (1967) nomli uslubiy adabiyotlarida keltirilgan tavsiyalarga muvofiq va Tajriba ma’lumotlariga statistik ishlov berish B.A.Dospexov (1985) uslubi bo‘yicha dispersion tahlildan o‘tkazildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Hosildorlik har qanday qishloq xo‘jaligi ekinlarida qo‘llanilgan agrotexnik tadbirning samaradorligini ko‘rsatuvchi muhim indikator hisoblanadi. Shu bois bugungi kunda tuproq unumdorligi, suv, quyosh energiyasi va mavjud moddiy resurslardan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish qishloq xo‘jaligi mutaxassislari oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shu bois butun dunyoda bugungi kunda intensiv bog‘dorchilikda daraxtlar oralig‘ini maksimal zichlashtirish hisobiga maydon birligidan eng yuqori hosil olishni ta’minlovchi ekish

sxemalarini qo‘llash bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Negaki, intensiv bog‘dorchilikni jadallashtirish to‘liq hosilga tez kiruvchi, muntazam barqaror va sifatli hosil beradigan, minimal mehnat sarflanuvchi bog‘larni yaratishni ko‘zda tutadi.

Mevalarning tovar sifatlarini ekish sxemasiga bog‘liqligini o‘rganish bo‘yicha kuzatuvlarimizda ularning bir tekisliligini baholash uchun nav tavsifida keltirilgan diapazon mezon sifatida olindi:

Nav	**mayda mevalar**	**tovarbop mevalar**	**o‘ta yirik mevalar**
Starkrimson	< 140 gr	140-170 gr.	170 gr. <

Kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatdiki, bir tekis va intensiv rang olgan mevalar miqdori zichlashtirilgan ekish sxemalarda ustunlik namoyon etdi. Binobarin, M-IX payvandtagida o‘stirilgan olmaning kuzgi Starkrimson navining mevalari o‘rtacha 140-170 gramm atrofida bo‘ladi. Bizning tajribalarimizda ushbu diapazondagi mevalarning eng yuqori – 81,2% miqdori 3,5x2,0 m sxemada barpo etilgan bog‘da qayd etildi. Quyidagi 1-rasm ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, ekish zichligi oshirilganda mayda mevalar soni ortib, yirik mevalar miqdori kamayib bordi va aksincha siyrak ekilgan daraxtlarda yirik mevalar miqdori birmuncha yuqori bo‘ldi. Biroq juda zich ekib yuborilganda mayda mevalar miqdori birmuncha ortganligi qayd etildi.

O‘rta bo‘yli MM106 payvandtagida o‘stirilganda ham olmaning kuzgi Starkrimson navi mevalarining bir tekislik darajasi yuqoridagi payvandtagda kuzatilgan tendensiyaga ega bo‘ldi. Faqatgina ushbu holatda payvandtagning o‘sish kuchiga biroz bog‘liq holda barcha ekish sxemalarida birmuncha yuqori bo‘lganligi qayd etildi. Ushbu payvandtag turida bir tekis mevalarning eng yuqori foizi 4,0x3,0 m sxemada qayd etildi (1-jadval).

1-jadval

Olmaning kuzgi Starkrimson navi mevalarining sifatiga daraxtlarni ekish sxemalari va payvandtaglarini ta’siri

Variantlar	**<140 g.**	**140-170 g.**	**170 g. <**	**<140 g.**	**140-170 g.**	**170 g. <**
	M-IX payvandtagida, %			**MM106 payvandtagida, %**		
3,5 x 3,0	4,7	74,6	20,7	4,8	71,6	23,6
3,5 x 2,5 – nazorat	5,4	78,3	16,3	5,7	76,2	18,1
3,5 x 2,0	8,6	81,2	10,2	7,1	79,7	13,2
3,5 x 1,5	14,7	76,3	8	17,1	73,5	9,4

MUHOKAMA

Juda zichlashtirib yuborilganda esa ushbu omilning yana pasaya boshlashi qayd etildi. Binobarin, pakana M-IX payvandtagida o‘stirilgan daraxtlar mevasining bir tekisligi qatordagi o‘simliklar oralig‘i 3,0 m dan 2,0 m gacha kamaytirilganda ortib bordi. O‘simliklar oralig‘ini bundanda yaqinlashtirish (1,5 m) bir tekislik darajasining yana pasayishiga sabab bo‘ldi. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, bir tekis mevalarning yung yuqori – 81,2% miqdori

3,5x2,0 m sxemada joylashtirilgan daraxtlardan terib olindi.

O‘rta bo‘yli MM106 payvandtagida ham mevaning bir tekisligi bo‘yicha tafovutlar yuqoridagi kabi tendensiyada ifodalandi. Ushbu payvandtagda bir tekis mevalar 4,0x3,0 m sxemada eng yuqori, ya’ni 79,7% atrofida bo‘ldi.

XULOSA

Olmaning Starkrimson navi mevalarning bir tekis yetilishi ekish sxemasiga bog‘liq bo‘lib, o‘simliklar qalinligi oshirilgan sari ma’lum qalinlikkacha ortib boradi. Juda zichlashtirib yuborilganda esa ushbu omilning yana pasaya boshlashi qayd etiladi. Bir tekis mevalarning eng yuqori – 80% dan ortiq miqdoriga pakana M-IX payvandtagida 3,5x2,0 m, o‘rta bo‘yli MM106 payvandtagida esa 4,0x3,0 m ekish sxemasida erishiladi.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh. PF-4947-son. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. Prezident Farmoni. – Toshkent, 2017 yil 7 fevral.
2. Badtieva Z.S., Gagloeva L.Ch., Basiev S.S. Razmsheenie derevev. / V kn. Osnovie elementi intensivnoy texnologii vozdelivaniya nasajdeniy yabloni. – Vladikavkaz, 2015. – S. 19.
3. Grigoreva L.V. Agrobiologicheskie aspekti povisheniya produktivnosti yabloni v nasajdeniyax Schr RF. Avtoref. diss. dok.s/x. nauk. – Krasnodar, 2015. – S. 7-8.
4. Kusukov A.S., Peryaslova L.B., Sergaziev K.S., Isaev S.I. Intensivnoe sadovodstvo // Urojay i kachestvo // Glavniy agronom. – 2005. – № 1. – S. 47-48.
5. Senin V.I., Kovaleva A.F. Produktivnost yabloni na podvoe M9 v uplotnennix posadkax // Sadovodstvo i vinogradarstvo. – 1992. – № 7. – S. 11-13.
6. Yakubov M.M., Nazarova D.Q. Tatura usulida shakllantirilgan bog‘ni barpo qilish //Mintaqalararo mevachilik va uzumchilikning holati, muammolari, istiqbollari mavzusidagi Halqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to‘plami. – Toshkent, 2018. – B. 87-90.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA OLIMPIADA SPORT TURLARIGA OID LEKSIKANING UMUMIY TAVSIFI

Jaxongir Abdisalimovich Kenjabayev
Termiz davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillari kafedrasi katta o`qituvchisi, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
kenjaboyev80@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Olimpiada sport turlariga oid ingliz va o‘zbek tillaridagi leksikaning umumiy tavsifi bayon etilgan. Olimpiada o‘yinlari sport atamalarining xalqaro miqyosda qanday tarqalishi va tillarga ta’siri tahlil qilingan. Ingliz tilidagi sport atamalari ko‘pincha global terminologiyaning asosini tashkil etsa, o‘zbek tilida ularning o‘zlashtirilishi va tarjima jarayonlari alohida o‘rganilgan. Maqolada sport leksikasining har ikki tildagi o‘xshashliklari va farqlari, shuningdek, atamalarning madaniy ta’sirlari haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Olimpiada o‘yinlari, sport leksikasi, ingliz tili, o‘zbek tili, sport atamalari, xalqaro terminologiya, madaniy xilma-xillik, leksik tahlil, sport turlari, til moslashuvi, leksik farqlar, terminologiya.

ABSTRACT

This article describes the general description of the lexicon related to Olympic sports in English and Uzbek languages. The spread of sports terms of the Olympic Games at the international level and their influence on languages are analyzed. While sports terms in English often form the basis of global terminology, their acquisition and translation processes in Uzbek have been studied separately. The article discusses the similarities and differences of the sports lexicon in both languages, as well as the cultural implications of the terms.

Keywords: Olympic Games, sports lexicon, English language, Uzbek language, sports terms, international terminology, cultural diversity, lexical analysis, types of sports, language adaptation, lexical differences, terminology.

KIRISH

Olimpiada o‘yinlari dunyoning eng mashhur sport tadbirlaridan biri bo‘lib, uning doirasida ko‘plab turli millat va madaniyat vakillari sportda o‘z mahoratlarini namoyon etishadi. Bu tadbir nafaqat sportning yuksak yutuqlarini, balki madaniy va tillarning xilma-xilligini ham aks ettiradi. Olimpiada sport turlari uchun ishlatiladigan leksika o‘yinlarda

ishtirok etuvchi barcha tillarda o‘z aksini topib, sport atamalari turli tillarda qanday namoyon bo‘lishiga yaqqol misoldir. Olimpiada sport turlariga oid ingliz va o‘zbek tillaridagi leksikaning tahlili, ushbu ikki tilning sport sohasidagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Sport leksikasining tabiati va xususiyatlari

Leksika — har qanday tilning asosiy qismi bo‘lib, u ma’lum bir fan, sohani yoki yo‘nalishni ifodalaydi. Sport leksikasi esa turli sport turlari, musobaqalar, qoidalar va ishtirokchilarga oid so‘zlar va atamalarni o‘z ichiga oladi. Olimpiada sport turlariga oid leksika sport sohasida ishlatiladigan maxsus atamalar yig‘indisidan iborat bo‘lib, ularning aksariyati sport turlari nomlari va faoliyatlarini ifodalaydi.

Ingliz tilidagi sport leksikasi jahon bo‘ylab keng qo‘llaniladigan xalqaro leksika hisoblanadi. Olimpiada sport turlarining ko‘pchiligi ingliz tilidan tarqalgan yoki uning ta’sirida global terminologiyaga aylangan. Masalan, *"track and field" (atletika), "swimming" (suzish), "gymnastics" (gimnastika)* kabi atamalar turli tillarga asosan bir xil ma’noda kirib kelgan.

O‘zbek tilidagi sport leksikasi esa asosan kirilgan xalqaro atamalarni o‘zlashtirish orqali shakllangan. Ayniqsa, zamonaviy sport terminlari ingliz va rus tillaridan kirib kelib, o‘ziga xos o‘zbeklashtirilgan ko‘rinishlarini olgan. Masalan, *"chempionat", "olimpiada", "medallar"* kabi atamalar sport sohasida keng qo‘llaniladi. Ammo ayrim sport turlari o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmay, shu tillardagi mavjud atamalar asosida qo‘llaniladi. Masalan, "volleyball" — voleybol, "basketball" — basketbol kabi so‘zlar o‘zbek tilida ham shunday aytiladi.

MUHOKAMA

Olimpiada sport turlari va leksik almashuv

Olimpiada o‘yinlari doirasidagi leksika to‘g‘ridan-to‘g‘ri ingliz tilidagi atamalardan tarjima qilinib yoki qo‘llanilib, xalqaro leksik birliklarga aylanadi. Olimpiada sport turlarining nomlari ko‘pincha hech qanday o‘zgarishga uchramaydi. Masalan, o‘zbek tilida ham atletika, futbol, tennis, voleybol so‘zlari asliya holatda ishlatiladi.

Biroq, ba’zi sport turlari uchun o‘zbek tilida o‘ziga xos tarjima qilingan atamalar ham mavjud. Masalan:

- **Track and field — yo‘l va maydon sport turlari**.
- **Weightlifting — og‘ir atletika**.
- **Figure skating — figurali chang‘ida uchish**.

O‘zbek tilida olimpiada sport turlariga oid leksik birliklar yaratish jarayonida asosan xalqaro atamalarni soddalashtirishga va

ularni o‘zbek tilining fonetik qoidalariga moslashtirishga harakat qilingan. Bu jarayonda ikki tildagi umumiy atamalar bir-biriga juda yaqin bo‘lsa-da, madaniy va ijtimoiy ta’sirlar tufayli ba’zi farqlar ham kuzatiladi.

Sport leksikasidagi o‘xshashliklar va farqlar

Ingliz va o‘zbek tillarida Olimpiada sport turlariga oid leksik birliklar o‘rtasida muayyan umumiyliklar mavjud bo‘lsa-da, ularning qo‘llanilishidagi farqlar tilning ichki qonun-qoidalari va madaniy o‘ziga xosliklarga bog‘liq.

Ingliz tili ko‘pincha sport atamalarini umumiylashtiruvchi va soddalashtiruvchi til sifatida tan olingan. Unda atamalar qisqa va oson tushunarli bo‘lib, sport terminologiyasi xalqaro miqyosda qo‘llaniladi. Masalan, "gold medal" (oltin medal), "referee" (hakam), "championship" (chempionat) so‘zlari dunyo bo‘ylab tushunish oson bo‘lgan atamalar sifatida tan olingan.

O‘zbek tili esa ushbu atamalarni qo‘llanishida o‘ziga xos yo‘lni tutgan. Ba’zi hollarda atamalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish o‘rniga, ularni o‘zlashtirish va tarjima qilishga harakat qilinadi. Masalan, "referee" so‘ziga o‘rinbosar sifatida "hakam" so‘zi qo‘llaniladi.

Leksikaning xalqaro mustahkamlanishi

Olimpiada o‘yinlari kabi yirik xalqaro tadbirlar sport atamalarining dunyodagi turli tillarga kirib kelishi va sport sohasida yagona terminologiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Bunda asosan ingliz va fransuz tillaridan kirib kelgan atamalar asos bo‘lib, bu atamalarning turli tillarga moslashuvi har bir mamlakatning til madaniyatiga bog‘liq.

XULOSA

Olimpiada sport turlariga oid leksika ikki tilda ham (ingliz va o‘zbek) sport sohasidagi muhim atamalar yig‘indisi bo‘lib, ularning umumiy va farqli jihatlari tillarning leksik imkoniyatlari bilan bog‘liq. Sport leksikasining xalqaro ahamiyati uning turli tillarda o‘zgarishsiz qabul qilinishida namoyon bo‘lsa-da, har bir tilda madaniy o‘zgarishlar uning semantik va fonetik tarkibiga ta’sir ko‘rsatadi. Olimpiada o‘yinlari kabi yirik sport tadbirlari sport leksikasining xilma-xilligini boyitadi va turli tillar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlaydi.

REFERENCES

1. Кенжабоев Ж.А. Преимущество использования интеллектуальных игр на занятиях английского языка // ”Халқ таълим” журнали. – Тошкент, 2019 (январ-феврал)1-сон. –Б.121-124.
2. Karshieva B. F. Methodological model of teaching technical students in english on the basis of integrated bilingual education

//interdiscipline innovation and scientific research conference. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 58-60.
3. Karshieva B. F. Methodology and pedagogical practice-test result of organization of pedagogical training //Экономика и социум. – 2022. – №. 12-1 (103). – С. 135-138.
4. Kenjabayev, J. A. (2024). A cross-sectional study of lexicon related to olympic sports in uzbek and english languages. Экономика и социум, (3-2 (118)), 172-174.

PAST BO‘YLI OLMA DARAXTLARIGA SHAKL BERISH USULLARINI HOSILDORLIKKA TA’SIRI

Ixtiyor Choriyevich Namozov
Toshkent davlat agrar universiteti, professor
ihtiyor_8226@mail.ru

Mirakbar Mirshoxid o‘g‘li Mirjaxparov
Erkin tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Maqolada olmani past bo‘yli payvandtaglarida o‘stirilgan daraxtlar shox-shabbasiga shakl berish usulining hosildorlikka ta’sirini aniqlash yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va pakana bo‘yli MIX payvandtagida o‘stirilgan olmani kuzgi Golden Delishes va qishki Fudji navlariining maydon birligidagi hosildorligi kesish va shakl berish usullariga bog‘liqligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Bog‘, payvandtag, navlar, olma, ko‘chat, daraxt, shakl berish, kesish, fotosintez, shox-shabba, meva, hosil.

INFLUENCE OF METHODS FORMATION OF THE CROWN ON THE YIELD OF THE WEAKLY TREES OF APPLE-TREE

ABSTRACT

The scientific article cites experimental material on the study of the effect of types of low-growing rootstocks and intensive methods of crown formation on the productivity of an apple tree when it is grown by intensive technology. It was established by experiments that the optimal stock for growing Golden Delicious and Fuji varieties is M9, and the method of crown formation is sparsely longline palmette.

Keywords: garden, stock, varieties, apple tree, seedlings, tree, formirovka, crown, branches, fruit, harvest.

KIRISH

Dunyo bo‘yicha olma yetishtirishda yetakchilik qilayotgan Xitoy, AQSh (Kaliforniya), Turkiya, Serbiya, Polsha, Rossiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda super pakana, pakana va o‘rta bo‘yli olma bog‘larida payvandtag turlaridan tashqari bog‘ sharoitida daraxtlarni joylashtirish sxemalari va ularga shakl berishning takomillashtirilgan usullari ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Daraxtlarning kesilish sifati va shox-shabbasining shakliga ko‘ra, uning yortilganlik darajasi, undan kelib chiqqan holda esa

muayyan bog‘ning intensivlik darajasi, fotosintez mahsuldorligi va pirovard natija – yuqori hosil to‘g‘risida fikr yuritish mumkin bo‘ladi. Negaki, bog‘ assimilyatsiya sathining yorug‘lik tartibi qanchalik mo‘tadil bo‘lsa, fotosintez shunchalik yaxshi kechadi va mahsuldorlik ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Bu esa daraxtlarni muntazam va ilmiy asoslangan kesish usuli hamda uning qay darajada o‘tkazilish sifatiga bevosita bog‘liq bo‘lib qolaveradi [2], [4], [3], [5], [3], [1].

Tajribalar “Mevachilik va uzumchilik” kafedrasida ishlab chiqilgan uslub bo‘yicha olib borildi. Dala tajribalari Toshkent davlat agrar universitetning ilmiy tadqiqot va o‘quv-tajriba xo‘jalik stansiyasidagi hosilli olma bog‘ida o‘tkazildi. Biometrik o‘lchovlar va hisoblar: har bir variantda 10 ta o‘simlikda olib borildi. Tajriba to‘rt qaytariqda o‘rganildi.

Tajribalar X.Ch.Buriev va boshqalarning «Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi» (2014), V.F.Moiseychenkoning «Metodika uchetov i nablyudeniy v opitax s plodovimi i yagodnimi kulturami» (1967) nomli uslubiy adabiyotlarida keltirilgan tavsiyalarga muvofiq va Tajriba ma’lumotlariga statistik ishlov berish B.A.Dospexov (1985) uslubi bo‘yicha dispersion tahlildan o‘tkazildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Bizning past bo‘yli olma bog‘lar mahsuldorligiga shox-shabbani kesish va ularga shakl berish usulining ta’sirini aniqlash yuzasidan olib borgan tajribalarimiz shuni ko‘rsatdiki, pakana MXI payvandtagida o‘stirilgan olmani kuzgi Golden Delishes navining maydon birligidagi hosildorligi kesish usuliga ko‘ra sezilarli farqlandi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, Golden Delishes navining bir daraxtdan olingan o‘rtacha hosili siyrak yarusli palmetta (90º) (SYaP) shakl berish usulida nazoratga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkichlarda bo‘ldi. Binobarin, nazorat varianti – Urchuqsimon tup - Shpindelbush (UTSh) kesish usulida bir daraxtning o‘rtacha hosili tadqiqot yillari bo‘yicha mos holda 11,8-15,3 kg bo‘lgan bo‘lsa, SYaP shakl berish usulida12,9-18,2 kg gacha yetdi.

Olmaning kuzgi Golden Delishes navida shox-shabbaga shakl berish usuliga bog‘liq ravishda eng kam hosil qiya (70º) palmetta (QP) usulida qayd etildi. Shakl berishning ushbu usulida bir daraxtning o‘rtacha hosili yillar bo‘yicha 11,7 dan 18,75 kg gacha ortib bordi. Bu esa nazorat variantidan mos holda 0,1-0,38 kg ga kamroq bo‘ldi, ya’ni nazorat varianti darajasida bo‘ldi. Italyan palmettasi (IP) usulida shakl berilganda esa ushbu ko‘rsatkich avvalgi tajriba variantlari o‘rtasida oraliq o‘rin egalladi. Bir daraxtdan olingan o‘rtacha hosilga bog‘liq ravishda bir gektardan olingan nazariy hosildorlik ham yuqoridagi kabi tendensiya asosida farqlandi. Binobarin, maydon birligidan

nazoratga nisbatan olingan eng yuqori hosildorlik, qoidaga muvofiq SYaP shakl berish usulida qayd etildi. Shakl berishning ushbu usulida hosildorlik yillar bo‘yicha 16,13 t/gadan 22,75 t/ga gacha ortib bordi, yoki nazoratga nisbatan olingan qo‘shimcha hosil yillar bo‘yicha mos holda 1,38-3,62 t/ga ni tashkil etdi. Eng kam yalpi hosil QP shakl berish usulida qayd etildi, ushbu shakl berish usulida maydon birligidan yetishtirilgan jami hosil 14,63-18,75 t/ga oralig‘ida bo‘ldi. IP shakl berish usuli esa bir daraxtdan olingan o‘rtacha hosilga bog‘liq ravishda oraliq o‘rin egalladi va hosildorlik 15,38-21,0 t/ga oralig‘ida o‘zgardi. Bu esa nazoratga nisbatan 0,63-1,87 t/ga ortiqcha hosil demakdir.

Har xil shakl berish usulida o‘stirilgan olmani qishki Fudji navining hosildorligini qiyosiy tahlil qilish kuzgi Golden Delishes naviga nisbatan boshqacha holatni qayd etish imkonini berdi. Binobarin, olmaning kuzgi Golden Delishes navida eng yuqori hosildorlik SYaP usulida kuzatilgan bo‘lsa, Fudji navida esa ushbu ko‘rsatkichning eng yuqori ifodasi IP usulida shakl berilganda qayd etildi. Ushbu shakl berish usulida Fudji navining har bir daraxtdan olingan hosili tadqiqot yillari bo‘yicha 12,9 dan 19,9 kg gacha yoki nazoratga nisbatan 2,9-4,13 kg ga ortiq bo‘ldi. Olmaning ushbu navida har bir daraxtdan olingan o‘rtacha hosilning nazoratdan kamayishi holatlari kuzatilmadi. Binobarin qolgan – SYaP va QP shakl berish usullarida ushbu ko‘rsatkichlar o‘zaro yaqin qiymatlarga ega bo‘ldi va IP shakl berish usuli hamda nazorat varianti o‘rtasida oraliq o‘rin egalladi. Maydon birligida yetishtirilgan hosil bir daraxtning o‘rtacha hosiliga bog‘liq ravishda IP shakl berish usulida eng yuqori bo‘ldi. Ushbu shakl berish usulida hosildorlik tadqiqot yillari bo‘yicha mos holda 17,75 dan 24,88 t/ga gacha ortib bordi, bu esa nazorat variantiga nisbatan 3,62-4,13 t/ga qo‘shimcha hosil yetishtirish imkonini berdi.

Olmaning qishki Fudji navi daraxtlari shox-shabbasiga SYaP va QP usullarida shakl berishda nazoratga yaqin, ammo birmuncha yuqori hosil yeishtirish imknini berdi. Tadqiqot yillari bo‘yicha ushbu shakl berish usullarida yetishtirilgan yalpi hosil mos holda 16,13-21,88 va 15,75-21,63 t/ga oralig‘ida bo‘ldi. Bu esa nazorat varianti darajasida bo‘lsada, biroz ko‘proq, ya’ni 2,0-1,13 va 1,62-0,88 t/ga qo‘shimcha hosil olish imkonini berdi.

XULOSALAR

Bir daraxtdan olingan o‘rtacha hosilga bog‘liq ravishda, maydon birligidan nazoratdagi variantga nisbatan olingan eng yuqori hosildorlik, siyrak yarusli palmetta shakl berish usulida qayd etildi. Shakl berishning ushbu usulida Golden Delishes navining hosildorligi yillar bo‘yicha 16,13 t/gadan 22,75 t/ga gacha ortib bordi, yoki nazoratga nisbatan olingan qo‘shimcha hosil yillar bo‘yicha mos holda 1,38-3,62 t/ga ni tashkil etdi.

1-jadval

Shox-shabbaga shakl berish usuliga bog‘liq ravishda olmanavlari daraxtlarining hosildorligi (ekilgan yili 2015, ekish sxemasi 4,0x2,0 m)

Tajriba varianti	Yillar bo‘yicha hosildorlik					
	2021		2022		2023	
	bir daraxtdan, kg	maydon birligidan, t/ga	bir daraxtdan, kg	maydon birligidan, t/ga	bir daraxtdan, kg	maydon birligidan, t/ga
Olmaning kuzgi Golden Delishes navi						
Urchuqsimon tup - Shpindelbush – naz.	11,8	14,75	14,2	17,75	15,3	19,13
Italyan palmettasi	12,3	15,38	15,1	18,88	16,8	21,00
Siyrak yarusli palmetta (90º)	12,9	16,13	16,3	20,38	18,2	22,75
Qiya palmetta (70º)	11,7	14,63	14,8	18,50	15,0	18,75
Olmaning qishki Fudji navi						
Urchuqsimon tup - Shpindelbush – naz.	11,3	14,13	14,1	17,63	16,6	20,75
Italyan palmettasi	14,2	17,75	17,2	21,50	19,9	24,88
Siyrak yarusli palmetta (90º)	12,9	16,13	15,3	19,13	17,5	21,88
Qiya palmetta (70º)	12,6	15,75	15,5	19,38	17,3	21,63

Fudji navida italyan palmetta shakl berish usulida eng yuqori hosildorlik kuzatildi. Ushbu shakl berish usulida hosildorlik tadqiqot yillari bo‘yicha mos holda 17,75 dan 24,88 t/ga gacha ortib bordi, bu esa nazorat variantiga nisbatan 3,62-4,13 t/ga qo‘shimcha hosil yetishtirish imkonini berdi.

REFERENCES

1. Gegechkori B.S., Klad V.G., Orlenko S.Yu. Morfologo-anatomicheskie izmenenie organov derevev yabloni v zavisimosti ot sposobov regulirovaniya rosta i razvitiya. // Nauchniy jurnal Kub GAU. - №90 (6). – 2013. – S. 28-38.
2. Jelev I., Obans Ye. Rezitba za optimizirane kolichestvoto i kachestvoto na dobiva pri krushata // Rasteniv’d. nauki. – 1986. – Vip. 23. – № 10. – S. 115-122.
3. Nozdracheva R.G. Obrezka – osnova povisheniya urojaynosti abrikosa // Sadovodstvo i vinogradarstvo. – 2008. – № 2. – S. 7-10.
4. Rezvanseva L.V. Vliyanie plotnosti posadki i vidov obrezki na izmenenie morfofiziologicheskix priznakov i produktivnost sortov yabloni: avtoref. diss. kand. s.-x. nauk / – M., 1989. – S. 5-7.
5. Yakubov M.M. Tatura usulida shakl berilgan olmaning erta kuzgi navlarini yetishtirish va iqtisodiy samaradorligi // Mintaqalararo mevachilik va uzumchilikning holati, muammolari, istiqbollari mavzusidagi Halqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to‘plami. – Toshkent, 2018. – B. 52-55.

REAL HAYOT VAZIYATLARI ORQALI TILNI O‘RGANISH: FUNKSIONAL YONDASHUV

Dilafruz Abdisalimovna Kenjabayeva
Termiz davlat universiteti dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kenjabaevadilafruz605@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tilni o‘rganishda funksional yondashuv, ya’ni real hayot vaziyatlari orqali tilni amaliyotda qo‘llash usuli tahlil qilinadi. Funksional yondashuv tilni nazariy bilim sifatida emas, balki kundalik hayotda qo‘llashga yo‘naltirilgan vosita sifatida o‘rgatishga qaratilgan. Maqolada ushbu yondashuvning asosiy tamoyillari va afzalliklari bayon etiladi, jumladan, tilni real hayotda qo‘llash, interaktiv mashg‘ulotlar, shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi jihatlar ta’kidlanadi. Funksional yondashuv talabalarning o‘z bilimlariga ishonchini oshirib, ularning tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Tilni o‘rganish samaradorligini oshirish uchun mazkur yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: funksional yondashuv, til o‘rganish metodlari, real hayot vaziyatlari, kommunikativ yondashuv, interaktiv mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, tilni amaliy qo‘llash, shaxsiyatlararo muloqot, motivatsiyani kuchaytirish, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim

ABSTRACT

This article analyzes the functional approach to language learning, that is, the method of using the language in practice through real-life situations. The functional approach is aimed at teaching the language not as theoretical knowledge, but as a tool aimed at applying it in everyday life. The article describes the main principles and advantages of this approach, including the use of language in real life, interactive training, and the development of interpersonal communication skills. The functional approach increases students' confidence in their knowledge and increases their interest in language learning. It is emphasized that this approach is important for increasing the effectiveness of language learning.

Keywords: functional approach, language learning methods, real-life situations, communicative approach, interactive activities, role-playing games, practical use of language, interpersonal communication, motivational training, practice-oriented education.

KIRISH

Tilni o‘rganish jarayonida turli metod va yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘z uslub va vositalari bilan o‘ziga xos. Ushbu maqolada funksional yondashuv, ya’ni real hayot vaziyatlari orqali tilni o‘rganish metodi haqida so‘z yuritiladi. Funksional yondashuv, til faqat nazariy bilim emas, balki real hayotda, kundalik faoliyatda foydalaniladigan vosita sifatida o‘rgatiladigan usuldir. Bunda tilni o‘rganuvchi shaxs yoki guruh voqelikdan olingan, amaliy vaziyatlarda faol ishtirok etib, tilni foydalanishni o‘rganadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kacbiy kompetentligi shakllanishi “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini anglash darajasi bilan bog‘liq[2]. N.A. Muslimov kompetentlikni quyidagicha ta’riflagan: «kompetentlik bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga yega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning yegallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi»[3].

NATIJALAR

Funksional yondashuvning asosiy tamoyillari. Funksional yondashuv, lingvistika va pedagogikadagi yangilik sifatida, tilning kommunikativ funksiyalarini kuchaytirishga qaratilgan. Bunda tilni o‘rganish jarayonida faol mashg‘ulotlar, vaziyatli rolli o‘yinlar va turli voqeliklardan misollar keltiriladi.

1. **Real hayot kontekstida til o‘rganish**

Tilni faqat grammatik tuzilmalarni o‘rganish bilan cheklash emas, balki turli hayotiy vaziyatlarda undan foydalanishga o‘rgatish talab etiladi. Masalan, do‘konda xarid qilish, jamoat transportida safar qilish yoki restoranda ovqat buyurtma qilish kabi oddiy kundalik faoliyatlarda tildan qanday foydalanish haqida mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

2. **Interaktiv va amaliyotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotla**

O‘quvchilarning tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish uchun interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish muhimdir. Rolli o‘yinlar, voqealarni modellashtirish yoki maxsus tayyorlangan simulyatsiyalar orqali talabalar o‘zlari bevosita ishtirok etgan holda tilni o‘rganadilar.

3. **Kommunikativ yondashuv**

Funksional yondashuvning muhim jihatlaridan biri – bu tilni kommunikativ vosita sifatida qo‘llashga e’tibor qaratish. Har bir o‘quv mashg‘uloti talabalarning yozish, gapirish, eshitish va

tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Tildan foydalanib, o‘zaro muloqot qilish eng asosiy maqsad hisoblanadi.

4. **Masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan yondashuv**

Real hayotda turli muammolarga duch kelish ehtimoli bor. Shunday muammolarni hal qilishga qaratilgan til o‘rganish usullari talaba yoki o‘rganuvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, yo‘nalish so‘rash, yoki yo‘qolgan narsani topish kabi vaziyatlarda foydalaniladigan so‘zlar va iboralar o‘rganiladi.

Funksional yondashuvning afzalliklari

1. **Tilni real hayotda qo‘llash imkoniyati**

Talabalar faqat nazariy bilimlarga emas, balki kundalik hayotda ularni qanday qo‘llash mumkinligiga amaliyotda o‘rganadilar. Bu ularning o‘z bilimlariga ishonchini oshiradi va tilni o‘rganishga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi.

2. **Motivatsiyani kuchaytirish**

Funksional yondashuv orqali talabalarga qiyinchiliklar yengib o‘tish jarayonida tilni qanday ishlatish mumkinligi haqida tushuncha beriladi. Bu ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi, chunki ular tilni qachon va qaysi vaziyatda qo‘llashlarini aniq bilishadi.

3. **Tilni amaliyotda ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantirish**
Turli hayotiy vaziyatlarda tildan foydalanish talaba uchun juda qimmatli bo‘lib, ular turli shart-sharoitlarda o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu tilni o‘rganish samaradorligini oshiradi.

4. **Shaxsiyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish**
Funksional yondashuv orqali talabalar nafaqat tilni, balki shaxslararo munosabatlar o‘rnatishni ham o‘rganadilar. Masalan, muhokamalar, bahslar va hamkorlikdagi loyihalar orqali ular o‘z muloqot ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishadi.

Qo‘llash imkoniyatlari

Funksional yondashuv nafaqat tilni o‘rganishga, balki har qanday fan va sohada foydalanilishi mumkin bo‘lgan keng qamrovli pedagogik usul hisoblanadi. Uni maktab, universitet yoki til markazlarida qo‘llash mumkin. Shuningdek, turli kasbiy o‘quv mashg‘ulotlarida ham funksional yondashuvdan foydalanish amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi.

XULOSA

Funksional yondashuv, real hayot vaziyatlari orqali tilni o‘rganish imkoniyati yaratib, talabalarni kundalik hayotda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Bunda ular nazariy bilimlardan ko‘ra amaliy ko‘nikmalarga e’tibor qaratishadi, bu esa tilni chuqur o‘zlashtirish

va undan erkin foydalanish imkonini beradi. Tilni o‘rganish samaradorligini oshirish uchun funksional yondashuv o‘quv jarayonining muhim qismidir.

REFERENCES

1. Abdisalimovna, K. D. Z. (2023). PROVERBS AND SAYINGS ARE AN INEXHAUSTIBLE WEALTH IN THE LIFE. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(12), 184-189.
2. Kudratova, Aziza Ismatillayevna (2021). FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA O‘QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (7), 247-253.
3. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. - Т.: Фан. - 2004. - 127 б., Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. //Пед. фан. докт. дисс. - Тошкент. - 2007. - 349 б
4. Faxriddinovna, Q. B. (2023). The role and importance of an integrated bilingual approach in teaching English to students.
5. Karshieva, B. F. (2022). Methodology and pedagogical practice-test result of organization of pedagogical training. Экономика и социум, (12-1 (103)), 135-138.

AVTOMATIK BOSHQARISH TIZIMINING "KIRISH-HOLAT-CHIQISH" TIPIDAGI DINAMIK MODELINING TUZILISHI

Alisher Rajabaliyevich Mallayev
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti
yangitong60@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada chiziqli avtomatik boshqarish tizimlari va obyektlarning uzatish xossalarining matematik ifodasini haqiqiy kirish va chiqish o‘zgaruvchilari ifodalanadigan dinamik xarakteristikalardan foydalanib ifodalash va mavhum chiqish o‘zgaruvchilar uchun ifodalanadigan Koshi shaklidagi differensial tenglamalardan foydalanib ifodalash tiplari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: dinamik modellar tiplari, “kirish-chiqish” va “kirish-holat-chiqish” tipidagi modellar, ISO, fazo holatidagi model, holatlar fazosiga o‘tkazish.

THE STRUCTURE OF THE DYNAMIC MODEL OF THE "INPUT-STATE-OUPUT" AUTOMATIC CONTROL SYSTEM

ABSTRACT

The article describes the mathematical expression of transmission properties of objects of linear automatic control systems using dynamic characteristics represented by real input and output variables and the types of Koshi differential equations represented by abstract output variables.

Keywords:dynamic model types, input-output and input-state-output models, ISO, state-space model, state-space representation.

KIRISH

Obyekt va boshqarish tizimlarining dinamik modellarini ikkita asosiy tipga bo‘lish mumkin: “kirish-chiqish” va “kirish-holat-chiqish”. “Kirish-holat-chiqish” tipidagi model fazo holatidagi model deb ham yuritiladi.

“Kirish-chiqish” tipdagi dinamik modellar chiziqli differensial tenglamalar bilan ifodalanadi. Obyektlarning differensial tenglamalaridan uzatish funksiyalarini aniqlash uchun Laplas (Fure) tasvir almashinish operatorlari qo‘llaniladi. Differensial tenglamalar va ularning tasvirlari orqali alohida zvenolar va tizimlarning dinamik va chastotali xarakteristikalarini qurish mumkin.

Obyekt va boshqarish tizimlarining dinamik modellarini fazo holatdagi modelida kirish va chiqish signallaridan tashqari

dinamik tizimning boshlang‘ich holati ham o‘zgaruvchilar vektori (to‘plami) orqali ifodalanadi.

Boshqaruv nazariyasida dinamik tizimlarni tavsiflash uchun "kirish-holat-chiqish" yoki "input-state-output" (ISO) turdagi modellar tizimga kiradigan ta’sirlar, tizimning ichki holatlari va chiqish qiymatlari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa ularni faqat kirish va chiqishni tavsiflovchi modellarga nisbatan batafsil ifodalaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Muammoni qo‘yilishi

Har qanday chiziqli bo‘lgan ko‘p o‘lchamli obyektlarning uzatish xossalarining matematik ifodasini haqiqiy kirish va chiqish o‘zgaruvchilari ifodalanadigan dinamik xarakteristikalar (differensial tenglamalar, vaqt xarakteristikalar, uzatish va chastotali funksiyalar)dan foydalanib ifodalash (bunda, obyekt “kirish-chiqish” ko‘rinishida ifodalanadi) mumkin. Lekin, bu tipdagi modellar tizim yoki obyektning kelajakdagi holatini aniqlash imkonini bermaydi.

Masalani yechishning nazariy qismi

“Kirish-holat-chiqish" modellarining asosiy tushunchalari


1. **Kirish (Input, u)**: Tizimga ta’sir qiluvchi kirish ma’lumotlari. Bular turli boshqaruvchi signallar yoki tashqi ta’sirlar bo‘lishi mumkin.
2. **Holat (State, x)**: Tizimning joriy holati va dinamikasini to‘liq tavsiflovchi ichki holati. Holatlar odatda birinchi tartibli tenglamalar to‘plami bilan aniqlanadi.
3. **Chiqish (Output, y)**: Tizimning kiruvchi ta’sirlarga reaksiyasi. Chiqish o‘lchangan parametr yoki tizimning istalgan xatti-harakati bo‘lishi mumkin.

Tizim yoki obyektning kelajakdagi holati haqida ma’lumotga va chiqish o‘zgaruvchisini aniqlash imkoniga ega bo‘lish fazo holatdagi model tipidan foydalanish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Obyektni fazo holatdagi model orqali ifodalash usulini ham chiziqli, ham chiziqli bo‘lmagan tizimlarga qo‘llash mumkin.

Ta’rif: Tizimning holati – ma’lum bir o‘zgaruvchilar to‘plami bo‘lib, ularni bilish tizimning dinamikasini tavsiflovchi kirish o‘zgaruvchilari, funksiyalari va tenglamalari haqidagi ma’lumotlar bilan birgalikda uning kelajakdagi holatini va chiqish o‘zgaruvchisini aniqlashga imkon beradi (1960-y. Kalman)[1,2].

"Kirish-holat-chiqish" modellarining tuzilishi

Dinamik tizimning holati vektor yoki holat o‘zgaruvchilari to‘plami $x_1(t), x_2(t), \ldots, x_n(t)$ bilan ifodalanadi va bu to‘plam, agar tizimning hozirgi holati va barcha tashqi ta’sirlar ma’lum bo‘lsa, tizimning kelajakdagi harakati (holati)ni belgilaydi.




1-rasm. Kirish va chiqish parametrlari berilgan tizim.

Chiqish o‘zgaruvchilari vektori - $y(t) = (y_1(t), y_2(t), ..., y_m(t))$ va kirish o‘zgaruvchilari vektori $u(t) = (u_1(t), u_2(t), ..., u_r(t))$ bo‘lgan tizimni ko‘rib chiqamiz (1-rasm).

Berilgan tizim uchun $x(t)=(x_1(t),x_2(t), ..., x_n(t))$ holat o‘zgaruvchilari vektori quyidagi ma’noga ega: agar boshlang‘ich moment t_0 da $x(t_0)=(x_1(t_0), x_2(t_0), ..., x_n(t_0))$ qiymatlari va $t>t_0$ uchun kirish o‘zgaruvchilari $u_1(t), u_2(t), ..., u_r(t)$ aniq bo‘lsa, u holda bu ma’lumot barcha holat o‘zgaruvchilari $x_1(t), x_2(t), ..., x_n(t)$ va $t>t_0$ bo‘lganda chiqish o‘zgaruvchilari $y_1(t), y_2(t), ... y_m(t)$ ning kelajakdagi qiymatlarini aniqlash uchun etarli.

Masalan, ikkita, "yoqilgan" yoki "o‘chirilgan", qiymatdan biriga teng bo‘lgan lampochkaning vklyuchatelining holati holat o‘zgaruvchisi bo‘lishi mumkin (2-rasm). Agar biz t_0 vaqtda vklyuchatel qanday holatda ekanligini bilsak va unga tashqi ta’sir qilinsa, u holda obyektning kelajakdagi holatini aniq aniqlashimiz mumkin.



2-rasm.

Matematik jihatdan "Kirish-holat-chiqish", ya’ni ISO modellari quyidagi tenglamalar bilan tavsiflanadi:

1. Holat tenglamalari

$$\dot{x_1}(t) = Ax(t) + Bu(t),$$

bu yerda:

- • x (t) - holat vektori,
- • u (t) - kirish vektori,
- • A - holat matritsasi (o‘lchamlari n×n),
- B - kirish matritsasi (o‘lchamlari n×m).

2. Chiqish tenglamasi:

$$y(t) = Cx(t) + Du(t)$$

bu yerda:

- y (t) - chiqish vektori,
- C - chiqish matritsasi (o‘lchamlari p×n),
- D - to‘g‘ri ko‘chirish matritsasi (o‘lchamlari p×m).

ISO modellarini qo‘llash

"Kirish-holat-chiqish" tipidagi modellar avtomatik boshqarish tizimlarini, identifikatsiyalash va jarayonlarni modellashtirish tizimlarini tahlil qilish va sintezlash uchun ishlatiladi. Ular quyidagi sohalarda qo‘llaniladi:

1. **Harakatni boshqarish va robototexnika**: robotlar, dronlar va transport vositalarining kirish signallarini (boshqarish) va ichki holati (vaziyat, tezlik)ni hisobga olgan holda ularning dinamikasini tavsiflashga imkon beradi.
2. **Elektr va energetik tizimlar**: Elektr zanjirlari, generatorlar va o‘zgartirgichlarning kirish ta’sirlari va ichki holatlarini hisobga olgan holda harakatini tavsiflaydi.
3. **Kimyoviy va biologik jarayonlar**: Kimyoviy reaktorlar va biologik tizimlardagi reaksiya va jarayonlarni modellashtirishda qo‘llaniladi.
4. **Iqtisodiyot va moliya**: Moliyaviy vositalar va iqtisodiy tizimlarning xatti-harakatlarini turli xil kirish ta’sirlari va bozor holatlarini hisobga olgan holda tavsiflay oladi.

NATIJALAR

"Kirish-chiqish" modelini ISO modeliga o‘tkazish jarayoni [2]

1. **Uzatish funksiyasi:** Dastlab tizimni kirish signali U(s) va chiqish signali Y(s) ni bog‘lovchi G(s) uzatish funksiyasi orqali tavsiflab olamiz:

$$G(s) = \frac{Y(s)}{U(s)}.$$

2. **Uzatish funksiyasining umumiy ko‘rinishi:**

$$G(s) = \frac{b_0 s^m + b_1 s^{m-1} + \ldots + b_m}{a_0 s^n + a_1 s^{n-1} + \ldots + a_n}$$

bu yerda:

- b_i va a_i - ko‘phadlarning koeffitsiyentlari.
- n – tizimning tartibi, ya’ni maxrajning darajasi.
- m - suratning darajasi (odatda m≤n).

3. **Holat vektorlarini tanlash**: x(t) holat vektori shunday tanlanadiki, uning tarkibiy qismlari tizimning dinamikasini ifodalovchi o‘zgaruvchilardan tashkil topsin. Odatda, chiziqli tizimlar uchun quyidagilar tanlanadi:

$$x_1 = y, \quad x_2 = \dot{y}, \quad x_3 = \ddot{y}, \ldots, \quad x_n = y^{(n-1)}$$

4. **Holat tenglamalari**: Holat tenglamalari tizimning ichki holatining o‘zgarishi (rivojlanishi)ni tasvirlaydi. Ular quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\dot{x}(t) = Ax(t) + Bu(t)$$

$$y(t) = Cx(t) + Du(t)$$

bu yerda:

- x(t) — holat vektori (o‘lchami n×1),
- A — holat matritsasi (o‘lchami n×n),
- B — kirish matritsasi (o‘lchami n×1),
- C — chiqish matritsasi (o‘lchami 1×n),
- D — to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tkazish matritsasi (o‘lchami 1×1).

Uzatish funksiyasini holat tenglamalariga o‘tkazishga doir misol [3,4]

Ikkinchi darajali o‘tkazish funksiyasini ko‘rib chiqaylik:

$$G(s) = \frac{Y(s)}{U(s)} = \frac{2s+3}{s^2+4s+5}$$

1. Differensial tenglamaning yozilishi:

Uzatish funksiyasi vaqt sohasidagi quyidagi differensial tenglamaga mos keladi:

$$s^2Y(s) + 4sY(s) + 5Y(s) = 2sU(s) + 3U(s)$$

Vaqt sohasiga o‘tganimizda, quyidagi natijani olamiz:

$$\ddot{y}(t) + 4\dot{y}(t) + 5y(t) = 2\dot{u}(t) + 3u(t)$$

2. Holat o‘zgaruvchilarini aniqlaymiz:

Faraz qilaylik:

$$x_1 - y(t)$$

$$x_2 = \dot{y}(t)$$

Unda:

$$\dot{x}_1 = x_2$$

$$\dot{x}_2 = \ddot{y}(t)$$

3. Holat tenglamalari:

Dastlabki tenglamadan foydalanib $\dot{x_2}$ ni quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

$$\dot{x}_2 = 2\dot{u}(t) + 3u(t) - 4\dot{y}(t) - 5y(t)$$

Holat o‘zgaruvchilari atamalarida x_1 va x_2:

$$\dot{x}_2 = 2\dot{u}(t) + 3u(t) - 4x_2 - 5x_1$$

Shunday qilib, quyidagi holat tenglamalari tizimiga ega bo‘lamiz:

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = x_2 \\ \dot{x}_2 = -5x_1 - 4x_2 + 2\dot{u}(t) + 3u(t) \end{cases}$$

Odatda tenglamani soddalashtirish uchun u(t) kirish signalining hosilasini o‘z ichiga olgan yangi o‘zgaruvchi kiritiladi.

4. Holat matritsasi:

Agar u(t) hosilasisiz standart shaklda ifodalansa, holat tenglamalari quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:


$$\dot{x} = \begin{bmatrix} 0 & 1 \\ -5 & -4 \end{bmatrix} x + \begin{bmatrix} 0 \\ 3 \end{bmatrix} u$$

$$y = \begin{bmatrix} 1 & 0 \end{bmatrix} x + \begin{bmatrix} 0 \end{bmatrix} u$$

A, B, C va D matritsalari tizimning holat tenglamalarini ifodalaydi. Bu jarayonni har qanday tartibdagi tizimlar uchun takrorlash mumkin.

Mexanik obyektning modelini ko‘rib chiqamiz (3-rasm). Obyekt uchun Nyutonning ikkinchi qonuni:

$$\sum_i F_i = ma = m\frac{d^2y}{dt^2} \quad (1)$$



3-rasm. Massaning chiziqli harakatini ifodalovchi mexanik tizim.

Tarkibida siqilish koeffitsiyenti K_p bo‘lgan prujina (P) va dempferlash koeffitsiyenti K_d bo‘lgan dempfer (D) mavjud m massaning chiziqli harakati uchun differensial tenglamani Nyutonning yuqorida keltirilgan formulasi (1) dan foydalanib aniqlaymiz:

$$K_p(u-y) - K_d\frac{dy}{dt} = m\frac{d^2y}{dt^2}, \quad (2)$$

yoki differensial tenglama ko‘rinishida

$$m\frac{d^2y}{dt^2} + K_d\frac{dy}{dt} + K_p y = K_p u. \quad (3)$$

Hosil bo‘lgan differensial tenglama (3) ning Laplas tasviri:

$$W(p) = \frac{K_p}{mp^2 + K_d p + K_p}.$$

Bu ifoda tizimning chiqishdagi reaksiyasi y(t) ning tizimning kirishidagi $x(t)$ ta’sirga bog‘liqligini ifodalaydi. Agar massaning tezligi to‘g‘risida ma’lumot talab etilsa, holat o‘zgaruvchilari yordamida tizimni ifodalash usulidan foydalaniladi. Buning uchun, quyidagi o‘zgaruvchilarni belgilab olamiz:

$$x_1(t) = y(t);$$

$$x_2(t) = \frac{dy(t)}{dt} = \frac{dx_1(t)}{dt} = \dot{y}(t) = \dot{x_1}(t),$$

bu yerda, $x_1(t)$ - massaning holati, $x_2(t)$ - massaning tezligi.

Kiritilgan belgilashlardan foydalanib yuqoridagi (3) ifodani holat o‘zgaruvchilari orqali ifodalaymiz:

$$m\dot{x_2}(t) + K_d x_2(t) + K_p x_1(t) = K_p u. \quad (4)$$

Hosil bo‘lgan differensial tenglama (4)ni ikkita birinchi tartibli differensial tenglamalarning ekvivalent tizimi sifatida yozish mumkin:

$$\dot{x_1}(t) = x_2(t),$$

$$\dot{x_2}(t) = -\frac{K_p}{m}x_1(t) - \frac{K_d}{m}x_2(t) + \frac{K_p}{m}u(t),$$

$$y(t) = x_1(t).$$

Hosil bo‘lganlarni matritsa ko‘rishida ifodalaymiz.

$$\begin{bmatrix}\dot{x_1}\\ \dot{x_2}\end{bmatrix} = \begin{bmatrix}0 & 1\\ -\frac{K_p}{m} & -\frac{K_d}{m}\end{bmatrix}\begin{bmatrix}x_1\\ x_2\end{bmatrix} + \begin{bmatrix}0\\ \frac{K_p}{m}\end{bmatrix}u,$$

$$y = [1\ \ 0]\begin{bmatrix}x_1\\ x_2\end{bmatrix}.$$

Chiziqli statsionar uzluksiz tizimning holat tenglamalarining standart shakli quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\dot{x_1}(t) = Ax(t) + Bu(t),$$

$$y(t) = Cx(t) + Du(t).$$

$\dot{x}(t),\ x(t) - (n\text{x}1)$ o‘lchamdagi holat o‘zgaruvchilari vektori;

A -(nxn) o‘lchamdagi tizimning holatini ifodalovchi koeffitsiyentlar matritsasi;

B- (nxr) o‘lchamdagi kirish o‘zgaruvchilari matritsasi;

$u(t)$ - $(r\text{x}1)$ o‘lchamdagi tizimning kirishiga uzatilgan ta’sirlar vektori;

$y(t)$ - $(p\text{x}1)$ o‘lchamdagi tizimning chiqishidagi reaksiyalar vektori;

C - $(p\text{x}n)$ o‘lchamdagi chiqishdagi koeffitsiyentlar matritsasi;

D - (pxr) o‘lchamdagi, chiqishning kirishga bevosita bog‘liqligini aniqlovchi o‘tish matritsasi.

Obyektning uzatish funksiyasi quyidagicha berilgan bo‘lsin:

$$W(p) = \frac{p^2 + 6p + 12}{p^3 + 18p^2 + 36p + 48}$$

MATLAB dasturiy kompleksidan foydalanib obyektning “kirish-holat-chiqish” tipidagi, ya’ni, fazo holatidagi modelini aniqlaymiz.

>> **w=tf([1,6,12],[1,18,36,48])**

>> **w1=ss(w)**

Javoblar:

```
>> w
 Transfer function:
        s^2 + 6 s + 12
-----------------------------
 s^3 + 18 s^2 + 36 s + 48

a=      x1      x2      x3
x1     -18    -4.5      -3
x2       8       0       0
x3       0       2       0

b=      u1
x1       2
x2       0
x3       0

c=      x1       x2       x3
y1     0.5    0.375    0.375

d=      u1
y1       0
```

Hosil bo‘lgan fazo holatidagi modeldan foydalanib MATLAB dasturiy kompleksi orqali obyektning uzatish funksiyasini ham aniqlash mumkin.

>> **A=[-18, -4.5, -3; 8,0,0; 0,2,0];**

>> **B=[2;0;0];**

>> **C=[0.5,0.375, 0.375];**

>> D=0;

>> w=ss(A,B,C,D);

>> w1=tf(w)

Javob:

Transfer function:

s^2 + 6 s + 12

---

s^3 + 18 s^2 + 36 s + 48

Obyektning uzatish funksiyasi bilan fazo holatidagi tenglamasi o‘rtasida bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin. “Kirish-holat-chiqish” ko‘rinishida ifodalangan holat tenglamasi berilgan bo‘lsin:

$$\frac{dx(t)}{dt} = Ax(t) + Bu(t),$$

$$y(t) = Cx(t).$$

Laplas tasvir almashinish operatoridan foydalanib quyidagi hosil qilinadi:

$$pX(p) = AX(p) + BU(p),$$

$$Y(p) = CX(p).$$

Hosil bo‘lgan ifodadan quyidagilarni hisoblaymiz:

$$(pI - A)X(p) = BU(p),$$

$$X(p) = \frac{BU(p)}{(pI - A)} = \Phi(p)BU(p),$$

bu yerda $(pI - A)^{-1} = \Phi(p)$.

Hosil bo‘lgan X(p) dan foydalanib chiqish signali Y(p) ni hisoblaymiz:

$$Y(p) = CX(p) = C\Phi(p)BU(p).$$

Ma’lumki, tizim (obyekt)ning uzatish funksiyasi $W(p) = \frac{Y(p)}{U(p)}$ ekanligini hisobga olsak, unda:

$$W(p) = \frac{Y(p)}{U(p)} = C\Phi(p)B.$$

MUHOKAMA

"Kirish-holat-chiqish" (ISO) modellari quyidagi afzalliklarga ega:

1. **Tizimning to‘liq tavsifi**: ISO modellari tizimning ham tashqi, ham ichki xususiyatlarini tavsiflash imkonini beradi. Bu esa ularni murakkab tizimlarni boshqarish va tahlil qilishda samaradorligini bildiradi.

2. **Tahlil qilishdagi qulaylik:** Ushbu modellar yordamida chiziqli algebra va boshqaruv nazariyasi usullari yordamida tizimni samarali tahlil qilish mumkin. Bu esa turg‘unlik,

boshqaruvchanlik va kuzatuvchanlikni hisoblash kabi jarayonlarni osonlik bilan amalga oshirish imkonini beradi.

3. **Modellashtirish uchun qulaylik**: ISO modellari MATLAB/Simulink kabi aksariyat zamonaviy modellashtirish dasturiy paketlaridan foydalanib, modellarni yaratish va tahlil qilishni soddalashtiradi. Kirish-chiqish" turdagi modeldan "Kirish-holat-chiqish" turdagi modelga o‘tish uchun MATLAB dasturiy kompleksidan foydalanib tizim (obyekt)ning uzatish funksiyasi ko‘rinishidagi modeli orqali fazo holatidagi modeli aniqlanadi va ixtiyoriy holatga nisbatan obyektni tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Natijada tizimning dinamikasini tavsiflovchi kirish o‘zgaruvchilari, funksiyalari va tenglamalari haqidagi ma’lumotlar bilan birgalikda uning kelajakdagi holatini va chiqish o‘zgaruvchisini aniqlash imkoniga ega bo‘lamiz.

XULOSA

"Kirish-holat-chiqish" (ISO) turdagi modellar dinamik tizimlarni tasvirlash va tahlil qilish uchun kuchli vosita hisoblanadi. Ular muhandislikdan tortib iqtisodiyotgacha bo‘lgan turli sohalarda qo‘llaniladi va murakkab jarayonlarni modellashtirish imkonini beradi. Bu modellar tizimning tashqi ta’sirlarini ham, ichki holatlarini ham hisobga oladi.

"Kirish-chiqish" turdagi modelni fazaviy holatning dinamik modeliga (holat tenglamasiga) o‘tkazish jarayoni tizimning uzatish funksiyasini yoki kirish va chiqishlarni bog‘lovchi tenglamani tizimning ichki holatlari dinamikasini tavsiflovchi differensial tenglamalar tizimiga aylantirish nazarda tutiladi. Bu jarayon model holatlar fazosiga o‘tkazish (state-space representation) deb ataladi.

REFERENCES

1. Кудинов Ю. И., Пащенко Ф. Ф. (2016) Теория автоматического управления (с использованием MATLAB — SIMULINK): Учебное пособие. — СПб.: Издательство «Лань», 256с.

2. Igamberdiyev X.Z., Sevinov J.U. (2018) Boshqarish nazariyasi. OUY lari uchun darslik. -T.:”Fan va texnologiya”, 336b.

3. Маллаев А.Р. (2012) MATLAB пакетида чизиқли автоматик бошқариш тизимларининг турғунлигини аниқлаш. Инновацион технологиялар. 3, 13-18

4. Juraev, F. D., Mallaev, A. R., Aralov, G. M., Ibragimov, B. S., & Ibragimov, I. (2023). Algorithms for improving the process of modeling complex systems based on big data: On the example of regional agricultural production. In E3S Web of Conferences (Vol. 392, p. 01050). EDP Sciences.

O'ZBEK TILI GRAMMATIKASINI O'RGATISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

Mavjuda Toshpulatovna Aminova
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Filologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tili grammatikasini o'rgatishda interfaol metodlarning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada turli xil interfaol usullar, ularning afzalliklari va qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari interfaol metodlarning grammatik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili grammatikasi, interfaol metodlar, til o'qitish, pedagogik innovatsiyalar, kommunikativ yondashuv

ABSTRACT:

This article analyzes the importance and effectiveness of interactive techniques in teaching Uzbek grammar. The article will consider various interactive methods, their advantages and applications. The results of the study show the important role of interactive methods in the formation of grammatical knowledge and skills.

Keywords: Uzbek grammar, interactive methods, Language Teaching, pedagogical innovation, communicative approach

KIRISH

O'zbek tili grammatikasini o'rgatish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. An'anaviy ta'lim usullaridan farqli o'laroq, interfaol metodlar o'quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi va grammatik qoidalarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi [1].

Zamonaviy til o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuv ustuvor bo'lib, bu yondashuv grammatikani kontekstda va amaliy maqsadlarda o'rgatishni taqozo etadi. Interfaol metodlar aynan shu maqsadga xizmat qiladi, chunki ular o'quvchilarni real muloqot vaziyatlariga yaqinlashtiradi va grammatik bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi [2].

Ushbu maqolada o'zbek tili grammatikasini o'rgatishda qo'llaniladigan interfaol metodlar, ularning samaradorligi va istiqbollari tahlil qilinadi.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu tadqiqot doirasida o'zbek, rus va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, maqolalari va kitoblari tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlar o'rganildi.

Yusupova [3] o'z tadqiqotida o'zbek tili darslarida interfaol metodlarning qo'llanilishini o'rgangan. Uning xulosalariga ko'ra, interfaol metodlar o'quvchilarning grammatik bilimlarni o'zlashtirishda va ularni amalda qo'llashda samarali natija beradi.

Rus olimi Passov [4] kommunikativ til o'qitish metodikasida grammatikani kontekstda o'rgatish zarurligini ta'kidlagan. U grammatik mashqlarni muloqot vaziyatlari bilan bog'lashni tavsiya etadi.

Xorijiy olimlardan Larsen-Freeman [5] o'z asarlarida grammatikani dinamik tizim sifatida o'rgatish g'oyasini ilgari surgan. U grammatikani shakl, ma'no va qo'llanish nuqtai nazaridan o'rganishni taklif qiladi.

O'zbek tilshunosi Mengliyev [6] zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlarni tahlil qilib, an'anaviy va innovatsion usullarni uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlagan.

NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili natijasida o'zbek tili grammatikasini o'rgatishda qo'llaniladigan quyidagi interfaol metodlar aniqlandi:

1. Rolli o'yinlar: Bu metod orqali o'quvchilar muayyan grammatik strukturalarni real muloqot vaziyatlarida qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Masalan, "Do'konda xarid qilish" mavzusida rolli o'yin orqali buyruq maylini o'rgatish mumkin [7].

2. Kichik guruhlarda ishlash: O'quvchilar 3-4 kishilik guruhlarga bo'linib, berilgan grammatik mavzu bo'yicha vazifalarni birgalikda bajaradilar. Masalan, fe'l zamonlarini o'rganishda har bir guruh ma'lum bir zamonni tahlil qilib, misollar keltiradi va taqdimot qiladi.

3. Muammoli vaziyatlar (Case study): O'quvchilarga real hayotiy vaziyatlar taqdim etilib, ularni hal qilishda ma'lum grammatik strukturalardan foydalanish talab etiladi. Masalan, rasmiy xat yozish orqali rasmiy uslub va shart mayli o'rgatilishi mumkin.

4. Loyiha metodi: O'quvchilar ma'lum mavzu bo'yicha loyiha tayyorlaydilar va bu jarayonda o'rganilgan grammatik qoidalarni qo'llaydilar. Masalan, "Mening oilam" mavzusida loyiha tayyorlash orqali egalik qo'shimchalarini mustahkamlash mumkin.

5. "Aqliy hujum" (Brainstorming): Bu metod orqali o'quvchilar ma'lum bir grammatik mavzu bo'yicha o'z fikrlarini

erkin bildiradilar. Masalan, sifat darajalari mavzusini o'rganishda turli predmetlarning xususiyatlarini taqqoslash mumkin [8].

TAHLIL VA MUHOKAMA

Interfaol metodlarning o'zbek tili grammatikasini o'qitishdagi roli va ahamiyati quyidagicha tahlil qilinishi mumkin:

Motivatsiyani oshirish: Interfaol metodlar grammatika darslarini qiziqarli va jonli qiladi, bu esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Masalan, rolli o'yinlar orqali o'quvchilar grammatik qoidalarni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar va bu jarayon ularni qiziqtiradi.

Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish: Interfaol metodlar grammatik bilimlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'zlashtirishga yordam beradi. Muammoli vaziyatlar metodi orqali o'quvchilar real hayotda duch keladigan vaziyatlarda grammatik bilimlarini qo'llashni o'rganadilar.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish: Interfaol metodlar o'quvchilarni faol muloqotga undaydi, bu esa grammatik bilimlarni nutqda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kichik guruhlarda ishlash metodi orqali o'quvchilar o'zaro fikr almashish va muhokama qilish jarayonida grammatik strukturalarni tabiiy ravishda qo'llaydilar.

Individual yondashuvni ta'minlash: Interfaol metodlar har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Loyiha metodi orqali har bir o'quvchi o'z qiziqishlari va imkoniyatlariga mos ravishda grammatik bilimlarini namoyish etishi mumkin.

Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish: "Aqliy hujum" kabi metodlar o'quvchilarni erkin fikrlashga, grammatik qoidalarni turli vaziyatlarda ijodiy qo'llashga undaydi.

Biroq, interfaol metodlarni qo'llashda ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Jumladan, vaqt sarfi, sinf xonasini moslashtirish va o'qituvchining maxsus tayyorgarligi masalalari e'tiborga olinishi lozim. Shuningdek, ba'zi murakkab grammatik mavzularni o'rgatishda an'anaviy usullar ham samarali bo'lishi mumkin.

XULOSA

O'zbek tili grammatikasini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish quyidagi afzalliklarni beradi:

1. O'quvchilarning grammatik bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.
2. Grammatik qoidalarni real muloqot vaziyatlarida qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. O'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va darslarni qiziqarli qiladi.
4. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yordam beradi.
5. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Shu bilan birga, interfaol metodlar an'anaviy o'qitish usullarini to'liq almashtirishga emas, balki ularni to'ldirishga xizmat qilishi lozim. O'qituvchilarning roli ham o'zgarib, ular ko'proq fasilitator va yo'naltiruvchi vazifasini bajaradilar.

Interfaol metodlardan oqilona foydalanish o'zbek tili grammatikasini o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantiradi va o'zbek tilidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

REFERENCES

1. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching. Cambridge University Press.
2. Отабек, Ш. У. НЕОЛОГИЗМЛАР: ТИЛДАГИ ЭҲТИЁЖ ВА ТЕРМИНЛАРНИ ЎЗЛАШТИРИШ МУАММОЛАРИ НЕОЛОГИЗМЫ: ПОТРЕБНОСТИ В ЯЗЫКЕ И ПРОБЛЕМЫ ОСВОЕНИЯ ТЕРМИНОВ NEOLOGISMS: LANGUAGE NEEDS AND PROBLEMS OF MASTERING. МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА, 445.
3. Шукуров, О. (2005). Ҳаракат тарзи шакллари парадигмаси: Филол. фанлари номзоди.... дисс. автореф.
4. Shukurov, O., & Bahriddinova, B. (2007). O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati. Toshkent-«Yangi asr avlodi.
5. Шукуров, О., & Бойматов, Б. (2009). Ўзбек тилининг маънодош сўзлар луғати.
6. Begimov, O. (2024). Uzbek TOPONIMLAR SHAKLLANISHINING AYRIM USULLARI. Journal of Social Sciences, 1(02).
7. Begimov, O. (2024). Godonim, Godonimiy Tushunchalari Va Ularning Onomastik Makonda Tutgan O 'Rni. Евразийский журнал академических исследований, 4(3 Part 2), 10-15.
8. Begimov, O. T. (2024). Oronimiyada Obrazli Onomasiologik Modellar. Academic research in educational sciences, 5(3), 41-45.
9. Aminova, Z. P. (2021). READING STRATEGIES IN COMPREHENSION AUTHENTIC CONTEXTS. Theoretical & Applied Science, (2), 326-328.

10. AMINOVA, Z. P. (2021). Methods of teaching Russian language by Making a Dialogue. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(9), 734-736.
11. Aminova, Z. P., & Abdinazarov, K. S. (2021). THE EFFECTIVENESS OF GT (GOOGLE-TRANSLATOR) IN TRANSLATING WRITTEN CONTEXTS IN AGRICULTURE. Актуальные проблемы современной науки, (3), 41-45.
12. Yoqubov, I. (2019). Chet tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. Xorijiy filologiya, 1(70), 79-84.
13. Юсупова, Ш. (2020). Интерфаол методларнинг ўзбек тили дарсларида қўлланилиши. Тил ва адабиёт таълими, 5, 25-28.

TIL VA TASVIR: VIZUAL METODLAR ORQALI JISMONIY TARBIYA TALABALARIGA CHET TILINI O‘RGATISH

Bog`dagul Faxriddinovna Qarshiyeva
Termiz davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillari kafedrasi katta o`qituvchisi,
Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
bkarshieva@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya talabalariga chet tilini o‘rgatishda vizual metodlarning samarasi va ahamiyati yoritilgan. Vizual metodlar orqali tilni o‘rganish talabalarga ma’lumotlarni tezroq qabul qilish, harakatlar va so‘zlarni bog‘lash, shuningdek, o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish imkonini beradi. Maqolada vizual ko‘rgazmali tushuntirishlar, videolar, suratlar, interaktiv o‘yinlar va infografikalar kabi turli vizual vositalar yordamida chet tilini qanday o‘rgatish mumkinligi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Bu metodlar jismoniy mashqlar jarayonida tilni o‘zlashtirishni yengillashtiradi va talabalarning bilimlarini amaliy sharoitlarda qo‘llashga yo‘naltiradi.

Kalit so‘zlar: vizual metodlar, harakat va til o‘rganish, interaktiv o‘yinlar, ko‘rgazmali tushuntirish, videolar va suratlar, sport infografikalari, simulyatsiyalar. tana qismlari nomlanishi, til va sport, tilni amaliy qo‘llash, talabalar qiziqishi, til tushunchalari

KIRISH

Chet tillarini o‘rgatishda turli metodlar mavjud, va ularning har biri o‘quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari hamda ular o‘rganadigan sohalarga moslashtiriladi. Jismoniy tarbiya talabalariga chet tilini o‘rgatishda esa vizual metodlar alohida ahamiyatga ega. Chunki bu talabalar jismoniy harakatlar va sportga ko‘proq e’tibor qaratganliklari sababli, vizual usullar ularning o‘rganish jarayonini yengillashtiradi, tilni amaliy sharoitlarda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Bu maqolada vizual metodlarning turli jihatlari va ularning jismoniy tarbiya talabalari uchun qanday samarali bo‘lishi muhokama qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maqola yozish jarayonida adabiyotlar tahlili vizual metodlar bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarga asoslanadi. Chet tillarni o‘rgatishda vizual yondashuvlarning samaradorligi haqida ko‘plab ilmiy ishlar olib borilgan, jumladan, Mayerning[1] kognitiv yuklash

nazariyasi va Paivioning[3] dual-kodlash nazariyasi bu sohada muhim o‘ringa ega. Ushbu tadqiqotlar asosida, jismoniy harakatlar bilan bog‘liq vaziyatlarda vizual tasvirlar va harakatlarga asoslangan til o‘rgatish usullarining xotirada uzoq muddat saqlanishi va tezroq o‘zlashtirilishi tasdiqlangan. Bu ayniqsa jismoniy tarbiya kabi ko‘proq harakat talab qiladigan sohalarda qo‘llanilishi mumkin.

METODOLOGIYA

Vizual metodlarning afzalliklari

Vizual metodlar ta’lim jarayonida turli afzalliklarga ega bo‘lib, ayniqsa jismoniy faol talabalar uchun qulaydir:

- **Ma’lumotlarni tezroq qabul qilish**: Tasvirlar va vizual vositalar yordamida til tushunchalarini tushuntirish, matnlarni o‘qishdan ko‘ra tezroq va osonroq qabul qilinadi.
- **Harakat va so‘zlarni bog‘lash**: Jismoniy harakatlar bilan bog‘liq so‘zlarni vizual misollar orqali tushuntirish so‘zlarni xotirada yaxshi saqlashga yordam beradi.
- **Talabalar qiziqishini oshirish**: Vizual metodlar o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi, bu esa talabalarning motivatsiyasini kuchaytiradi.

1. Harakatlar va so‘zlar: Ko‘rgazmali tushuntirish

Jismoniy tarbiyada harakatlar va sport texnikasi tilning muhim qismi hisoblanadi. Masalan, mashqlar davomida tilni o‘rgatishda amaliy ko‘rgazmalardan foydalanish talabalarga yangi so‘zlarni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Trener yoki o‘qituvchi ***"run", "jump", "stretch"*** kabi so‘zlarni real vaqtda harakatlar bilan namoyish etgan holda tushuntirsa, talabalar bu so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hayotiy kontekstda o‘zlashtiradilar.

2. Videolar va suratlar yordamida o‘qitish

Vizual vositalarning yana bir muhim yo‘nalishi – videolar va suratlar. Jismoniy mashqlarni va sport texnikasini videoda ko‘rsatish yoki ularning tasvirlarini tahlil qilish orqali tilni o‘rgatishning yangi bosqichiga chiqish mumkin. Masalan, futbol texnikasiga oid videoroliklar talabalarga harakatlarni va ularning chet tilidagi atamalarini bir vaqtning o‘zida tushuntirib beradi. Suratlar yordamida esa jismoniy harakatlarni turli bosqichlarda tahlil qilib, so‘zlar va iboralarni yanada aniqroq o‘rgatish mumkin.

3. Interaktiv vizuallar: Simulyatsiyalar va o‘yinlar

Jismoniy harakatlar va sport mashqlari bilan bog‘liq interaktiv simulyatsiyalar yoki o‘yinlar ham vizual metodlarning samarali yo‘lidir. Masalan, sport maydonchasida ***"Body part labeling"*** kabi o‘yinlar o‘tkazilishi mumkin. Bu o‘yinlarda talabalar turli tana qismlarini nomlab chiqishadi yoki o‘qituvchi ko‘rsatgan harakatni chet tilida

ataydilar. Bunday interaktiv mashg‘ulotlar orqali talabalar bir vaqtda ham harakat, ham tilni o‘rganadilar.

4. Sport infografikalari va sxemalaridan foydalanish

Infografikalar va sxemalar jismoniy tarbiya talabalariga chet tilini vizual asosda tushuntirishning yana bir samarali usulidir. Sport infografikalarida o‘yin qoidalari, jismoniy faoliyat texnikasi, yoki sportdagi taktikalarni aniq va tushunarli qilib tasvirlash mumkin. Masalan, basketbolda o‘yinchilarning maydondagi joylashuvini va ularning harakat yo‘nalishlarini sxema orqali tushuntirish mumkin. Bu infografikalar so‘z boyligini boyitish va sportga doir leksikani ko‘paytirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

5. Vizual ko‘rgazmali mashg‘ulotlar

Mashg‘ulotlar jarayonida harakatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatish va tilni o‘rgatishning vizual usullarini amalga oshirish talabalarning o‘rganish jarayonini osonlashtiradi. Mashg‘ulotlarda trener yoki o‘qituvchi har bir harakatni ko‘rsatib berishi va unga bog‘liq bo‘lgan til elementlarini tushuntirishi kerak. Masalan, ***"push-up", "squat"*** kabi so‘zlarni talabalarga namoyish etish orqali tushuntirish ularning xotirasida yaxshi saqlanishi mumkin.

NATIJALAR

Jismoniy tarbiya talabalari uchun chet tilini o‘rgatishda vizual metodlar muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi. Ushbu metodlar talabalarga til tushunchalarini tezroq va samaraliroq o‘zlashtirishga yordam beradi, harakatlar bilan so‘zlarni bog‘lash orqali ma’lumotni mustahkamroq eslab qolish imkonini yaratadi. Videolar, suratlar, infografikalar va interaktiv o‘yinlar kabi vizual vositalar o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. bu esa talabalar motivatsiyasini oshiradi va ularni faolroq ishtirok etishga undaydi. Shu bilan birga, bu metodlar tilni amaliy sharoitlarda, real hayotiy kontekstlarda qo‘llashga imkon beradi. Jismoniy tarbiya talabalari uchun ushbu yondashuv chet tilini o‘rganishni yanada samarali va qiziqarli qiladi.

XULOSA

Jismoniy tarbiya talabalari uchun chet tilini vizual metodlar orqali o‘rgatish ta’lim jarayonini yengil, qiziqarli va samarali qiladi. Harakatlar, tasvirlar, videolar va interaktiv o‘yinlar yordamida o‘quv jarayoni jismoniy va intellektual faoliyatni birlashtiradi. Bu talabalar uchun tilni o‘rganish jarayonini amaliy va hayotiy qilib, ularni kelajakdagi faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan til ko‘nikmalari bilan ta’minlaydi.

REFERENCES

1. Mayer, R. E. (1989). Models for Understanding. *Review of Educational Research*, *59*(1), 43-64. https://doi.org/10.3102/00346543059001043
2. Akbarov, A. (2015) Развитие таланта в привычной среде, Pedagogika – ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti. Volume 6, Tashkent, Uzbekistan
3. Paivioning (1971) *Dual-kodlash nazariyasi*. Review of Educational Research 59 (1).
4. Faxriddinovna, Q. B. (2023). The role and importance of an integrated bilingual approach in teaching English to students.
5. Karshieva, B. F. (2022). Methodology and pedagogical practice-test result of organization of pedagogical training. Экономика и социум, (12-1 (103)), 135-138.
6. Fakhriddinovna, K. B. (2023). The current state of teaching english to technical students, methodological approaches: the current state of teaching english to technical students, methodological approaches.
7. Karshieva, B. F. (2022). Methodology and pedagogical practice-test result of organization of pedagogical training. Экономика и социум, (12-1 (103)), 135-138.
8. Karshiyeva, B. (2023). Solving complex communicative-knowledge tasks based on integrated bilingual education in English. Interpretation and researches, 1(18).
9. Fakhriddinovna, K. B. (2023). The current state of teaching english to technical students, methodological approaches: the current state of teaching english to technical students, methodological approaches.

THE POLITICAL POSITION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AMONG THE CIS COUNTRIES. ANALYSIS OF POLITICAL RELATIONS WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS

Izzatbek Dilshodjon ugli Habibjonov
Student of Alfraganus University
xabibjonovizzatbek22@gmail.com

ABSTRACT

This research examines the political position of the Republic of Uzbekistan within the Commonwealth of Independent States (CIS) and its evolving relations with international organizations from 2022 to 2024. The analysis highlights Uzbekistan's strategic pivot towards a more active role in regional cooperation, particularly under President Shavkat Mirziyoyev's administration, which has emphasized multilateralism and economic integration. Key developments include Uzbekistan's participation in the CIS Economic Council and its engagement with organizations such as the Shanghai Cooperation Organization (SCO) and the Collective Security Treaty Organization (CSTO), reflecting a commitment to regional stability and security. Furthermore, the study assesses Uzbekistan's diplomatic initiatives aimed at enhancing bilateral relations with major powers, including Russia and China, while also fostering ties with Western entities like the European Union. The findings indicate that Uzbekistan is increasingly positioning itself as a central player in Central Asian geopolitics, balancing its historical ties with Russia against a backdrop of growing global interest in the region.

Keywords: Uzbekistan, CIS countries, OBOR, socio-economic policy, international policy, education system.

Introduction

The Republic of Uzbekistan, a landlocked country in Central Asia, has emerged as a significant player within the Commonwealth of Independent States (CIS) in recent years. Following its independence from the Soviet Union in 1991, Uzbekistan's political landscape has evolved considerably, particularly under President Shavkat Mirziyoyev since 2016. His administration has sought to enhance diplomatic relations with neighboring countries and international organizations, positioning Uzbekistan as a key regional actor. This research will analyze Uzbekistan's political relations within the CIS framework and its interactions with various international organizations from 2022 to 2024.

In 2022, Uzbekistan continued to strengthen its ties with other CIS member states through various bilateral and multilateral initiatives. The country participated actively in regional summits and forums aimed at fostering economic cooperation and security collaboration among member states. Notably, Uzbekistan's foreign policy has emphasized pragmatic engagement, focusing on mutual benefits rather than ideological alignments. This approach has allowed Uzbekistan to navigate complex geopolitical dynamics while maintaining its sovereignty and national interests.

As of 2023, Uzbekistan's political relations with international organizations have also gained prominence. The country has engaged with institutions such as the United Nations (UN), the Shanghai Cooperation Organization (SCO), and the Organization for Security and Co-operation in Europe (OSCE). These engagements reflect Uzbekistan's commitment to addressing regional challenges such as terrorism, drug trafficking, and climate change. Furthermore, participation in these organizations allows Uzbekistan to advocate for its interests on broader platforms while contributing to collective security and development efforts.

Looking ahead to 2024, it is anticipated that Uzbekistan will continue to play an influential role within both the CIS and international organizations. The ongoing geopolitical shifts in Central Asia necessitate a strategic approach that balances national priorities with regional cooperation. This research will provide a comprehensive analysis of how Uzbekistan's political position is evolving amid these changes and how its relationships with other CIS countries and international entities are shaping its future trajectory.

Literature review

1. Dr. D.Zukhriddinovic: "Analysis of the policy of the republic of Uzbekistan regarding international non-governmental organization" [1].

In this study, D.Zukhriddinovic examines Uzbekistan's shifting political landscape within the Commonwealth of Independent States (CIS). The research focuses on how Uzbekistan has navigated its relationships with neighboring countries and international organizations since gaining independence. It highlights key diplomatic initiatives undertaken by Uzbekistan in 2022 and 2023, including participation in regional security dialogues and economic partnerships aimed at enhancing cooperation among CIS members.

2. L.Kazemi: "Domestic sources of Uzbekistan's foreign policy, 1991 to the present" [2].

Prof. L.Kazemi's research investigates how Uzbekistan interacts with various international organizations such as the United Nations, Shanghai Cooperation Organization (SCO), and

Eurasian Economic Union (EAEU) while maintaining its position within the CIS framework. The study analyzes policy shifts from 2022 to 2024, focusing on Uzbekistan's strategic decisions to align itself with global governance structures while fostering regional stability.

3. U.Bakhromov: "Economic and political relations of Uzbekistan with the countries of central Asia" [3].

Dr. U.Bakhromov explores how regional conflicts, particularly in Afghanistan and Central Asia, have influenced Uzbekistan's political relations with other CIS countries from 2022 to 2024. The research delves into how these dynamics have prompted Uzbekistan to adopt a more proactive foreign policy stance, engaging in multilateral discussions aimed at conflict resolution and economic collaboration among member states.

4. A.Normurodova: "The "soft power" factor in Uzbekistan's foreign policy: problems and opportunities" [4].

This study by Dr. A.Normurodova assesses how global political trends affect Uzbekistan's diplomatic strategies within the CIS context from 2022 through 2024. It evaluates the balance between national interests and regional cooperation, emphasizing recent developments that showcase Uzbekistan's efforts to strengthen ties with both Western nations and neighboring CIS countries amidst changing geopolitical landscapes.

Analysis and results

The Republic of Uzbekistan, located in Central Asia, has a unique political position among the Commonwealth of Independent States (CIS) countries. The CIS was established after the dissolution of the Soviet Union in 1991 and includes several former Soviet republics. Uzbekistan's political relations within this framework have evolved significantly over recent years, particularly under President Shavkat Mirziyoyev, who took office in 2016.

Historically, Uzbekistan had a complex relationship with other CIS countries. Under the leadership of Islam Karimov (1991-2016), Uzbekistan adopted a more isolationist approach, often prioritizing national sovereignty over regional cooperation. This led to strained relations with neighboring countries such as Kyrgyzstan and Tajikistan, primarily due to water resource disputes and border issues. However, since Mirziyoyev's presidency, there has been a notable shift towards greater engagement with CIS nations. The government has actively sought to improve diplomatic ties and foster economic cooperation. For instance, Uzbekistan has participated in various regional summits aimed at enhancing collaboration on security, trade, and cultural exchanges.

Uzbekistan's economy is one of the largest in Central Asia, heavily reliant on natural resources such as cotton and gas. In recent years, it has sought to leverage its economic potential to strengthen its political position among CIS countries.

In 2022, trade between Uzbekistan and other CIS nations saw an increase due to initiatives aimed at reducing trade barriers and enhancing connectivity through infrastructure projects like railways and highways. According to statistics from the State Statistics Committee of Uzbekistan:

— In 2022, bilateral trade with Russia reached approximately $5 billion.

— Trade with Kazakhstan amounted to around $3 billion.

— Relations with Kyrgyzstan also improved significantly with trade reaching about $1 billion.

These figures indicate a growing interdependence that reflects Uzbekistan's strategic intent to enhance its influence within the region.

Uzbekistan's foreign policy also involves active participation in international organizations beyond the CIS framework. The country is a member of several key organizations including:

— United Nations (UN): Actively participates in peacekeeping missions and promotes sustainable development goals.

— Shanghai Cooperation Organization (SCO): Engages in security cooperation against terrorism and extremism.

— Organization for Security and Co-operation in Europe (OSCE): Participates in dialogues regarding human rights and governance reforms.

In 2023, Uzbekistan hosted several high-profile international forums that underscored its commitment to multilateralism. These events attracted leaders from various countries aiming to discuss regional security issues and economic partnerships.

Political Stability and Reforms

The political landscape in Uzbekistan has been characterized by ongoing reforms aimed at increasing transparency and reducing corruption since Mirziyoyev took office. These reforms have positively impacted its international standing:

— In 2022, Transparency International ranked Uzbekistan higher than many CIS countries regarding corruption perception.

— The government's efforts towards democratization have led to increased foreign investment interest from both Western nations and regional partners.

This stability is crucial for maintaining positive relations within the CIS as it positions Uzbekistan as a reliable partner for collaboration on various fronts.

Despite these advancements, challenges remain for Uzbekistan's political relations within the CIS framework:

— Regional tensions persist over water resources shared with neighboring states.

— Economic disparities among CIS members can complicate cooperative efforts.

— Geopolitical influences from external powers like China and Russia may affect intra-CIS dynamics.

As of 2024 projections indicate that while relations are improving overall, sustained efforts will be necessary for long-term stability and cooperation among member states.

The political position of the Republic of Uzbekistan among the CIS countries and its relations with international organizations, alongside the "One Place, One Way" program organized by China

In 2022, Uzbekistan's political position within the Commonwealth of Independent States (CIS) was characterized by a cautious approach to regional integration, emphasizing national sovereignty while maintaining cooperative ties with neighboring countries. The country has actively participated in CIS summits and initiatives but has often prioritized bilateral relations over multilateral engagements [5]. In 2023, Uzbekistan continued to strengthen its diplomatic relationships with key CIS members such as Kazakhstan and Russia, focusing on economic collaboration and security issues. By 2024, Uzbekistan's foreign policy is expected to further align with its strategic interests in Central Asia, particularly in light of evolving geopolitical dynamics involving China and Russia. Regarding international organizations, Uzbekistan has engaged with the Shanghai Cooperation Organization (SCO) and the Organization for Security and Co-operation in Europe (OSCE), seeking to enhance regional stability and security cooperation. The "One Place, One Way" initiative launched by China aims to enhance connectivity through infrastructure development across Eurasia, including Central Asia. In 2022-2023, Uzbekistan participated actively in this program by signing agreements for transportation projects that aim to improve trade routes linking it with China and other regional economies. By 2024, these developments are anticipated to bolster Uzbekistan's economic growth while also increasing its geopolitical significance as a transit hub between East and West [6].

The relationship with the PIRLS program

The proposal to analyze the political position of the Republic of Uzbekistan among the CIS countries and its political relations with international organizations is highly relevant to the

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) program, which aims to assess reading literacy among fourth-grade students globally. While PIRLS primarily focuses on educational outcomes, understanding a country's political landscape can provide insights into how political stability, governance, and international relations influence educational policies and practices. In 2022, Uzbekistan's political relations within the CIS were characterized by a focus on regional cooperation and economic integration, as evidenced by participation in initiatives like the Eurasian Economic Union (EAEU) and bilateral agreements aimed at enhancing trade and investment. By 2023, Uzbekistan's engagement with international organizations such as the United Nations and the Shanghai Cooperation Organization (SCO) has been pivotal in shaping its foreign policy, emphasizing security cooperation and economic development. As of 2024, ongoing reforms in Uzbekistan's education sector are likely influenced by these political dynamics, as increased collaboration with international bodies may lead to improved educational standards and resources. Thus, analyzing these political relations not only contextualizes Uzbekistan's standing within the CIS but also highlights potential impacts on educational outcomes measured by PIRLS [7].

Conclusion

In recent years, particularly during 2022 to 2024, Uzbekistan has strategically positioned itself within the Commonwealth of Independent States (CIS), emphasizing a policy of neutrality and constructive engagement. The country has maintained a significant role in regional security initiatives, evidenced by its participation in joint military exercises and counter-terrorism operations with CIS member states, which increased by approximately 15% from 2022 to 2023. Economically, Uzbekistan's trade volume with CIS countries reached $5 billion in 2023, reflecting a growth rate of about 10% compared to the previous year. Politically, Uzbekistan has sought to strengthen its ties with international organizations such as the United Nations and the Shanghai Cooperation Organization (SCO), where it actively participated in discussions on regional stability and economic cooperation. In 2024, Uzbekistan is expected to host a summit for SCO member states, further solidifying its leadership role in Central Asia. Furthermore, public opinion surveys conducted in late 2023 indicated that approximately 70% of Uzbek citizens support their government's foreign policy direction towards fostering closer ties with both CIS countries and international organizations. This thesis will analyze these dynamics comprehensively, providing insights into how Uzbekistan's political relations are evolving amidst changing geopolitical landscapes.

REFERENCES

1. Zukhriddinovich, E. D. (2020). Analysis of the policy of the republic of Uzbekistan regarding international non-governmental organization. Journal of Political Science and International Relations, 3(1), 9-15.
2. Kazemi, L. (2003). Domestic sources of Uzbekistan's foreign policy, 1991 to the present. Journal of International Affairs, 205-216.
3. Bakhronov, B. A. U. (2023). ECONOMIC AND POLITICAL RELATIONS OF UZBEKISTAN WITH THE COUNTRIES OF CENTRAL ASIA. Scientific progress, 4(1), 214-220.
4. qizi Normurodova, A. B. (2024). THE" SOFT POWER" FACTOR IN UZBEKISTAN'S FOREIGN POLICY: PROBLEMS AND OPPORTUNITIES. GOLDEN BRAIN, 2(12), 19-24.
5. Habibjonov, U. (2024). "Bir makon-bir yo 'l" istiqbol dasturining butunjahon savdo va iqtisodiy o 'sishga ta'siri. Nordic_Press, 3(0003).
6. Khabibjonov, U., & Ismoilov, I. (2024). GENERAL STRUCTURE AND DEVELOPMENT OF CHINA'S "ONE BELT, ONE ROAD" PROGRAM. Science and innovation, 3(A7), 29-34.
7. Khabibjonov, U., & Sakibayeva, T. (2024). THE STRUCTURE OF PIRLS INTERNATIONAL ASSESSMENT SYSTEM. THE ROLE IN THE COUNTRY'S ECONOMY AND EDUCATION SYSTEM. Science and innovation, 3(B7), 55-59.

ВНЕДРЕНИЕ “CASE STUDY” ТЕХНОЛОГИЮ В ЛАБОРАТОРНЫЕ УРОКИ ПО ФИЗИКЕ

Х. К. Худоева
55-школа г. Ташкента

Т. З. Насиров
Университет геологических наук

АННОТАЦИЯ

Представлен анализ результатов экспериментов, проведенных по выявлению эффективности внедрения педагогических технологий при проведении лабораторного урока по физике. В качестве методов использованы технология «кейс-стади», технология развивающего образования и игровые технологии. Показано, что доля учеников, получивших отличные знания, оказалась, в технологии развивающего обучения примерно в 1,5 раза, а в кейс технологии и игровых технологиях практически в 2 раза больше, чем в традиционным методе ведения урока.

Ключевые слова: лабораторный урок, педагогические технологии, кейс-стади, наклонная плоскость

ANNOTATSIYA

Maqolada fizika fanidan laboratoriya mashg’ulotlarini o’tishda yangi pedagogik va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish fan o’qituvchisidan dars o’tish jarayonida darsni an’anaviy darslarga nisbatan yanada qiziqarliroq, mazmunliroq, maqsadliroq qilib olib borish imkonini berishi ko’rsatilgan. Pedagogik texnologiya sifatida “keys stadi” usuli tanlab olingan. Laboratoriya ishi sifatida qiya tekislikning foydali ish koeffisiyetntini aniqlash va bu mashg’ulotni olib borishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan “keys-stadi”, rivojlangan ta’lim va o’yin texnologiyalari tanlab olingan. Olib borilgan tadqiqotlar natijalarining tahliliga ko’ra o’quvchilar tomonidan mavzuni o’zlashtirish samaradorligi boshqa turdagi texnologiyalardagiga nisbatan yuqoriroq ekanligi ko’rsatilgan.

Kalit so’zlar: laboratoriya mashg’uloti, pedagogik texnologiya, key-stadi, qiya tekislik

ABSTRACT

The aim of investigations is revealing efficiency of using case study technology in laboratory lessons on physics relatively

on other pedagogical technologies and traditional method of teaching a lesson. As the methods we used the case study technology, developing education technology and game technologies. We showed that using new pedagogical and computer technologies allows us to teach lessons on physics more interesting, contently, in comparison of traditional ones. As the laboratory work, we choose the definition of efficiency coefficient of inclined plane. The analysis of results carried out experiments on revealing advantages of used technologies in mastery by pupils showed that the share pupils obtained the excellent knowledge when we used educational development technology then is approximately 1,5 times, and when the case study and games technologies are used then approximately 2 times more than the traditional method lesson.

Keywords: laboratory lesson, pedagogical technology, case study, inclined plane.

Введение

В настоящее время физическая наука развивается значительно быстрее, чем многие другие дисциплины. Данное обстоятельство ставит перед учителем физики изменить тактику ведения урока таким образом, чтобы в течении одного урока ученики успели освоить сравнительно большой объем информации. В решении этого вопроса важную роль играет применение на уроке какой-либо конкретной новой педагогической технологии.

О применении педагогических технологий на практических занятиях было посвящено множество работ. Например, в работе [1] была разработана методика проведения творческой лабораторной работы по физике с использованием смартфона в качестве измерительного прибора. Было показано, что проведение на лабораторных работах смартфонов позволит обеспечить трансформацию отношения студентов к электронным девайсам - от рассмотрения гаджетов как средств связи и устройств для потребления игрового и музыкального контента и общения в социальных сетях - к фактору онлайн-образования и далее - к осознанию наличия в руках мощного инструмента исследований, измерений, фиксации данных.

В работе [2] были рассмотрены основные сложности, возникающие у студентов ВУЗа при расчете прямых и косвенных погрешностей физических величин, измеренных в рамках лабораторных работ по физике. Авторами использован раздаточный графический материал, содержащий упрощенные инструкции для расчета погрешностей физических величин. Результаты проведенных исследований указывали повышение эффективности выполнения студентами

лабораторных работ и на сокращение времени их выполнения.

Metals such as nickel, cadmium, lead, copper, and zinc contaminate the environment through industrial activities. Therefore, wastewater pollution by toxic metal ions is not merely a problem; the accumulation of these toxic heavy metals in fertile agricultural soils renders them unusable, primarily due to the bioaccumulation of these metals by plants and their subsequent entry into the food chain. The most common physical and chemical methods for separating these metals include sedimentation, chemical oxidation and reduction, ion exchange, reverse osmosis, membrane separators, electrochemical reactions, and evaporation. Human concerns increase when existing treatment methods for such wastewater fail to comply with environmental standards, as many of these methods are ineffective or uneconomical when heavy metal concentrations in contaminated environments range from 10 to 100 ppm, while permissible concentrations are below 1 ppm. In recent decades, extensive research has been conducted on the binding of metals by bacteria, yeasts, fungi, and algae. As a result, biosorption, particularly the uptake of toxic metals by algae, can be an effective alternative for large volumes with low contamination levels of toxic metals. Alginate plays a key role in the absorption of heavy and toxic metals, constituting about 10% to 40% of the dry weight of the algal cell wall. The biosorption mechanism by living and dead biomass, bacteria, polysaccharides, and various biological products has been studied. The aim of this research is to investigate the biological treatment efficiency of wastewater containing zinc using the brown algae Fucus and the impact of physical factors on zinc absorption (Broda. P, 1992).

Conclusion

In the future, countries will face crises related to water, soil, and air pollution due to the increase in urban populations and the advancement of

industry and agriculture. The use of modern methods for environmental purification has become a focus due to limited resources. Fecal pollution and the introduction of oil spills into water, the presence of pesticides and herbicides in soil, and the creation of biological contamination in its surface layers, as well as air pollution caused by fungi, bacteria, and others, have increased significantly today.

In the past, physical methods such as ion exchange, electrodialysis, and reverse osmosis, as well as chemical methods like chemical reduction, electrolysis, and ion exchange, were commonly used. However, due to their relatively low efficiency, high costs, and other associated issues, alternative methods have now replaced these approaches. Biological methods have emerged as a modern solution for environmental pollution remediation. This method involves the use of fungi, algae, bacteria, yeast, and plant cells to remove pollution. Considering that Iran has been making significant strides in biotechnology in recent years, it seems rational to utilize biotechnology as a supporting tool in large-scale environmental programs in the country.

Now, it is crucial for universities to seriously engage in biotechnology research alongside new developments in engineering and sciences. This will allow us to pass on the frontiers of contemporary knowledge to future generations and contribute to the emerging structures of existence. We must awaken promptly, appreciate the profound miracles of human thought, and move away from short-sightedness and outdated ideas.

References

1. Moslemi, M. R., Vosoughi, M., Pak, A., and Jafarzadeh, M.T. (2005). “The effect of environmental factors on biological remediation of petroleum hydrocarbon contaminated soil.” J. of Water and Wastewater, 55, 15-23

2. Schaefer, M., and Juliane, F. (2007). “The influence of earthworms and organic additives on the biodegradation of oil contaminated soil.” J. Applied Soil Ecoogy., 36, 53-62.

3. Espinoza, Y.R., and Dendooven, L. (2003). “Dynamics of carbon, nitrogen and hydrocarbons in diesel contaminated soil amended with biosolids and maze.” J. Chemosphere., 54, 379- 386.

4. Van Gestel, K., Mergaert, J., Swings, J., Coosemans, J., and Ryckebore, J. (2003). “Bioremediation of diesel oil-contaminated soil by composting with biowaste.” J. Environmental Pollution, 125 (3), 361-368.

5. Atlas, R.M., and Bartha, R. (1973). “Fate and effects of polluting petroleum in the marine environment”. Residue Rev., 49 (2), 49-83.

6. Das, K., and Murkherjee, A.K. (2007). “Crude petroleum-oil biodegradation efficiency of Bacillus subtilis and Pseudomonas aeruginosa isolated from a petroleum-oil contaminated soil from North-East India.” J. of Bioresource Technology, 98 (10), 1339-1345.

7. Atlas RM (1984). Fundamentals and Applications. New York: MacMillian Publishing Company.

8. Atlas RM, Bartha R (1981). Microbial Ecology: Fundamentals and Applications. Reading, Ma: Addison-Wesley Publishing Company.

9. Atlas RM, Bartha R (1993). Microbial Ecology: Fundamentals and Applications. 3rd ed. Reading, Ma: Addison-Wesley publishing Company.

10. Bouwer EJ, Zehnder AJB (1993). Bioremediation of organic compounds-putting microbial metabolism to work. Trends Biotech.11(8): 360-367.

11. Broda P (1992). Using microorganism for bioremediation: the barriers to implementation. Trends Biotech. 10(9): 302- 308

12. Ardern, E. and Lockett, W.T. (1914). "Experiments on the Oxidation of Sewage Without the
13. Makadia TH, Adetutu EM, Simons KL, Jardine D, Sheppard PJ, Ball AS (2011) Re-use of remediated soils for the bioremediation of waste oil sludge. J Environ Manag 92(3):866–871.
14. Cerqueira VS, Maria do Carmo RPM, Camargo FA, Bento FM (2014) Comparison of bioremediation strategies for soil impacted with petrochemical oily sludge. Int Biodeterior Biodegrad 95:338–345.
15. Zuhara S, Isaifan R (2018) The impact of criteria air pollutants on soil and water: a review. 278–84.

НОСТАЦИОНАР ИССИҚЛИК УЗАТИШНИНГ ИККИ ЎЛЧОВЛИ МАСАЛАЛАРИНИ ЕЧИШ УЧУН ДИФФЕРЕНЦИАЛ-АЙИРМАЛИ УСУЛ

Масъуджон Хикматиллаевич Эшмуродов
Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети, 140147, Самарқанд
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0005-0667-8116
m.eshmurodov@samdaqu.edu.uz

АННОТАЦИЯ

Тўғри ва тескари қувиш (прогонки) жараёнлари алоҳида йўналишларда амалга ошириладиган усулларнинг умумий камчиликлари турли йўналишларда натижаларнинг номувофиқлигидир. Ҳақиқатан ҳам, маълум бир йўналишда (координата ўқида) тенгламаларни аппроксимациялаганда изланаётган қўшни қатламларнинг қийматлари олдинги яқинлашишдан ёки вақт қатламидан олинади. Шу муносабат билан, предикор-корректор усулидан фойдаланган ҳолда ҳам вақт қадами учун якуний ечим аниқ ечим эмас, балки унга қандайдир яқинлашишувчи ечим олинади. Буларга чекли айирмали яқинлашувнинг номувофиқлигига қўшни қатламларда изланаётган қийматларнинг тақрибий қийматларидан фойдаланиш сабабли пайдо бўладиган ноаниқликлар қўшилади.

Калит сўзлар: Аппроксимация, Чекли айирмалар усули, Иссиқлик узатиш, Ностационар, Дифференциал-айирмали усул.

КИРИШ

Изланаётган функциянинг қийматлари биринчи Декарт координатаси чегараларида (биринчи жинсли чегаравий шартлари) ва иккинчи координата чегараларида биринчи, иккинчи ва учинчи жинсли шартларнинг ихтиёрий комбинациясида берилганда икки ўлчовли параболик тенгламаларни ечишнинг сонли усулини таклиф қиламиз. Бу усул алоҳида координаталар бўйича қувиш натижаларининг изчиллигини таъминлайди. Биз параболик тенгламани кўриб чиқиш билан чекланамиз.

МЕТОДОЛОГИЯ

Масаланинг қўйилиши. Икки ўлчовли иссиқлик узатиш жараёни

$$\frac{\partial T}{\partial t} = a^2\left(\frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 T}{\partial y^2}\right) + f(x,y,t), \qquad (1)$$

тенглама билан тавсифланади, бу ерда $f(x,y,t)$ – иссиқлик сиғими ва материал зичлиги кўпайтмаси бўйича келтирилган (x,y) нуқтадаги ички ва ташқи иссиқлик манбаларининг интенсивлиги.

Ҳисоблаш соҳасида бошланғич ҳарорат тақсимоти

$$T(x,y,0)=T^0(x,y), \tag{2}$$

x ўқи учун

$$T(0,y,t)=\mu_0(y,t), \quad T(l_x,y,t)=\mu_l(y,t) \tag{3}$$

ва y ўқи учун

$$\theta_0\frac{\partial T(x,0,t)}{\partial y}+\eta_0 T(x,0,t)=\varphi(x,t), \quad \theta_l\frac{\partial T(x,l_y,t)}{\partial y}+\eta_l T(x,l_y,t)=\psi(x,t) \tag{4}$$

чегаравий шартлар берилган.

Икки координата йўналиши бўйича ечимларнинг ўзаро мослигини таъминлайдиган сонли усулни ишлаб чиқиш талаб этилади.

Масалани ечишнинг дифференциал-айирмали усули. x ва y бўйича текис тўр:

$$\omega_x=\left(x_i=ih_x,\ \ i=0,...,N_x+1;\ \ h_x=\frac{l_x}{N_x+1}\right),$$

$$\omega_y=\left(y_j=jh_y,\ \ j=0,...,N_y+1;\ \ h_y=\frac{l_y}{N_y+1}\right),$$

шунингдек, вақт бўйича текис ёки нотекис қадам $\tau_n=t_n-t_{n-1}$ киритилади. Изланаётган $u_{i,j}^n$ тўр функцияси ва $f_{i,j}^n$, $\mu_{0,j}^n$, $\mu_{l,j}^n$... функцияларини киритамиз.

Дастлаб j $(0<j<N_y+1)$ нинг муайян қиймати учун x функция бўйича ички тугунларда тенгламани иккинчи тартибли аниқлик билан яқинлаштирамиз:

$$\frac{\partial u_{i,j}^n}{\partial t}=\frac{a^2}{h_x^2}\left(u_{i+1,j}^n-2u_{i,j}^n+u_{i-1,j}^n\right)+a^2\frac{\partial^2 u_{i,j}^n}{\partial y^2}+f_{i,j}^n.$$

$i=1$ ва $i=N_x$ хусусий ҳолларда масаланинг чегаравий шартлари амалга оширилади:

$$\frac{\partial u_{1,j}^n}{\partial t}=\frac{a^2}{h_x^2}\left(u_{2,j}^n-2u_{1,j}^n+\mu_{0,j}^n\right)+a^2\frac{\partial^2 u_{1,j}^n}{\partial y^2}+f_{1,j}^n,$$

$$\frac{\partial u_{N_x,j}^n}{\partial t}=\frac{a^2}{h_x^2}\left(\mu_{l,j}^n-2u_{N_x,j}^n+u_{N_x-1,j}^n\right)+a^2\frac{\partial^2 u_{N_x,j}^n}{\partial y^2}+f_{N_x,j}^n$$

Биз охирги учта ёзувни матрица шаклида ёзамиз:

$$\frac{\partial U_j^n}{\partial t}=\frac{a^2}{h_x^2}AU_j^n+a^2\frac{\partial^2 U_j^n}{\partial y^2}+F_j^n, \tag{5}$$

Бу ерда

$$A=\begin{Vmatrix} -2 & 1 & 0 & 0 & \dots & 0 & 0 & 0 \\ 1 & -2 & 1 & 0 & \dots & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & -2 & 1 & \dots & 0 & 0 & 0 \\ & \dots & & & \dots & & \dots & \\ 0 & 0 & 0 & 0 & \dots & -2 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & \dots & 1 & -2 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & 1 & -2 \end{Vmatrix}_{N_x},$$

$$U_j^n=\left(u_{1,j}^n, u_{2,j}^n,\dots, u_{N_x-1,j}^n, u_{N_x,j}^n\right)^T,$$

$$F_j^n=\left(f_{1,j}^n+\frac{a^2}{h_x^2}\mu_{0,j}^n, f_{2,j}^n,\dots, f_{N_x-1,j}^n, f_{N_x,j}^n+\frac{a^2}{h_x^2}\mu_{l,j}^n \right)^T.$$

Бу ерда ва кейин $(\dots)^T$ матрицанинг транспонирлашни билдиради.

Биз A матрицасини $A=V\Lambda V^{-1}$ шаклда ифодалаймиз, бу ерда Λ диагонал матрицанинг элементлари $\lambda_s=-2\left(1+\cos\frac{\pi s}{N_x+1}\right)$, V фундаментал матрица элементлари эса $v_{s,p}=(-1)^{s+p}\sqrt{\frac{2}{N_x+1}}\sin\frac{\pi sp}{N_x+1}$ кўринишга эга; V^{-1} $(=V)$ – V га тескари матрица.

(4.5) тенгламанинг иккала томонини чапдан V^{-1} га кўпайтирамиз,

$$\frac{\partial V^{-1}U_j^n}{\partial t}=\frac{a^2}{h_x^2}V^{-1}AU_j^n+a^2\frac{\partial^2 V^{-1}U_j^n}{\partial y^2}+V^{-1}F_j^n \qquad (6)$$

Янги изланаётган $\bar{U}_j^n=V^{-1}U_j^n$ вектор функцияни, $\bar{F}_j^n=V^{-1}F_j^n$ вектор функциясини киритамиз ва $V^{-1}AU_j^n=\Lambda\bar{U}_j^n$ айниятни ҳисобга оламиз.

У ҳолда (4.6) тенглама қуйидаги шаклни олади:

$$\frac{\partial \bar{U}_j^n}{\partial t}=\frac{a^2}{h_x^2}\Lambda\bar{U}_j^n+a^2\frac{\partial^2\bar{U}_j^n}{\partial y^2}+\bar{F}_j^n,$$

бу эса

$$\frac{\partial \bar{u}_{i,j}^n}{\partial t}=\frac{a^2}{h_x^2}\lambda_i\bar{u}_{i,j}^n+a^2\frac{\partial^2\bar{u}_{i,j}^n}{\partial y^2}+\bar{f}_{i,j}^n \qquad (7)$$

автоном тенгламалардан иборатдир.

Киритилган алмаштиришлар ва $V^{-1}=V$ айниятга кўра, бу ерда

$$\bar{u}_{i,j}^n=\sum_{p=1}^{N_x}v_{i,p}u_{p,j}^n,\quad \bar{f}_{i,j}^n=v_{i,1}\frac{a^2\mu_{0,j}^n}{h_x^2}+v_{i,N_x}\frac{a^2\mu_{l,j}^n}{h_x^2}+\sum_{p=1}^{N_x}v_{i,p}u_{p,j}^n.$$

Шунинг учун бошланғич шарт $\bar{u}_{i,j}^0=\sum_{p=1}^{N_x}v_{i,p}T_{p,j}^0$ ва чегаравий шартлар $\theta_0\frac{\partial\bar{u}_{i,0}^n}{\partial y}+\eta_0\bar{u}_{i,0}^n=\bar{\varphi}_i^n\equiv\sum_{p=1}^{N_x}v_{i,p}\varphi_p^n$, $\theta_l\frac{\partial\bar{u}_{i,N_y+1}^n}{\partial y}+\eta_l\bar{u}_{i,N_y+1}^n=\bar{\psi}_i^n\equiv\sum_{p=1}^{N_x}v_{i,p}\psi_p^n$ кўринишга эга.

j бўйича ички тугунлар учун (7) тенглама иккинчи тартибили ошкормас схема бўйича аппроксимацияланади:

$$\frac{\bar{u}_{i,j}^n-\bar{u}_{i,j}^{n-1}}{\tau_n}=\frac{a^2}{h_x^2}\lambda_i\bar{u}_{i,j}^n+\frac{a^2}{h_y^2}\left(\bar{u}_{i,j+1}^n-2\bar{u}_{i,j}^n+\bar{u}_{i,j-1}^n\right)+\bar{f}_{i,j}^n\ .$$

Тенгламанинг томонларини τ_n га кўпайтирамиз ва ихчамлаймиз:

$$a_j\bar{u}_{i,j+1}^n-b_j\bar{u}_{i,j}^n+c_j\bar{u}_{i,j-1}^n=d_j,$$

бу ерда $a_j=c_j=\sigma_y=\frac{\tau_n a^2}{h_y^2}$, $\sigma_x=\frac{\tau_n a^2}{h_x^2}$, $b_j=1+2\sigma_y-\sigma_x\lambda_i$, $d_j=-\tau_n\bar{f}_{i,j}^n-\bar{u}_{i,j}^{n-1}$,

$\bar{u}_{i,j-1}^n=\alpha_{j-1}\bar{u}_{i,j}^n+\beta_{j-1}$ деб фараз қилсак, $a_j\bar{u}_{i,j+1}^n-\left(b_j-c_j\alpha_{j-1}\right)\bar{u}_{i,j}^n=d_j-c_j\beta_{j-1}$ га эга бўламиз. Бу ердан $1\le j\le N_y$ лар учун қувиш коэффициентларининг қийматларини топамиз:

$$\alpha_j=\frac{a_j}{b_j-c_j\alpha_{j-1}},\quad \beta_{j-1}=\frac{c_j\beta_{j-1}-d_j}{b_j-c_j\alpha_{j-1}}.\qquad(8)$$

$y=0$ да тўғри қувиш бошланадиган коэффициентларнинг қийматларини аниқлашимиз лозим. $y=0$ да учинчи жинсли чегаравий шартлар учун ($\theta_0\neq0,\ \eta_0\neq0$) аппроксимация аниқлигининг иккинчи тартибини ҳам таъминлаймиз:

$$\theta_0\frac{-3\bar{u}_{i,0}^n+4\bar{u}_{i,1}^n-\bar{u}_{i,2}^n}{2h_y}+\eta_0\bar{u}_{i,0}^n=\bar{\varphi}_i^n$$

$\bar{u}_{i,2}^n$ қийматни $a_1\bar{u}_{i,2}^n-b_1\bar{u}_{i,1}^n+c_1\bar{u}_{i,0}^n=d_1$ тенгликдан топамиз:

$$\bar{u}_{i,2}^n=\frac{d_1+b_1\bar{u}_{i,1}^n-c_1\bar{u}_{i,0}^n}{a_1}.$$

Уни олдинги тенгламага қўямиз ва

$$\left(-3\theta_0 a_1+\theta_0 c_1+2h_y a_1\eta_0\right)\bar{u}_{i,0}^n+\theta_0\left(4a_1-b_1\right)\bar{u}_{i,1}^n=\theta_0 d_1+2a_1h_y\bar{\varphi}_i^n$$

тенгламани оламиз. Бундан

$$\alpha_0=\frac{\left(4a_1-b_1\right)\theta_0}{\left(3a_1-c_1\right)\theta_0-2h_y a_1\eta_0},\quad \beta_0=\frac{-\theta_0 d_1-2a_1h_y\bar{\varphi}_i^n}{\left(3a_1-c_1\right)\theta_0-2h_y a_1\eta_0} \tag{9}$$

келиб чиқади.

Хусусий ҳолда, биринчи турдаги чегаравий шартлар ($\theta_0=0,\ \eta_0=1$) учун $\alpha_0=0,\quad \beta_0=\bar{\varphi}_i^n$ га эга бўламиз.

Иккинчи турдаги чегаравий шартлар учун ($\theta_0=1,\ \eta_0=0$) умумий ҳолдан қуйидагилар келиб чиқади: $\alpha_0=\dfrac{4a_1-b_1}{3a_1-c_1},\quad \beta_0=\dfrac{-d_1-2a_1h_y\bar{\varphi}_i^n}{3a_1-c_1}.$

α_0 ва β_0 қийматлар (4.9) формулалар билан аниқлангандан сўнг $1\le j\le N_y$ лар учун $\alpha_j,\ \beta_j$ лар (4.8) формулалар бўйича ҳисобланади. олинган $\alpha_j,\ \beta_j$ ва чегаравий шартларга кўра $\bar{u}_{i,N_y+1}^n$ қийматлар аниқланади.

$y=l_y$ даги учинчи жинсли шарт $\theta_l=1,\ \eta_l\neq 0$ даги (4.4) даги иккинчи шарт ҳам аниқликнинг иккинчи тартиби билан аппроксимацияланади:

$$\frac{\theta_l}{2h_y}\left(3\bar{u}_{i,N_y+1}^n-4\bar{u}_{i,N_y}^n+\bar{u}_{i,N_y-1}^n\right)+\eta_l\bar{u}_{i,N_y+1}^n=\bar{\psi}_i^n\ .$$

Бу ерда $\bar{u}_{i,N_y-1}^n=\alpha_{N_y-1}\bar{u}_{i,N_y}^n+\beta_{N_y-1}$. Шунинг учун

$$\left(3\theta_l+2h_y\eta_l\right)\bar{u}_{i,N_y+1}^n-\left(4\theta_l-\theta_l\alpha_{N_y-1}\right)\bar{u}_{i,N_y}^n=2h_y\bar{\psi}_i^n-\theta_l\beta_{N_y-1}.$$

$\bar{u}_{i,N_y}^n=\alpha_{N_y}\bar{u}_{i,N_y+1}^n+\beta_{N_y}$ ни ҳисобга оламиз. У ҳолда

$$\left[3\theta_l+2h_y\eta_l-\theta_l\left(4-\alpha_{N_y-1}\right)\alpha_{N_y}\right]\bar{u}_{i,N_y+1}^n=2h_y\bar{\psi}_i^n-\theta_l\beta_{N_y-1}+\theta_l\left(4-\alpha_{N_y-1}\right)\beta_{N_y}.$$

Бундан

$$\bar{u}_{i,N_y+1}^n=\frac{2h_y\bar{\psi}_i^n-\theta_l\left[\beta_{N_y-1}-\left(4-\alpha_{N_y-1}\right)\beta_{N_y}\right]}{2h_y\eta_l+\theta_l\left[3-\left(4-\alpha_{N_y-1}\right)\alpha_{N_y}\right]}$$

тенглик келиб чиқади. Бу формуладан $\theta_l=0,\ \eta_l=1$ да $y=l_y$ даги биринчи жинсли чегаравий шартлар учун $\bar{u}_{i,N_y+1}^n=\bar{\psi}_i^n$ оддий формула ҳосил бўлади.

Иккинчи жинсли чегаравий шартлар учун эса $\theta_l = 1,\ \eta_l = 0$ да

$$\bar{u}^n_{i,N_y+1} = \frac{2h_y\bar{\psi}^n_i - \left[\beta_{N_y-1} - \left(4 - \alpha_{N_y-1}\right)\beta_{N_y}\right]}{3 - \left(4 - \alpha_{N_y-1}\right)\alpha_{N_y}}.$$

тенгликка эга бўламиз.

$i = 1..N_x$ кесимлар учун тўғри ва тескари қувиш амалга оширилади.

$V = V^{-1}$ айният ҳисобга олинган ҳолда u^n_i га тескари ўтиш $i = 1..N_x$ ва $j = 0..N_y + 1$ да $u^n_{i,j} = \sum_{p=1}^{N_x} v_{i,p}\bar{u}^n_{p,j}$ формула бўйича амалга оширилади.

Биз таклиф қилган усул доирасида ечиладиган алоҳида масалаларга мурожаат қиламиз ва сонли натижаларни муҳокама қиламиз.

Тенглама ва чегаравий шартларни яқинлаштирганда координаталар бўйича $O\left(h_x^2 + h_y^2\right)$ иккинчи тартибли аниқликни таъминладик. Тақдим этилган материал вақт бўйича $O\left(\max_n\{\tau_n\}\right)$ аниқликнинг биринчи тартибини таъминлайди. Лекин чекли-айирмали тенгламанинг (7) ўнг томонини вақт бўйича n -инчи ва n-1-чи қадамлари учун ифодаларнинг ўрта арифметик қиймати билан ифодалаш орқали унинг тартибини ошириш имконияти мавжуд.

ХУЛОСА

Параболик тенгламани сонли ечиш учун таклиф қилинган усулнинг муваффақияти шундан иборатки, муайян t вақтда x координата бўйлаб ҳам, y координата бўйлаб ҳам аппроксимациялашда тўр функциялари ёки уларнинг чизиқли комбинацияларининг бир хил қийматларидан фойдаландик. Яъни, вақт ўтиши билан тўпланиб қоладиган қўшни қатламлардаги чекли айирмали тенгламаларида қўлланиладиган тўр функцияларнинг номувофиқлигидан келиб чиқадиган хатоликлар бартараф этилди. Охир оқибат, ҳисоб-китобларнинг аниқлиги яқинлашишнинг $O\left(\tau_{n\max} + h_x^2 + h_y^2\right)$ ва машина яхлитлашларининг аниқлиги билан баҳоланади. Қадамларнинг қийматлари бошланғич ва чегаравий шартларнинг табиатига қараб танланади.

τ_n вақт қадамининг ўзгарувчанлиги ўрнатилиш жараёнида τ_n ни арифметик прогрессия ёки бошқа шаклда олиниши билан боғлиқ. Бунинг ўрнига $\partial T / \partial t = 0$ деб қабул қилиш орқали эллиптик тенгламага ўтиш мумкин. Агар тенгламанинг ўнг томони ва чегаравий функциялари вақтга боғлиқ бўлмаса, у ҳолда

юқорида келтирилган материалга асосланиб алгоритм қуриш мумкин, у ҳолда масала кетма-кет яқинлашишларни ишлатмасдан ёки фиктив вақтни киритмасдан бир босқичда ечилади. Агар тенгламанинг ўнг томони ва чегаравий функциялари вақтга боғлиқ бўлса, у ҳолда t вақт параметр сифатида ечимда иштирок этади ва ҳар бир алоҳида t_n қийматлар учун дифференциал-айирмали усулни қўллаш якуний натижани беради.

Алгоритм гиперболик типдаги тенгламалар учун мос тузатишлар билан мослаштирилиши мумкин. Бундай ҳолда, машинани яхлитлаш чегараларидаги $O\left(\tau_{n\max} + h_x^2 + h_y^2\right)$ аниқлик таъминланади.

Агар x координата бўйича шартлардан бирини иккинчи турдаги шарт билан алмаштирилса, ечиладиган масалалар доирасини кенгайтириш мумкин. Бундай ҳоллар учун λ_s, $\nu_{s,p}$, $\nu_{s,p}^-$ лар қийматлари келтирилган.

REFERENCES

1. I. Khujaev, J Khujaev, M Eshmurodov and K Shaimov. Differential-difference method to solve problems of hydrodynamics. Journal of Physics: Conference Series 1333. 2019. -P. 1-8.

2. M Kh Eshmurodov, K M Shaimov, I Khujaev and J Khujaev. Method of lines for solving linear equations of mathematical physics with the third and first types boundary conditions//Journal of Physics: Conference Series 2131, 2021. -P.1-10.

3. KM Shaimov, MK Eshmurodov, I Khujaev, ZI Khujayev. The method of lines for solving equations of mathematical physics with boundary conditions of the first and third types//*AIP Conference Proceedings* 2612, 030028 (2023). https://doi.org/10.1063/5.0124614

4. КМ Шаимов, МХ Эшмуродов, ИК Хужаев. Численный метод решения задач о движущихся точечных источниках тепла внутри области теплообмена//ТУИТ имени М.ал-Хоразми – Проблемы вычислительной и прикладной математики, Ташкент, 2020.-№1(25).-С. 59-68.

5. M.X. Eshmurodov, K.M. Shaimov. Ixtiyoriy chiziqli chegaraviy shartlar uchun parabolik tenglamani yechishda to‘g‘ri chiziqlar usulini qo‘llash algoritmi//Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 11 | 2022. B. 124-133.

6. M.X. Eshmurodov. To‘g‘ri burchakli sohada issiqlik to‘lqinlari tarqalishi masalani yechish. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 1 | 2023. B. 111-115.

7. M.X. Eshmurodov. Yordamchi matrisalarni kiritish va ularning elementlarini aniqlash usullari. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 1 | 2023. B. 209- 214.

MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASHDA INFRAQIZIL NURLANISHNING SAMARADORLIK TA'SIRI

G'ulomjon Raxmonberdiyevich Rahmatov
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori
g.r.raxmatov@pf.fdu.uz,
ORCID: 0000-0001-5514-9265

ANNOTATSIYA

Quritish jarayonida foydalaniladigan asosiy manba, issiq havo hisobidan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu esa quritilgan mahsulotlarning tannarxini ortib ketishi, inson salomatligiga turli ziyonlar yetkazilishi, quritilgan mahsulotning tarkibidagi foydali vitaminlarning yo'qotilishiga sabab bo'lmoqda. Mahsus keramika qoplangan kvars nay orqali infraqizil nurlanish ta'sirida mahsulotlarni quritish esa, yuqorida keltirilgan qator kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Mahsus keramika qoplangan kvars naydan tarqalayotgan impulsli infraqizil nurlanish mahsulot tarkibidagi suvning tabiiy bug'lanishiga sabab bo'ladi. Tadqiqot natijalari asosida turli qishloq ho'jalik mahsulotlari, sabzovotlar kartoshka, sabzi va piyozni qayta ishlash natijalari tahlil qilingan. Tahlillar quritish tezligi, quritish qalinligi, quritish vaqtining texnik kattaliklariga ta'siri keltirilgan. Qurilmada kechadigan fizikaviy jarayonlar, bug'lanish va uning mahsulotlarga ta'siri, namlikning tabiiy holatda yuqoriga xarakatlanishi asoslangan. Ejektor tizimining afzalliklari, mahsulotning sifatli qurishiga, mahsulot tarkibining saqlanishiga xizmat qilishi ko'rsatilgan. Qurilmada joylashgan termopara ko'rsatkichlari, quritish jarayonidagi atmosferani ta'minlashi, mahsulotlarning bir tekis qurishi, mahsulotlarning tashqi ko'rinishiga ziyon yetkazilmasligi, qurish vaqtining cho'zilmasligini ta'minlaydi. Elektr kuchlanishni avtomatik boshqarish tizimi qurilmaning belgilangan vaqtlar davomida mahsulotlarni intensiv qurishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: quritish, issiq havo, quritilgan mahsulot, inson salomatligi, vitamin, keramika, kvars nay, infraqizil nurlanish, bug'lanish.

ABSTRACT

The main source used in the drying process is hot air. This causes an increase in the price of dried products, various damage to human health, and the loss of useful vitamins contained in dried products. Drying products under the influence of infrared radiation through a special quartz tube with a ceramic coating allows eliminating a number of the above-mentioned disadvantages. Pulsed infrared radiation emitted by a special

quartz tube with a ceramic coating causes natural evaporation of water contained in the product. Based on the research results, the results of processing various agricultural products, vegetables, potatoes, carrots and onions were analyzed. The analysis of the influence of drying speed, drying thickness and drying time on technical parameters is given. It is based on the physical processes occurring in the device, evaporation and its effect on products, upward movement of moisture in a natural state. It is shown that the advantages of the ejector system are the quality of the product and the preservation of the product composition. Thermocouple indicators located in the device guarantee that the atmosphere will be provided during the drying process, the products will be dried evenly, the appearance of the products will not be spoiled and the drying time will not be extended. The automatic voltage regulation system serves the device for intensive assembly of products during a specified time.

Keywords: drying, hot air, dried product, human health, vitamin, ceramics, quartz tube, infrared radiation, evaporation.

KIRISH

Qishloq xo‘jalik maxsulotlar (paxta) ini qayta ishlash texnologik jarayonlarini maqsadli samaradorlikka ega texnika va texnologiyalarni yaratishga oid keng qamrovli ilmiy-amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qishloq xo‘jalik maxsulotlarinin qayta ishlash korxonalari tomonidan tayyorlab berilayotgan maxsulot xom-ashyosi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ularning sifat va maxsulot saqlashni ta’minlash, xom-ashyo, ishchi kuchi va energiya sarfini kamaytirish yo‘lida xizmat qiladigan texnika va texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Olib borilayotgan tadqiqotlarda paxta tolasining 96-98 % pishgan sellyulozadan iborat bo‘ladi [1, 2]. Tolaning strukturaviy tuzilishi bo‘yicha g‘ovak-kapillyar materiallar qatoriga kiradi [3]. Adsobrsiyalangan nam miqdor, tabiiy sharoitda muhit holati, tola qobig‘ining yog‘-tukliligi va harorati bilan bevosita bog‘liqdir. Tola o‘zining atrofidagi muhit bilan ta’sirlashuvi, yuzaning katta bo‘lganligi uchun o‘zgarmas termodinamik sharoitda katta tezlikdagi adsorbsiya va desorbsiya bilan boshqa tarkibiy bo‘laklardan ajralib turadi. Shuning uchun namlik toladan tez ajraladi. Buni quritish texnologiyasida alohida e’tiborga olish zarur bo‘ladi. Chigitning po‘stlog‘i g‘ovak-kapillyar material hisoblanib, qalinligi 300 mkm ga yaqin qavatma-qavat joylashgan yagona yog‘ochsimon kletkalardan tuzilgan [4]. Chigitning tarkibi 40÷45 % sellyuloza, 20÷35 % lyagnina, 28÷30 % pentozanov, 2÷3 % protein, 2÷3 %

suv va 5 % atrofida boshqa moddalardan iborat bo‘ladi. Bu moddalar namlik bilan fizik-kimyoviy va fizik-mexanikaviy bog‘lanishga ega bo‘ladi. Mag‘iz esa kolloid material bo‘lib, kimyoviy bog‘langan namlik, fizik-kimyoviy bog‘langan namlik, adsorbsion, osmotik, tarkibiy va ozroq miqdorda mikrokapillyardagi mexanik bog‘langan namlikka ega bo‘ladi.


Uzluksiz nurlanish katta zichlikka ega bo‘lgan energiyali impulsga aylanadi. Impulsdagi energiya zichligining yuqoriligi infraqizil nurlanishni mahsulotga chuqurroq kirib borishini ta’minlaydi. Uzoq infraqizil sohasida kvant energiyasining uncha katta bo‘lmaganligi sababli organik tashkil etuvchilarning buzilishi kuzatilmaydi [5, 6].

NATIJA VA MUHOKAMA

Ko‘p funksiyali keramika qoplangan infraqizil quyta ishlash qurilmasida quyidagi tajriba natijalari aniqlandi. Bizga ma’lumki, qishloq ho‘jalik mahsulotlarini quritishda, quritish haroratining meyor talablari asosida 50 ^{0}S dan oshmasligi tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Qurilmaning ishchi zonasida uchta yuqoridan pastga qarab 300 mm, 400 mm va 500 mm nuqtalariga “Operation manual for temp.& humidity meter” yordamida bir vaqtning o‘zida harorat va havoning nisbiy namligini ko‘rsatuvchi termoparali datchik yordamida nazoratga olindi. Nazorat natijasida ishchi harorat 50 ^{0}S dan, havoning nisbiy namligi esa 27 % dan ko‘tarilmaganligi aniqlandi.

Namliklari 12.0, 17.0 va 24.0 % bo‘lgan 100 gr og‘irlikdagi paxtaning yuza qismiga 15 gr. suv purkaldi. Natijada paxtaning namliklari mos ravishda 28.9 %, 34.6 % va 42.6 % ga ko‘tarildi. Paxtani quritish jarayonida nurlatgich va paxtaning orasidagi masofani 170 mm qilib olindi. Tajriba o‘tkazish vaqti 3 minutdan 42 minutgacha davom etdi. Tajriba davomida har 3 minutda paxtaning og‘irligini kamayishi “Valor3000Xtreme” rusumli 200 gr. og‘irlikgacha o‘lchovchi elektron tarozida o‘lchab borildi:

28.9 % namlikdagi paxtaning namligi 3 minutdan 42 minutgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida 12.0 % ga, 34.6 % namlikdagi paxtaning namligi 16.5 % ga hamda 42.6 % namlikdagi paxtaning namligi 19.9 % ga kamayganligi aniqlandi (2-rasm) [7, 8].



2-rasm. Paxtaning yuza qismidagi suvga infraqizil nurlanishning ta’siri

200 mm qalinlikdagi paxtaning qurish natijasida: namligi 12.10 % bo‘lgan paxtaning namligi 3 minut davomida paxtaning yuqori qismida 1.95 % ga, o‘rta qismida 1.41 % ga va quyi qismida 1.66 % ga kamayishi aniqlandi. Namligi 14.70 % bo‘lgan paxtaning namligi 3 minut davomida paxtaning yuqori qismida 1.72 % ga, o‘rta qismida 0.94 % ga va quyi qismida 1.09 % ga kamayishi aniqlandi. Namligi 18.30 % bo‘lgan paxtaning namligi 3 minut davomida paxtaning yuqori qismida 2.63 % ga, o‘rta qismida 1.19 % ga va quyi qismida 1.54 % ga kamayishi aniqlandi.

300 mm qalinlikdagi paxtaning qurish natijasida: namligi 12.10 % bo‘lgan paxtaning namligi 3 minut davomida paxtaning yuqori qismida 1.77 % ga, o‘rta qismida 0.85 % ga va quyi qismida 0.58 % ga kamayishi aniqlandi. Namligi 14.70 % bo‘lgan paxtaning namligi 3 minut davomida paxtaning yuqori qismida 2.30 % ga, o‘rta qismida 1.36 % ga va quyi qismida 1.47 % ga kamayishi aniqlandi. Namligi 18.30 % bo‘lgan paxtaning namligi 3 minut davomida paxtaning yuqori qismida 1.62 % ga, o‘rta qismida 1.37 % ga va quyi qismida 2.37 % ga kamayishi aniqlandi.

Quritish qurilmasida paxtaning qalinligi 300 mm olinib, uni 3-minut vaqt davomida quritish natijasija qatlamning yuqori, o‘rta va pastki qismlaridagi namlikni kamayishi natijalari va ularning grafik tenglamasi quyidagi jadvalda keltirilgan. Natijada quyidagi ayrim hulosalarga kelishimiz mumkin:

Namlik, % Vaqt, sek;	12.10 %	14.70 %	18.30 %
Paxtaning yuqori qismida			
0	12.10	14.70	18.30
30	11.44	13.55	17.59
60	11.08	13.18	17.37
90	10.87	12.97	17.22
120	10.62	12.76	17.01
150	10.46	12.54	16.83
180	10.33	12.40	16.68
Tenglama	$y=0.00004x^2-0.017x+12.1$	$y=0.00007x^2-0.025x+14.7$	$y=0.00003x^2-0.015x+18.3$
Paxtaning o‘rta qismida			
0	12.10	14.70	18.30
30	11.82	13.91	17.70
60	11.65	13.74	17.51
90	11.52	13.62	17.36
120	11.44	13.53	17.21
150	11.34	13.42	17.06
180	11.25	13.34	16.93
Tenglama	$y=0.00002x^2-0.018x+12.1$	$y=0.00005x^2-0.016x+14.7$	$y=0.00003x^2-0.013x+18.3$
Paxtaning quyi qismida			
0	12.10	14.70	18.30
30	11.97	13.88	17.58
60	11.96	13.67	17.10
90	11.82	13.58	16.79
120	11.72	13.44	16.46
150	11.62	13.36	16.17
180	11.52	13.23	15.93
Tenglama	$y=-0.0000012x^2-0.003x+12.1$	$y=0.000047x^2-0.016+14.7$	$y=0.00004x^2-0.02x+18.3$

XULOSA

1. Ko‘p funksiyali keramika qoplangan infraqizil quritish qurilmasida olib borilgan tadqiqot natijasida:

-tavsiya qilingan qurilmada infraqizil quritgichning temperaturasi deyarli 50 ^{0}S ekanligi maqsadga muvofiqdir.

-paxtani quritishda nurlatgich va paxta orasidagi masofaning optimal qiymati 300 mm ekanligi asoslandi.

-qurish jarayonida ishchi harorat belgilangan talablar asosida ekanligi, paxtani mexanik shikastlanmaganligi, ortiqcha

namlik bug‘lanayotganligini inobatga olib, tolaning sifat ko‘rsatkichlariga ziyon yetmasligini hulosa qilish mumkin.

-infraqizil nurlanish tabiatiga muvofiq nurlangan mahsulot tarkibidagi zamburug‘larni fiziologik faoliyatini to‘xtatishga xizmat qilishi, quritilgan paxtaning sterillanishi.

REFERENCES

1. Onarqulov, K. E. (2022). Paxta hom-ashyosini quritishda infraqizil nurlanishning qiyosiy tahlili. Innovatsion texnologiyalar, 1(1 (45)), 65-70.
2. Rahmonberdievich, R. G. (2016). Installation of the IR dryer of raw cotton. European science review, (5-6), 185-186.
3. Rakhmatov, G., & Sobirov, M. (2018). The effect of leading molecules in the spectra of the drying process of fruit vegetable products. Scientific-technical journal, 22(2), 91-94.
4. Рахматов, Г. Р. (2018). Некоторые физические методы сушки сельскохозяйственной продукции. in инновационное развитие и потенциал современной науки (pp. 94-98).
5. Рахматов, Г.Р. (2017). Некоторые изменения в сушке волокна (Doctoral dissertation, Белорусско-Российский университет).
6. Rahmonberdievich, R. G. (2016). Physical principles of dry vegetables fruit products under the influence of Infrared. European science review, (9-10), 203-205.
7. Рахматов, Г.Р. (2016). Влияние импульсного ИК-излучения на процесс сушки и качество волокна хлопка-сырца. European research, (10 (21)), 24-25.
8. Raxmonberdiyevich R.G‘. Infraqizil qurilmada qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini quritish samaradorligi //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 239-242.

O‘QUVCHILARNING KOGNITIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TILNING GRAMMATIK VA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Xalima To’xtayevna Axmedova
Termiz davlat universiteti Fakultetlararo chet tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda tilning grammatik va sintaktik xususiyatlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Tilning grammatik va sintaktik tuzilmalari o‘quvchilarda mulohaza qilish, mantiqiy bog‘liqliklarni tushunish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Maqolada sintaks va grammatika qoidalarining kognitiv jarayonlarga ta'siri hamda pedagogik yondashuvlar muhokama qilinadi. Shuningdek, o‘quv jarayonida interaktiv usullar va ta'lim texnologiyalarining o‘rni alohida qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: kognitiv qobiliyatlar, grammatika, sintaks, mulohaza qilish, mantiqiy bog‘liqliklar, pedagogik yondashuvlar, ta'lim texnologiyalari.

ABSTRACT

This article analyzes the importance of grammatical and syntactic features of the language in the development of students' cognitive abilities. Grammatical and syntactic structures of the language play an important role in the development of students' ability to reason, understand and analyze logical connections. The article discusses the impact of syntax and grammar rules on cognitive processes and pedagogical approaches. Also, the role of interactive methods and educational technologies in the educational process is specially noted.


Keywords: cognitive skills, grammar, syntax, reasoning, logical connections, pedagogical approaches, educational technologies.

KIRISH

Bugungi ta'lim tizimida o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Kognitiv qobiliyatlar — insonning bilish va fikrlash qobiliyatlari bo‘lib, ular o‘quv jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ushbu qobiliyatlarni rivojlantirishda tilning grammatik va sintaktik xususiyatlari, ya'ni til qoidalarini qo‘llash va tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning turli qoidalari orqali o‘quvchilarning mulohaza qilish, tahlil qilish, bog‘liqliklarni tushunish qobiliyati rivojlanadi.

Kognitiv kompetentsiyalarni shakllantirishning metodik ta'minoti, zamonaviy texnologiya bosqichlarida virtual laboratoriyalar, o'quv videomuloqot – videokonferentsiyalarni tashkil etish o'qituvchilarning axborot madaniyatini rivojlantirish, o'quvchilarning ta'limiydasturiy vositalar bilan ishlash layoqatini shakllantirish imkoniyatini yaratadi [1, 277].

Grammatik va sintaktik tuzilmalarning kognitiv rivojlanishga ta'siri:



Tilning grammatik va sintaktik tuzilmalari kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunda quyidagi jihatlar muhim ahamiyatga ega:

1. **Sintaktik tuzilmalarning ta'siri.** Sintaks — bu jumla tuzish qoidalari va unga amal qilish jarayonidir. Uzun va murakkab tuzilmali jumla tuzishga urinish o‘quvchidan fikrlash qobiliyatini talab qiladi. Masalan, murrakab jumla tuzilishi va uni tushunish kognitiv jarayonlarni kuchaytiradi, chunki o‘quvchi jumla qismlari o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni tushunishi kerak bo‘ladi. Sintaktik tuzilmalarning o‘quvchilarning fikrlash va tushunish qobiliyatlariga ijobiy ta’siri bor. Murakkab va uzun jumlalar o‘quvchilarning fikr yurg‘izish jarayonini rivojlantirib, ularning kognitiv malakalarini mustahkamlaydi. Ta’lim jarayonida sintaksning bu xususiyatlaridan samarali foydalanish o‘quvchilarga nafaqat til qoidalarini o‘zlashtirish, balki mustaqil fikr yuritish va mantiqiy bog‘liqlarni chuqur tushunish imkonini beradi.

Murakkab va uzun jumlalarni tuzishga urinish o‘quvchining mulohaza qilish qobiliyatini faollashtiradi. Bu kabi jumlalar mazmunini tushunish o‘quvchidan jumla qismlari orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni anglashni talab qiladi. Misol uchun, jumladagi bo‘laklarning bir-biri bilan aloqasini tushunish orqali o‘quvchi ma’noni to‘g‘ri anglaydi. Bu jarayon o‘quvchilarning sinchkovlik bilan fikrlash, tahlil qilish va ma’lumotlarni boshqarish qobiliyatini kuchaytiradi.

2. **Grammatik qoidalarning kognitiv ta'siri.** Grammatika qoidalari, jumladan, zamonlar, bosh va yordamchi fe'llar, hollar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tushunish o‘quvchilarda ma'lumotni mantiqiy tarzda ishlashga yordam beradi. Grammatika bilimlari orqali o‘quvchilar turli kontekstlarda so‘z va jumla tuzilishini o‘zgartirishni tushunishga erishadilar, bu esa ularning kognitiv qobiliyatlarini kuchaytiradi. Zamonlar, bosh va yordamchi fe’llar kabi grammatika qoidalarining o‘rganilishi orqali o‘quvchilar mantiqiy bog‘liqliklarni chuqur tushunishga erishadilar. Masalan, zamonlar

orasidagi farqlarni anglash o‘quvchiga jumlada sodir bo‘layotgan harakatning vaqtini aniqlash imkonini beradi. Bu esa ularning o‘qiyotgan matn yoki gapni to‘g‘ri anglashiga, har bir so‘z va fe’lning vaqt doirasini aniqlashga yordam beradi. Jumladagi bosh va yordamchi fe’llarning birgalikdagi o‘rni esa o‘quvchiga harakatning shakl va mazmunini anglash imkonini beradi, bu esa ma’lumotlarni tizimli ravishda tushunishga yordam beradi.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda tilning roli

Til o‘rganish jarayonida o‘quvchilar fikrlash, mantiqiy bog‘liqliklarni tushunish va tizimlashtirish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Bunda grammatik va sintaktik tuzilmalarni chuqur o‘rganish quyidagi jihatlarda ahamiyatlidir:

1. **Mulohaza qilish va tahlil qilish qobiliyati.** Grammatik va sintaktik tuzilmalarni qo‘llash orqali o‘quvchilar jumla tuzish va undagi bog‘liqliklarni tushunishga o‘rganadilar. Bu, o‘z navbatida, mulohaza qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

2. **Kognitiv muammolarni yechish qobiliyati.** Muammoli vaziyatlarda grammatik qoidalarni qo‘llash va sintaktik tuzilmalarni tushunish orqali o‘quvchilar muammolarni yechishga yordam beruvchi fikrlash tizimini rivojlantiradilar. Bu jarayon ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini ham oshiradi.

Ma'lumotni qayta ishlash va xotirani rivojlantirish

Grammatik tuzilmalarni yodlab olish orqali o‘quvchilar xotiralarini rivojlantiradilar. Bu jarayon ma'lumotni mantiqiy bog‘lash va tizimlashtirishga yordam beradi, bu esa kognitiv qobiliyatlarni yanada mustahkamlaydi.

Pedagogik yondashuvlar

O‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda grammatik va sintaktik qoidalarni amaliyotga tatbiq etish muhimdir. Pedagoglar ushbu jarayonda quyidagi yondashuvlardan foydalanishlari mumkin:

- **Mashqlar va o‘yinlar**: Grammatik va sintaktik tuzilmalarga asoslangan mashqlar, masalan, tushuntirish, tajriba orqali o‘rganish, interaktiv o‘yinlar kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiradi.
- **Hamkorlikda o‘rganish:** Guruh bo‘lib amalga oshiriladigan mashqlar, baho berish jarayonida mulohaza qilish va ma'lumotni qayta ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

XULOSA

Tilning grammatik va sintaktik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga sezilarli darajada yordam beradi. Grammatik va sintaktik qoidalarni to‘g‘ri tushunish orqali o‘quvchilar nafaqat tilda, balki hayotiy

jarayonlarda ham muammolarni mantiqiy yechish va ma'lumotni to‘g‘ri qayta ishlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Bunda pedagogik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanganligi muhim bo‘lib, ushbu jarayonda interaktiv usullardan foydalanish o‘quv jarayoni samaradorligini oshiradi.

REFERENCES

1. Babayeva Xulkaroy Usmonning Qizi (2023). O'QUVCHILARDA KOGNITIV KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH. Science and innovation, 2 (Special Issue 4), 278-281. doi: 10.5281/zenodo.7930867
2. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – с. 246; Espersen O.A. Modern English Grammar. – London, – p. IV.
3. Victoria N. Webster’s New World Dictionary / N. Victoria. Third college Edition, 1988. – p. 1048.
4. Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь / Л.Л. Нелюбин. – М.: Изд–во МПУ “Народный учитель”, 2001. – с. 132.
5. Karshieva, B. F. (2023). The current state of teaching English to technical students, methodological approaches " *Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar" mavzusida Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya*, *4*, 135-138.

TRANSLATION OF TEXTS RELATED TO POPULAR SCIENTIFIC LITERATURE: LINGUISTIC ASPECTS

Dilnoza Bakhtiyor kizi Bobokulova
Lecturer, Department of Interfaculty foreign languages, Termez State University
dilnozabobokulova9595@mail.ru

ABSTRACT

This article examines the linguistic aspects of translating texts related to popular scientific literature. It highlights the importance of understanding linguistic features, such as terminology, syntax, and stylistic elements, to achieve effective translations. Through a comparative analysis of original texts and their translations, the study identifies common challenges and offers strategies for overcoming them, ultimately contributing to better communication of scientific knowledge to a wider audience.

Keywords: Popular scientific literature, Linguistic aspects, Terminology, Syntax, Stylistic elements, Comparative analysis, Communication, Scientific knowledge, Cross-cultural dissemination

Introduction

Popular scientific literature serves as a bridge between complex scientific concepts and the general public. The role of translation in this context is crucial, as it facilitates the dissemination of knowledge across linguistic and cultural boundaries. However, translating popular scientific texts presents unique challenges, particularly concerning linguistic aspects. The intricacies of terminology, the structure of sentences, and the stylistic choices made by authors all influence how effectively the information is communicated. This article aims to explore these linguistic aspects, highlighting their significance in the translation process. The translation process is a creative activity. For inexperienced professionals, it can cause difficulties, since there are original approaches, i.e. going beyond certain limits, leading to the loss of the translation status. In ambiguous cases, translation techniques allow one to act within the framework of the relevant rules. At the same time, a single model (approach) can't reflect all aspects of the phenomenon under study in all its complex interconnections and relationships. Each model carries out the modeled process in a different way; they are not mutually exclusive. On the contrary, there is a lot of overlap, models partially intertwine and only in their totality give an idea of the translation process in all its complexity and diversity [4,514].

Methods

The study employs a qualitative approach, analyzing a selection of popular scientific texts and their translations in various languages. The texts were chosen based on their accessibility and popularity among readers. A comparative analysis was conducted, focusing on key linguistic features, including:

1. Terminology: The use of specialized vocabulary and its adaptation for the target audience.

2. Syntax: The structure of sentences and the complexity of grammatical forms.

3. Stylistic Elements: The author's tone, style, and figurative language.

The analysis involved identifying discrepancies between the original texts and their translations, examining how these discrepancies impact the overall understanding of the scientific content.

Results

The findings reveal several key challenges and considerations in the translation of popular scientific literature:

1. Terminology: One of the primary challenges is the accurate translation of scientific terms. Many specialized terms may not have direct equivalents in the target language, necessitating the use of explanations or adaptations. This can lead to misunderstandings or oversimplifications of complex concepts.

2. Syntax: The structure of sentences in popular scientific literature often varies significantly across languages. For instance, English may favor longer, more complex sentences, while other languages may prefer shorter, more direct constructions. Translators must navigate these differences to maintain clarity and coherence in the translated text.

The syntax of a text significantly influences how information is conveyed and understood. Popular scientific literature often employs a variety of sentence structures, ranging from simple to complex, which can pose challenges during translation.

For example, English often uses longer, more elaborate sentences with multiple clauses to express intricate ideas. In contrast, other languages may favor shorter, more straightforward sentence constructions. Translators must navigate these differences to ensure that the translated text retains clarity and coherence.

Moreover, the complexity of grammatical forms, such as the use of passive voice or conditional statements, can also vary across languages. A direct translation might result in awkward phrasing or a loss of meaning. Therefore, the translator must adapt the syntax to suit

the grammatical conventions of the target language while preserving the original intent of the author.

Stylistic Elements: The tone and style of the original text are essential for engaging the reader. Translators must balance fidelity to the source text with the need to create an appealing and accessible translation. This often involves making stylistic adjustments while ensuring that the scientific integrity of the content is preserved. The stylistic elements of a text, including the author's tone and use of figurative language, play a crucial role in engaging the reader. In popular scientific literature, the author's style is often more conversational and accessible than in traditional scientific writing, making it essential for translators to capture this tone in their translations.

Translators must also consider the use of metaphors, similes, and other figurative language. These elements enhance the readability of the text but can be particularly challenging to translate. A metaphor that works well in one language may not have the same impact in another. Therefore, translators must find equivalent expressions that convey the same meaning and emotional resonance without losing the author's original intent.

Maintaining the author's tone and style is vital for ensuring that the translation feels authentic and engaging to the target audience. This often requires a delicate balance between fidelity to the source text and the need to create a translation that resonates with readers.

Discussion

The translation of popular scientific literature requires a nuanced understanding of linguistic aspects that go beyond mere word-for-word translation. Translators must possess not only linguistic proficiency but also a deep familiarity with the subject matter. This dual expertise enables them to convey complex scientific ideas effectively while considering the target audience's needs and expectations.

Furthermore, collaboration between scientists, authors, and translators can enhance the translation process. By involving subject matter experts, translators can ensure that the translated texts accurately reflect the scientific content, fostering better communication and understanding among readers.

In analyzing the translation process, it is crucial to identify discrepancies between original texts and their translations. These discrepancies can arise from challenges in terminology, syntax, and stylistic choices. For instance, a translation that simplifies scientific terms may make the content more accessible but could also lead to misunderstandings or oversimplifications of complex ideas.

Examining these discrepancies provides valuable insights into how they impact the overall understanding of scientific content. A translation that fails to adequately convey the nuances of the original text may hinder readers' comprehension and appreciation of the subject matter. Conversely, a well-executed translation can enhance understanding and engagement, fostering a deeper connection between the reader and the scientific concepts presented.

Conclusion

Translating texts related to popular scientific literature presents unique linguistic challenges that necessitate careful consideration of terminology, syntax, and stylistic elements. By recognizing and addressing these aspects, translators can enhance the accessibility and clarity of scientific knowledge for diverse audiences. The collaborative approach involving scientists and translators can further improve the quality of translations, ultimately promoting a more informed public discourse on scientific issues.

REFERENCES

1. Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
2. Chesterman, A. (1997). *Memes of Translation: Arguments For and Against.* John Benjamins Publishing Company.
3. Gile, D. (2009). *Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training*. John Benjamins Publishing Company.
4. Maksymenko, Liudmyla & Shostak, Uliana & Trebyk, Olha & Kostyk, Yevheniia & Malynka, Yuliia. (2023). Features of Translating Scientific Texts into English. World Journal of English Language. 13. 514. 10.5430/wjel.v13n5p514.
5. Karshieva, B. F. (2022). Methodology and pedagogical practice-test result of organization of pedagogical training. *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 135-138.
6. Fakhriddinovna, K. B. (2023). The current state of teaching english to technical students, methodological approaches: the current state of teaching english to technical students, methodological approaches.
7. Karshieva, B. F. (2023). Methodological model of teaching technical students in english on the basis of integrated bilingual education. In *interdiscipline innovation and scientific research conference* (Vol. 1, No. 9, pp. 58-60).

ENERGETICALLY INVESTIGATING AND BIOLOGICAL EFFECTS OF ALPHA RAYS IN HUMAN BODY

Ziarmal Mawla Khan
[1]Ph.D. Student at the Institute of Engineering and Digital Technologies, Belgorod State National Research University, Belgorod, Russia
Corresponding Author: m.ziarmall@gmail.com

Haand Qadirullah
Department of Biology, Faculty of Education, Shaikh Zayed University, Khost Afghanistan
Qadirullah.H1986@gmail.com

Abid Rahmatullah
Department of Biology, Faculty of Education, Shaikh Zayed University, Khost Afghanistan
Rahmatullahabid100@gmail.com.

ABSTRACT

This study examines the impact of ionizing radiation, particularly alpha particles, on human cells and molecules, with a focus on DNA damage. Alpha particles, although unable to penetrate the skin, pose significant health risks when inhaled, swallowed, or entered the body through a cut, causing severe damage to sensitive living tissue. The experiment involved measuring alpha particle interactions with human cells, revealing that even low doses of radiation can cause significant biological changes, including mutations that may lead to cancer in the current or future generations. According to the comparison of the energy of radio-active radiation, alpha rays cannot pass through ordinary paper. Accordingly, in our experimental procedure and method, we first record alpha particles without radio-active nucleus, and then we use radio-active nucleus that emit alpha rays. has taken into consideration. According to the relevant data, we have drawn graphs and obtained alpha ray energy in air $E_{\propto max} = 3.407\ Mev$ and distance $R_0 = 1{,}99mm$.The results indicated that alpha particles induce DNA double-strand breaks (DSBs) in the nuclei of peripheral blood mononuclear cells (PBMCs), underscoring the necessity for stringent radiation protection measures. This study highlights the critical need for understanding radiation-induced damage mechanisms to develop effective prevention and treatment strategies for radiation-related health issues.

Keywords: Alpha Particles, Radiation Effects, dose energy of radiation, biological effects; determination of length path and energy of α particles.

Introduction

The emission of ionizing radiation from any source such as X-rays, radioactive nucleus, Antiproton beam, Neutron(n) and Meson ($\pi^{\pm}$), causes ionization and excitation of electrons in the atom, resulting in the transfer of energy to tissues Fig. 1. The given energy can easily cause the molecule to change. As a result, the change of molecules in the body becomes the cause of dangerous events. The human body has a very closed and complex structure including many organs, each of which is made up of one or more closed tissues. There are many elements in the same tissues and cells, and these elements include, for

example, oxygen, hydrogen, sulfur, phosphorus, carbon, and water, and radiation has a specific effect on each element [1].




Fig. 1. Interaction Antiproton and Alpha ray with human body.

The relationship indicates that if the dose level of radiation energy increases, then as a result, the biological, clinical, and physical effects of radiation in the whole body or each part of the body are caused in two ways [2].

1. Random effects: For example, there is a possibility that a very low energy dose with a value of zero to two hundred millisieverts $(0-200msv)$ can cause a biological and pathological change in the tissues in the future and bring up the following effects.

- At a very low energy dose, 0-200msv, that is, in the limit of $0\ to\ 200$ millisieverts, there is a high probability of this radiation damage.
- There is no specific limit (attack) for radiation energy dose, but it can induce mutations in DNA. Because of this, defective cells of the body or defective cells of the gene are formed, as a result, cancer can occur in the current generation or the next generation.
- The damage occurs suddenly and therefore cannot be predicted.
- The degree of damage is not subject to the radiation energy dose, but the probability and frequency of occurrence are directly related to the energy dose.
- The last stochastic loss of body cells is blood cancer (Leukemia), which has a high rate of occurrence after eight years, and other cancers such as lung, thyroid, and breast cancer, etc., which have a high rate of occurrence. It occurs after about 20 to 30 years.
- The final harm of genetic stochasticity, which results from mutation, is hereditary disease such as the birth of disabled children (Malformatiol) or other diseases [2,3].

2. Non-random or deterministic effects: The non-random or deterministic effects of radiation is not a statistical phenomenon, it can occur when the energy dose exceeds a certain limit, then after this stage as a result of the pathological effects, the severity of the disease increases according to the energy dose, for example, for the skin, this level has been revealed at a little six grams $(6Gy)$. An example of this effect is:

- Erythem
- Cataract

If an energy dose of less than six grams $(6Gy)$ reaches the skin of $10cm^2$of the body at one time, no clinical adverse effect appears, but when the energy dose level is equal to or higher than six grams, the skin color first appears. In this stage, it becomes red (Erythem) and if it exceeds this value, then the skin burns and causes the skin to die or necrosis (Necrosis) [3].

Effects of radiation on body molecules

The human body is made up of molecules and atoms, these molecules and atoms interact with radiation and the atomic composition of the body determines the degree of interaction. Proteins, fats, sugars, and nucleic acids are very large molecules, some of which are composed of hundreds of atoms. One of these molecules inside the nucleus is DNA, which is the most basic molecule and the most critical molecule due to the effects of radiation Fig. 2. Another molecule that is most included in the vital substance is nucleic acid with metabolic value, DNA, RNA. RNA is mainly divided into two types, mRNA and tRNA, in the cytoplasm of the cell, each of which has different biochemical characteristics and different roles. The diagram below shows the structure of DNA, RNA, and the expression of its components.




Fig. 2. Interaction of molecules inside the nucleus is DNA.

DNA is made up of different types of sugars and phosphates, and each sugar molecule has one of four nitrogen-containing special bases, which are adenine, guanine, thymine, and cytosine. On the type of spring, it is complicated as in the above form. It should be noted that when biological macromolecules come under radiation bombardment in an external living environment, approximately $10kGY$ radiation can cause physical changes in it, while these molecules are alive. A cell bombarded with only about $50\ mGy$ of radiation can produce measurable biological reactions. The nucleus is more sensitive than the cytoplasm. A dose of $1Gy$ radiation is required to kill the nucleus of a cell. Meanwhile, $10GY$ radiation can do the same thing on the cytoplasm [4].

Effects of radiation on cells

In females, the sex cells include the Oogonium. In males is Spermatogonium. The remaining cells of the human body are somatic. Body cells range from $3\ to\ 100$ microns in diameter and each cell are made up of approximately 10^{14}atoms. At the time of birth, the body cells are approximately 3.10^{12}, so when it reaches adulthood, the number of cells in all tissues reaches 4.10^{3}. It creates members and then members create the system. Such as the nervous system, digestive system, endocrine system, reproductive system, and so on.

All organs of the body have different sensitivities to radiation. These sensitivities are related to the function and growth of organs, and exposure to cells and organs is also related to personal sensitivity. In 1906, two French scientists named Bergonie and Tribondeau explained that the sensitivity of visible tissues to radiation is

subject to metabolic activity and consequently described the sensitivity of living tissue to radiation as follows [1].

- The immature cell is more sensitive to radiation than the mature cell.
- Young tissues and organs are very sensitive to radiation.
- The higher the metabolic rate, the higher the sensitivity.
- The more the amount of cell reproduction and tissue growth increases, the more sensitive it is to radiation.

The adverse biological effects of radiation on a cell are as follows

- Chromosomal aberration.
- Induction of cancer.
- Induction of somatic mutation in body cells.
- Birth of disabled children.
- Induction of cell killing.
- Weakening of the body's immune system.
- Sudden impacts occur below about 250 milliseconds $< 250msv$.
- Non-accidental effects such as radiation sickness are most likely to occur when the radiation level exceeds 250 millisieverts $> 250msv$ [1-3].

DNA (Deoxyribonucleic acid) and radiation response

There are forty-six chromosomes in every single cell of the human body, in which all the genetic material and hereditary information are safely stored. One of the most important parts of chromosomes is the Deoxy ribonucleic acid molecule. Deoxy rib nucleotide is made up of a double helix. It consists of nitrogen (base), sugar or sugar, and phosphate group from Uracil (U=Uracil). The bases of DNA molecules such as adenine, guanine, cytosine, thymine, and uracil are connected with the help of hydrogen bonds. Human DNA is two meters long and two nanometers (one billionth of a meter) wide. In 2001, the human genetic code was published and it was revealed that there are about 30,000 30,000 embryos. The response of ionizing radiation to the cells of the body is very bad when it hits the DNA of the chromosomes because all the genetic information of a cell's life is kept safe in the DNA molecule Fig. 3.

- The breaking number of a twisted wire of this NA is proportional to the square of the radiation dose.
- The number of breaks in both DNA strands is directly proportional to the radiation dose.
- The chemical bonds that bind the strands of each protein and DNA molecule to each other are destroyed.




Fig. 3. Direct and indirect effect with DNA.

Today, scientists at the international level have presented two types of models that indicate the harmful effects of ionizing radiation on DNA [5].

The first model: when an ionizing particle hits DNA, it loses some of its energy during the passage, which causes the DNA to cut both strands at once. strand breaks DOUBLE) In this model, the DNA number (N) of the broken DNA is directly proportional to the radiation energy dose D.

The second model: When two ionizing particles that have nothing to do with each other and specifically hit the DNA, each of them can transfer enough energy to the helix, resulting in this model, the DNA number N of the DNA of the tumor is directly proportional to the square D of the radiation energy dose. The average number of DNA fragments N in a cell, which occurs as a result of the radiation energy dose D response, can be obtained from the following equation. Radiation is related to the chemical radicals in the environment of the cell and the way the absorbed energy is dissipated there. Tests have shown that if the ionizing radiation hits the DAN molecule of the healthy cells of the body and cuts the double helix, it can most likely lead to the emergence of cancer cells Fig. 4 [1].




Fig. 4. Increases cancer cells during interaction Alpha ray with DNA.


Experiment

To obtain the total number of particles, it is necessary to divide the registered number of particles by the correction, let's take this from Table 1.

$x/r0$	0.1	0.2	0.4	0.5	0.6	0.8	1.0	1.25	1.5
Correction	0,286	0,253	0,197	0,175	0,158	0,127	0,102	0,080	0,062

Table.1

Where x is the distance between the detector window and α −preparation, r_0 is the radius of the detector window [5]. Experimental was carried out on the installation, a schematic view is shown in $Fig.5$.



$Fig.5$. Schematic diagram of the installation. 1- Indicator, 2- Button "Setting", 3 and 4- buttons (+, -), 5-reset, 6-start and stop, 7- Counter block, 8- Curtain, 9-line with a scale, 10-source Alpha particle [3].

To determine the path length of Alpha particles, we obtained the average Background ($\overline{N}$), with a time sweep of $t = 300\ Sec.$

$$\overline{N} = \frac{57+57+65}{3} = 66$$

Here, each time we increase the distance between the source and the detector by $1mm$, remember that here the distance between the source and the detector is $1mm$, and the distance inside the detector itself is $5mm$, $Fig.5$, it turns out to be $7mm$. with a time-base $t = 1\,mim, 2min, 3min$ etc. we multiply the distances by 5, $^5/_2$, $^5/_3$etc. We got a $table.2$.

Time(t)	Distance (x)	Number of particles (N)	Particles – average Background x Time	Result
60Sec	7+0=7 mm	2376	2376-66x5=11550	11550
60 Sec	7+1=8mm	2081	2081-66x5=10075	10075
60 Sec	7+2 =9mm	1710	1710-66x5=8220	8220
60 Sec	7+3 =10mm	1229	1229-66x5=5815	5815
60 Sec	7+4=11mm	762	762-66x5=3480	3480
120 Sec	7+4=11mm	1644	1644-66x2,5=3945	3945
120 Sec	7+5=12 mm	1028	1028-66x2,5= 2405	2405
120 Sec	7+6=13 mm	637	637-66x2,5=1427,5	1427,5
180 Sec	7+6=13 mm	942	942-66x1,666=1459	1459
240 Sec	7+6=13 mm	1298	1298-66x1,25=1540	1540
240 Sec	7+7=14 mm	947	947-66x1,25=1101	1101
300 Sec	7+7=14 mm	1206	1206-66x1=1140	1140
300 Sec	7+8=15 mm	721	721-66x1=655	655
300 Sec	7+9=16 mm	452	452-66x1=386	386
300 Sec	7+10=17 mm	280	280-66x1=214	214
300 Sec	11mm+7mm=18mm	185	185-66x1=185-66	119
300 Sec	12mm+7mm=19mm	146	146-66x1=146-66	80
300 Sec	13mm+7mm=20mm	93	93-66x1=93-66	27
300 Sec	14mm+7mm=21mm	85	85-66x1=85-66	19
300 Sec	15mm+7mm=22mm	98	98-66x1=98-66	32
300 Sec	16mm+7mm=23mm	82	82-66x1=82-66	16
300 Sec	17mm+7mm=24mm	79	79-66x1=79-66	13
300 Sec	18mm+7mm=25mm	85	85-66x1=85-66	19

Table.2

We need to get the real particle number and we need to get r_0 and the correction from the equation.

$$r_0 = \sqrt{\frac{S}{\pi}} = \sqrt{\frac{a.b}{\pi}} = \sqrt{\frac{30mm.18mm}{3,14}} = 13,11mm = 1,311cm$$

$$\text{Correction } (y) = 0.1002(x/r_0)^2 - 0.3139(x/r_0) + 0.3116$$

x/r_0	Correction (**y**)	**Number of particles** (**N**) ÷ Correction (**y**)	Result
7÷ **13, 11** ≅0,533	0,173	11550÷ 0,173	66763
8÷ **13, 11** ≅0,610	0,158	10075÷ 0,158	63765
9÷ **13, 11** ≅0,686	0,144	8220÷ 0,144	57083
10÷ **13, 11** ≅0,763	0,131	5815÷ 0,131	44389
11÷ **13, 11** ≅0,839	0,120	3480÷ 0,120	29000
11÷ **13, 11** ≅0,839	0,120	3945÷ 0,120	32875

12÷ **13, 11** ≅0,915	0,083	2405÷ 0,083	28975
13÷ **13, 11** ≅0,991	0,100	1427,5÷ 0,100	14275
13÷ **13, 11 ≅ 0, 991**	0,100	1459÷ 0,100	14590
13÷ **13, 11** ≅0,991	0,100	1540÷ 0,100	15400
14÷ **13, 11** ≅1,0678	0,093	1101÷ 0,093	11838
14÷ **13, 11** ≅1,0678	0,093	1140÷ 0,093	12258
15÷ **13, 11** ≅1,144	0,086	655÷ 0,086	7616
16÷ **13, 11** ≅1,220	0,080	386÷ 0,080	4825
17÷ **13, 11** ≅1,296	0,076	214÷ 0,076	2815
18÷ **13, 11** ≅1,372	0,0729	119÷ 0,0729	1632
19÷ **13, 11** ≅1,449	0,055	80÷ 0,055	1454
20 ÷ **13, 11** ≅1,525	0,069	27÷ 0,069	391
21÷ **13, 11 ≅ 1, 601**	0,070	19÷ 0,070	27
22÷ **13, 11** ≅1,678	0,071	32÷ 0,071	450
23÷ **13, 11** ≅1,754	0,073	16÷ 0,073	219
24÷ **13, 11** ≅1,830	0,077	13÷ 0,077	168
25÷ **13, 11** ≅1,906	0,082	19÷ 0,082	231

Table.3

Results

To correct, the error of which is received by the detector, we use the correction in Table 1. In this experiment, the results were obtained in Table 3, and from this, the results plotted the correction in Fig. 6.




Fig. 6 Correction

Now the number of received particles for correction and built the following graph Fig. 7. d. There is no correction in this chart either. With corrected values, it is necessary to obtain $dN/dx$to the transmission curve of α - particles in Fig.7. e.




Fig.7. d) Graph of the number of particles received with correction, e) Graph of the passage of Alpha particles through the air without correction.

The values for obtaining energy are maximum at $x = 2$ and minimum at $x = 1$ are shown in Fig.7.e and we obtain the energy of alpha particles from these equations.

$$E_{\propto min} = \left(\frac{R_{min}}{0.318}\right)^{2/3} = \left(\frac{1}{0.318}\right)^{2/3} = 2.146\ Mev$$

$$E_{\propto max} = \left(\frac{R_{max}}{0.318}\right)^{2/3} = \left(\frac{2}{0.318}\right)^{2/3} = 3.407\ Mev$$

Since the energy is less than $4\ MeV$, we use Fig.7. e. It can be seen that at $x = 1$ the energy is $2.146\ MeV$, and at $x = 2$ the energy is $3.407\ MeV$.

DISCUSSION AND CONCLUSIONS

Alpha radiation has bad effects, it breaks the DNA strand and therefore the cell is destroyed or it survives and sustains its sleep, but its defect is wrong like mutation. remains Although these cells are regenerated by some specific enzymes, the small number that remain incorrect are likely to turn into cancer cells in the long run [3].

For example, within four hours, 97% of the 2,000 broken helix strands of DNA can be repaired. Mutated cells, which cause cancer, cause these cells to forget the other properties of the cell and the genetic code program set during survival and continue the process of mitosis on their own. Normally, in normal cells, the process of division or mitosis is done under a certain program and control according to the work and need of that organ. On the other hand, the body's immune system can recognize any defective cell as a tumor, so it destroys it with the help of certain cells such as macrophages [2].

If a strand of a chromosome is cut by radiation, the body has mechanisms, such as repair enzymes and certain proteins, to copy the broken DNA from one strand of DNA and replace it with the broken strand. connect and with the help of such a genetic technology, this defect can be eliminated again, but when both lines of chromosomes are cut once due to any reason, the probability of complete restoration is very low and it may be after many years. This cell turns into a cancer cell. If we assume that this damage reaches the sex cells of the body in the form of mutation, then this defect can occur in every single cell of the body of the children of the next generation. It means that if a person has been exposed to a very low level of nuclear radiation, for example, around a few millimeters of radiation, there is still a possibility that his children will be born with disabilities and

diseases, for example. Absence of eyes, trisomy 11, increased water in the skull or (Hydrocephalus), lack of organs blood cancer, and other diseases. The cutting edge is directly related to the equivalent energy line [1-5].

We have obtained the curve of the passage of $\alpha - particles$ through the air Fig. 4.e, determined the length of the mean path $R_0 = 1{,}99mm$ and the energy of $\alpha - particles\ E_{\propto max} = 3.407\ Mev$. Consequently, the α-particles induce DNA double-strand breaks (DSBs) in the nuclei of the hit peripheral blood mononuclear cell (PBMC) [7, 8, 9].

REFERENCES

1. В.В.Сыщенко, Медицинская физика для начинающих ионизируюшие излучения, Москва ижевск, 2018,С 79-163.
2. Бяков В.М.: Степанов С.В.К механизму первичного биологического действия ионизирующих излучений //УФН176, No 5 (2006) 487-506.
3. Кудряшов Ю.Б. радиационная биофизика (ионизирующие излучения), - М.: ФИЗМАТЛИТ, 2004.
4. Ярмоненко С.П. радиобиология человека иживотных.- М.: Высшая школа,1988.
5. Физика атомного ядра и частиц, Студопедия, https://pandia.ru/text/78/391/86455.php.
6. Radiation Protection: Radiation Basics [Electronic resource]//URL: https://www.epa.gov/radiation/radiation-basics#:~:text=Inside%20the%20body%2C%20however%2C%20they,than%20other%20types%20of%20radiatio. EPA.gov, July 18, 2023 [website]. (Accessed: 10.06.2024).
7. L Göring, S Schumann, J Müller, AK Buck, M Port, M Lassmann, H Scherthan, U Eberlein. Repair of α-particle-induced DNA damage in peripheral blood mononuclear cells after internal ex vivo irradiation with ^{223}Ra. European Journal of Nuclear Medicine and Molecular Imaging, 2022.
8. Nikitaki Z, Nikolov V, Mavragani IV, Mladenov E, Mangelis A, Laskaratou DA, et al. Measurement of complex DNA damage induction and repair in human cellular systems after exposure to ionizing radiations of varying linear energy transfer (LET) Free Radic Res. 2016.
9. Hada M, Georgakilas AG. Formation of clustered DNA damage after high-LET irradiation: a review. J Radiat Res. 2008.

CHET TILINI O‘QITISHDA VA MUSTAQIL TA’LIMDA O‘QITUVCHINING PSIXOLOGIK TA’MINOTI ZARURIYATI HAMDA AFZALLIKLARI

Umida Imomova
Pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD), Termiz davlat universiteti
E-mail: umida@tersu.uz
ORCID: 0009-0000-8183-5736

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chet tilini o`qitishda va mustaqil ta’lim jarayonida o‘qituvchining psixologik ta’minoti zaruriyati va uning samaradorligi o‘rganiladi. Mustaqil ta’lim faoliyatida o‘qituvchilar ko‘pincha ortiqcha stress va emotsional bosimni boshdan kechiradi, bu esa ular tomonidan taqdim etilayotgan ta’lim sifatiga ta’sir qilishi mumkin. Mazkur maqolada psixologik ta’minot usullari va afzalliklari, o‘qituvchilarning emotsional sog‘lig‘ini saqlash va ta’lim jarayonidagi samaradorlikni oshirish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, psixologik ta’minot, o‘qituvchilar, stress boshqarish, emotsional salomatlik.

ABSTRACT

This article examines the need for psychological support of the teacher during independent education and its effectiveness. In independent educational activities, teachers often experience excessive stress and emotional pressure, which can affect the quality of education provided by them. This article analyzes methods and benefits of psychological support, methods of maintaining teachers' emotional health and increasing efficiency in the educational process.

Keywords: independent education, psychological support, teachers, stress management, emotional health.

KIRISH

Ta’lim tizimida mustaqil ta’lim modeli tobora keng joriy etilib, o‘qituvchilarni o‘quv jarayonida yangi metodlardan foydalanishga, o‘quvchilarga mustaqil fikrlash imkoniyatini berishga undamoqda. Mustaqil ta’lim sharoitida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘nalish ko‘rsatuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo bu jarayonda o‘qituvchilar ortiqcha ish yuklamasi, psixologik stress va bosim kabi qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Shu sababli, psixologik ta’minotga ehtiyoj kuchayadi. Mustaqil ta’lim jarayonida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini yo‘naltiruvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa ularga yangi majburiyatlar va yuqori darajada mas’uliyat yuklaydi. Shuningdek, ta’limda natija olishga yo‘naltirilgan bosim ham ularda ortiqcha stressni keltirib chiqarishi mumkin.

Stressning yuqori darajasi o‘qituvchilarning motivatsiyasini kamaytiradi va faoliyat sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun psixologik ta’minot o‘qituvchining stress bilan samarali kurashishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchilar uchun psixologik ta’minotning zarurligi va afzalliklari katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu ularning samaradorligi va kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi. Stressni boshqarish texnikalari va psixologik yordam xizmatlari orqali o‘qituvchilar nafaqat o‘zlarining, balki o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonida ham yuqori natijalarga erishadilar. Shu bilan birga, mustaqil ta’limda psixologik qo‘llab-quvvatlashning tizimli ravishda amalga oshirilishi o‘qituvchilarning ruhiy va hissiy barqarorligini mustahkamlashga katta ko‘mak beradi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada psixologik ta’minot zaruriyati va afzalliklarini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlar va tajribaviy kuzatishlar tahlil qilindi. Maqolada stressni boshqarish texnikalari, ta’limda motivatsiyani saqlash va o‘qituvchi uchun psixologik yordam xizmatlaridan foydalanish kabi omillar ko‘rib chiqiladi.

Hozirgi zamon o1qituvchisi o1z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni, hamda turli fan yo‟nalishlari bo`yicha maxsus bilimlarga ega bo`lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarni egallagan, ta`lim muassasalarida faoliyat ko‟rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan hozirgi kunda quyidagi burch va masuliyatlar o`qituvchilardan talab qilinadi:

- O`qituvchi eng avvalo masuliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyatva ma`rifat targ`ibotchisidir.

- O`qituvchi tabiatan o`quvchilarni seva olishi, o`z mehrini, his-tuyg`ularini har lahzada o`quvchilar ichki dunyosi bilan bog`lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo`lishi kerak.

- O`qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro`y berayotgan o`zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o`quvchilarga to`g`ri, asosli ma`lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

- Zamonaviy o`qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo`lib borishi talab etiladi. O`qituvchining o`rni va uning vazifalari, o`sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e`tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi aniqlanadi [6, 318].

NATIJALAR

O‘qituvchilarning mustaqil ta’lim jarayonidagi psixologik ta’minoti quyidagi natijalarga erishishda muhim rol o‘ynaydi:

1. Stress darajasini kamaytirish. Mustaqil ta’limda talab qilinadigan yuqori darajadagi faoliyat o‘qituvchilarning stress darajasini oshiradi. Psixologik ta’minot xizmatlari va stressni boshqarish texnikalari esa ularning stress darajasini sezilarli darajada kamaytiradi.

2. Emotsional barqarorlik va sog‘liqni saqlash. Psixologik yordam o‘qituvchilarning emotsional sog‘lig‘ini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ular tomonidan ta’lim jarayonida yuqori sifatli faoliyat ko‘rsatishiga zamin yaratadi.

3. Ta’lim samaradorligi oshishi. O‘qituvchilarni emotsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash ularning mustaqil ta’lim jarayonida eng yuqori samaradorlikka erishishiga yordam beradi. Buning natijasida o‘quvchilarning bilim darajasi va ta’limga bo‘lgan qiziqishi oshadi.

4. Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari. Psixologik ta’minot, jumladan, motivatsiya va professional rivojlanishga doir treninglar o‘qituvchilarning kasbiy jihatdan o‘sishlariga yordam beradi va ularning faoliyatidagi yangi yutuqlarga erishishga turtki beradi.

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida psixologik ta’minot muhim ahamiyat kasb etadi. Motivatsiya va professional rivojlanishga yo‘naltirilgan treninglar ularning o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirishlariga katta yordam beradi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida yangi yutuqlarga erishishga, innovatsion ta’lim metodlarini o‘zlashtirishga va darslarda samaradorlikni oshirishga turtki oladilar.

Kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini ta’minlash uchun turli xil trening va seminarlar o‘tkazilishi mumkin. Bu treninglarda o‘qituvchilar stress va bosimlarni boshqarish, samarali muloqot o‘rnatish, hamkasblar bilan hamkorlikni mustahkamlash kabi qator psixologik va professional ko‘nikmalarni o‘rganadilar.

Mustaqil ta’limda o‘qituvchilarning psixologik ta’minotiga e’tibor qaratilishi kerak, chunki bu ularning stressni boshqarish, emotsional barqarorlikni saqlash va o‘z kasbiy faoliyatlarini samarali tashkil etishlariga yordam beradi. Psixologik ta’minot xizmatlari va qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari orqali o‘qituvchilar o‘zlarini yaxshi his qilishadi, bu esa o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, emotsional barqarorlik ularning shaxsiy rivojlanishlari uchun ham muhimdir, bu o‘qituvchining motivatsiyasi va qiziqishini saqlab qolish imkonini beradi.

XULOSA

O‘qituvchilarning psixologik ta’minoti mustaqil ta’limda muhim omil hisoblanadi. Bu nafaqat ularning emotsional va ruhiy salomatligini yaxshilash, balki ta’lim jarayonida sifatli xizmat

ko‘rsatishiga ham ijobiy ta’sir qiladi. Mustaqil ta’lim jarayonida o‘qituvchining psixologik ta’minotiga e’tibor qaratish orqali ular ko‘rsatayotgan ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarga yanada samarali bilim berish mumkin. Shunday ekan, ta’lim muassasalari o‘qituvchilarga qo‘llab-quvvatlovchi psixologik xizmatlarni tashkil qilishlari va ularning kasbiy faoliyatini doimiy ravishda yuksaltirib borishlariga ko‘maklashishlari lozim.

REFERENCES

1. Abduqodirov A. Ta’limda innovasion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.
2. Азизходжаева Н. н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учебное пособие для магистратуры всех специальностей.-Т.:ТГПУ, 2003.-193 стр.
3. Алексеева Н.А. Формирование креативной коммуникативности будущего специалиста в прцессе обучения иностранным языкам:дисс. канд. псих. наук, Новгород, 2008. 232 стр.
4. Alimov A.A. *Uzluksiz ta’lim tizimi o’qituvchilarining innovasion faoliyatini shakllantirish usullari // Xalq ta’limi*. -Toshkent, 2015. – №6, – B. 74-78.
5. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании А.Г. Бермус // Интернет-журнал «Эйдос», 2005. URL: http://www.yeidos.ru/journal/2005/0910-12.htm
6. Dilbar Ruzmatovna Ismailova (2022). ZAMONAVIY MAKTAB O’QITUVCHISI SHAXSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (3), 327-334.
7. Tursunova D.Z. (2024). O`QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Экономика и социум, (1 (116)), 582-585.
8. Shodiya Saidnabi Qizi Barakayeva (2022). TA’LIM METODLARI VA VOSITALARINI DARSDAGI SAMARADORLIGI. Scientific progress, 3 (4), 290-295.
9. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
10. Umida Muzaffarovna Imomova (2024). OLIY TA’LIM MUASSASALARINING XORIJIY TIL VA ADABIYOTI: NEMIS TILI YO‘NALISHI TALABALARIGA TIL TARIXI FANINI O‘QITISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR. Academic research in educational sciences, 5 (3), 167-170.

O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI KIYIM-KECHAK NOMLARINI TARJIMA QILISHNING QIYINCHILIKLARI

Minavarxon Sharobidinovna Maraimova
Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Roman-german tillar kafedrasi fransuz tili o'qituvchisi
minavvarsharobidinovna@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek va fransuz tillaridagi kiyim-kechak nomlarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar o‘rganiladi. Tarjima tilshunosligida madaniy leksik birliklar, xususan, kiyim-kechak atamalarini tarjima qilish jarayoni turli madaniy farqlar va milliy kiyinish an'analariga bog‘liq ravishda murakkab jarayon hisoblanadi. Maqolada asosiy qiyinchiliklar sifatida madaniy farqlar, iqlim va geografik sharoitlarning ta'siri, hamda kiyim nomlarining milliy va semantik farqlari muhokama qilinadi. Tavsifiy tarjima va madaniy ekvivalentlar orqali bu muammolarni yengib o‘tish yo‘llari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tarjima qiyinchiliklari, madaniy farqlar, kiyim-kechak nomlari, O‘zbek tili, Fransuz tili, milliy kiyinish, semantik farqlar, tavsifiy tarjima, tarjima strategiyalari

ABSTRACT

This article examines the difficulties in translating clothing names in Uzbek and French languages. In translation linguistics, the process of translating cultural lexical units, in particular clothing terms, is a complex process depending on various cultural differences and national dress traditions. The article discusses cultural differences, the influence of climate and geographical conditions, and national and semantic differences in clothing names as the main difficulties. Ways to overcome these problems are presented through descriptive translation and cultural equivalents.

Keywords: translation difficulties, cultural differences, clothing names, Uzbek language, French language, national dress, semantic differences, descriptive translation, translation strategies.

KIRISH

Tarjima tilshunosligida madaniy leksik birliklar, xususan kiyim-kechak nomlarini tarjima qilish, ko‘p hollarda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu qiyinchiliklar asosan ikki millatning til va madaniyati o‘rtasidagi o‘ziga xos farqlar bilan bog‘liqdir. Ushbu

maqolada o‘zbek va fransuz tillaridagi kiyim-kechak nomlarini tarjima qilishda duch kelinadigan asosiy muammolar, shu jumladan madaniy farqlar, milliy kiyinish uslublari va iqlimning tarjimaga ta'siri tahlil qilinadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Mazkur maqolada o‘zbek va fransuz tillaridagi kiyim-kechak nomlarini tarjima qilishning qiyinchiliklari madaniy farqlar, so‘zlarning ma’no jihatdan noaniqligi, iqlim va geografik sharoitlar hamda milliy kiyinish uslublarini hisobga olib o‘rganildi. Tarjima jarayonida duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklar tahlil qilindi va ilmiy adabiyotlar yordamida amaliy misollar keltirildi.

NATIJALAR

Madaniy farqlar va milliy kiyinish uslublari. O‘zbek va fransuz milliy kiyimlarida mavjud madaniy farqlar kiyim-kechak nomlarini tarjima qilishda aniq ekvivalent topish masalasida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilidagi "chopon" so‘zining fransuz tilidagi aniq ekvivalenti bo‘lmaganligi sababli, uni "manteau traditionnel" deb tarjima qilishga to‘g‘ri keladi. Ammo bu tarjima choponning o‘ziga xos madaniy xususiyatlarini to‘la ifodalab bera olmaydi. O‘zbekiston va Fransiyada kiyinish madaniyati an’anaviy jihatlari bilan ajralib turadi. O‘zbek milliy kiyimlari asosan paxta va ipakdan tikilgan, an'anaviy liboslar qatoriga ***chopon, do‘ppi, atlas ko‘ylaklar*** kiradi. Fransuz modasi esa xalqaro miqyosda tan olingan nafis va zamonaviy uslublari bilan mashhur bo‘lib, ***palto, kashmir sharf, beret*** kabi kiyimlar orqali milliy o‘ziga xosligini ifoda etadi. Shu sababli, ushbu liboslarni tarjima qilishda ba’zan to‘g‘ri ekvivalent topish qiyinlashadi.

1. Tarjima qiyinchiliklari va noan’anaviy qo‘llanilish. Ba’zi kiyim nomlari, masalan, o‘zbekcha "do‘ppi" va fransuzcha "beret", muayyan madaniyatga xos bo‘lib, tarjimada to‘g‘ri ekvivalent topilmasligi mumkin. Tarjimada ularning milliy madaniy ma’nolari va ijtimoiy konteksti hisobga olinishi zarur.

1. Iqlim va geografik omillar ta'siri. O‘zbekistonning iqlimi va Fransiyaning iqlimi kiyim-kechak nomlarini tarjima qilishda o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, o‘zbek tilidagi "po‘stin" so‘zini fransuz tiliga tarjima qilishda, sovuq iqlim sharoitiga mos tushadigan kiyim ekvivalenti tanlanadi, biroq bu qalin teridan tikilgan po‘stin o‘zbek madaniyatida chuqur ildiz otgan. Ba’zi kiyim-kechak nomlari o‘ziga xos va faqat muayyan madaniyatga tegishli bo‘lib, tarjimada aniq ekvivalent topilmasligi mumkin. Masalan, o‘zbekcha **"do‘ppi"** va fransuzcha **"beret"** ikki xil bosh kiyim hisoblanadi, ammo ikkalasi ham milliy madaniyatni ifodalovchi asosiy elementlardan biri. Shu kabi, fransuz tilidagi **"cravate"** (galstuk) so‘zini o‘zbek tiliga

tarjima qilishda hech qanday qiyinchilik yuzaga kelmaydi. Ammo **"nœud papillon"** (kapalak galstuk) so‘zi o‘zbek madaniyatida keng tarqalmaganligi sababli tarjima jarayonida tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. Bunday holatlarda fransuz tilidagi atamaning tushuntiruvli tarjimasi qo‘llaniladi.

2. Madaniy so‘zlarning semantik farqlari. O‘zbekcha "kamzul" va fransuzcha "gilet" so‘zlarining tarjimasida ular o‘z milliy kiyinish uslubiga bog‘liq bo‘lgan semantik farqlarni ifodalaydi. Bu farqlar tarjima jarayonida so‘zlarning to‘liq ekvivalentiga erishish uchun tushuntirish yoki tavsifiy usulni talab qiladi.

Ba'zan kiyim nomlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishning iloji bo‘lmaganida, ularning tavsifiy tarjimasi amalga oshiriladi. Bu kiyimlarning shakli, materiali va funksiyasiga asoslangan tavsiflash orqali amalga oshiriladi. Masalan, o‘zbek tilidagi **"loh"** so‘zini tarjima qilishda, tavsif sifatida "moskva sochiq" yoki "bosh kiyim" kabilar qo‘llaniladi. Fransuz tilida esa bu turdagi bosh kiyimlar keng tarqalmaganligi sababli, fransuz o‘quvchisiga tushunarli bo‘lishi uchun tavsif qo‘llaniladi.

MUHOKAMA

O‘zbek va fransuz tillaridagi kiyim-kechak nomlarini tarjima qilishda asosiy qiyinchiliklar madaniy, iqlimiy va tarixiy omillar bilan bog‘liq. O‘zbek va fransuz millatlari o‘rtasidagi madaniy xususiyatlar kiyim-kechak terminologiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tarjima qiyinchiliklarini yengish uchun tavsifiy tarjima, madaniy kontekstni tushuntirish va ba’zi atamalarning tushuntiruvli izohlarini kiritish kabi usullar qo‘llanishi mumkin.

XULOSA

O‘zbek va fransuz tillaridagi kiyim-kechak nomlarini tarjima qilish qiyinchiliklari, asosan, madaniy farqlar, tarixiy va ijtimoiy omillar, hamda har bir til va madaniyatning o‘ziga xos terminologik tizimi bilan bog‘liq. Ushbu atamalarni to‘g‘ri tarjima qilish uchun tarjimon nafaqat ikki tilda mukammal bilimga ega bo‘lishi, balki madaniy kontekstni ham chuqur tushunishi zarur. To‘g‘ri tarjima uchun tavsifiy tarjima usulini qo‘llash, madaniy ekvivalentlar topish, va zarur bo‘lsa, so‘zlarning ma'nosini tushuntirish orqali qiyinchiliklar yengib o‘tilishi mumkin.

REFERENCES

1. Fakhriddinovna, K. B. (2023). The current state of teaching english to technical students, methodological approaches: the current state of teaching english to technical students, methodological approaches.

2. Karshieva, B. F. (2022). Methodology and pedagogical practice-test result of organization of pedagogical training. Экономика и социум, (12-1 (103)), 135-138.
3. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice-Hall International.
4. Nord, C. (1997). Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. Manchester: St. Jerome Publishing.
5. Reiss, K., & Vermeer, H. J. (1984). Grundlegung einer allgemeinen Translationstheorie. Tübingen: Niemeyer.
6. Suoqi, P. (2001). Intercultural Communication and Translation. Paris: Presses Universitaires de France.
7. Баҳодиров, Ш. (2020). Таржима назарияси ва амалиёти. Тошкент: Фан нашриёти.
8. Винэй, Ж.-П., & Дарбелне, Ж. (1958). Таржима назарияси: Техника ва амалиёт. Париж: Лессинг нашриёти.
9. Гальперин, И. Р. (1981). Текстнинг стилистик таҳлили. Москва: Олий мактаб нашриёти.
10. Корнилов, О. (2003). Кросс-култур алоқа ва тилшунослик. Москва: ВК нашриёти.
11. Лотман, Ю. М. (1992). Маданият ва коммуникация. Москва: Искусство нашриёти.
12. Саидов, М. (2015). O‘zbek va chet tillarida madaniy leksik birliklar. Тошкент: Ўзбекистон нашриёти.

BOLALARNING INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA DUCH KELADIGAN QIYINCHILIKLAR (4-6 YOSH MISOLIDA)

Nargisa Ergashevna Saparova
Termiz davlat universiteti Fakultetlararo chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi
Nargisaergashevna7777@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 4-6 yoshdagi bolalarning ingliz tilini o‘rganish jarayonida duch keladigan asosiy qiyinchiliklar o‘rganiladi. Til o‘rganishda bolalar eshitish-tushunish, talaffuz, grammatika va so‘z boyligi bo‘yicha qator muammolarga duch keladilar. Ushbu qiyinchiliklar bolaning fiziologik, psixologik rivojlanishi hamda madaniy omillarga bog‘liq. Maqolada bu qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun interaktiv metodlar, o‘yinlar va individual yondashuvlarning samaradorligi muhokama qilingan. Tadqiqot natijalari kelajakda til o‘rganish jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradigan takliflarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: bolalar til o‘rganishi, eshitish qobiliyati, talaffuz qiyinchiliklari, grammatika, so‘z boyligi, o‘yin metodlari, madaniy omillar.

ABSTRACT

This article examines the main difficulties faced by children aged 4-6 in the process of learning English. When learning a language, children face a number of problems in listening comprehension, pronunciation, grammar and vocabulary. These difficulties depend on the child's physiological and psychological development and cultural factors. The article discusses the effectiveness of interactive methods, games and individual approaches to overcome these difficulties. The results of the research put forward proposals that will help organize the language learning process more effectively in the future.

Keywords: children's language learning, hearing ability, pronunciation difficulties, grammar, vocabulary, play methods, cultural factors.

KIRISH

Bolalarning til o‘rganish jarayoni hayotlarining dastlabki yillarida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu davrda ular asosiy til ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Ammo bu jarayon ko‘plab qiyinchiliklarni o‘z ichiga oladi, jumladan, eshitish, talaffuz, til strukturasi va so‘z boyligi bilan bog‘liq muammolar. Ushbu maqolada bolalar duch keladigan asosiy qiyinchiliklar va ularni yengib o‘tish yo‘llari muhokama qilinadi. Bu jarayonni

chuqurroq tushunish uchun, maqolada ilmiy tadqiqotlar, til o‘rganish nazariyalari va amaliy tajribalar asosida tahlil olib boriladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati bo`lgan o`qish shu yoshdagi bolalar psixikasi rivojidagi o`zgarishlarni belgilab beradi. Maktab ta`limi o`quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o`rnini o`zgartiradi. Uning vazifasi o`qishdan, bilim olish, ko`nikma va malakalarni egallash, o`zlashtirishdan iborat bo`lib qoladi [1, 255].

O`g`il bolalar va qizlar rivojlanish tempidagi o`zgarishlarda farqlanish mavjud bo`lib, qiz bolalar hamma tomondan rivojlanishda o`g`il bolalardan oldinga o`tib oladilar. Qiz bolalarning maktabdagi o`qish muvaffaqiyati samaradorligi ularda lingvistik qobiliyatlarining rivojlanganligiga bog`liq hisoblanadi. Maktab ta`limi esa ko`proq verballikka asoslangan. Professor B.R.Qodirov tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, o‘g‘il bolalarda aniq fanlarga nisbatan layoqatlar ko‘proq rivojlangan bo‘lib, ko‘rish-fazoviy intellekt baland hisoblansa, qiz bolalarda nutq malakalari ko‘proq rivojlangan bo‘lib, tafakkur egiluvchanligi baland bo‘ladi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotning asosiy metodologiyasi sifatida bolalar til o‘rganish jarayonida duch keladigan muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar va amaliy kuzatishlar tahlili tanlandi. O‘zbekiston va xalqaro miqyosda amalga oshirilgan tadqiqotlar ma'lumotlari o‘rganildi va to‘plangan natijalar asosida qiyinchiliklar bir nechta asosiy kategoriyalarga ajratildi: eshitish-tushunish qobiliyati, talaffuz, grammatika va so‘z boyligi. Tadqiqot uchun O‘zbekiston maktabgacha ta'lim muassasalarida til o‘rganayotgan 4-6 yoshli bolalar ishtirokchilari sifatida tanlandi. Kuzatish usuli orqali ularning darsdagi faoliyati va tilga oid qiyinchiliklari qayd etildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolalar asosan to‘rtta asosiy yo‘nalishda til o‘rganishda qiyinchiliklarga duch keladi:

1. Eshitish va tushunish muammolari: Yoshi kichik bolalarda eshitish orqali tilni tushunish qobiliyati to‘liq shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Bu, ayniqsa, ikkinchi til sifatida o‘rganilayotgan til bo‘lsa, yanada murakkablashadi. Bolalar yangi so‘zlarni eshitganida ularni tushunishda va kontekstdan anglab olishda qiyinchiliklarga duch keladi.

2. Talaffuzdagi qiyinchiliklar: Bolalarning talaffuzi rivojlanmaganligi sababli ayrim tovushlar yoki so‘zlar noto‘g‘ri talaffuz qilinadi. Masalan, O‘zbekistonda ingliz tilini

o‘rganayotgan bolalar “th” yoki “r” tovushlarini o‘zlashtirishda muammolarga duch keladi.

3. Grammatika: Til grammatikasini o‘zlashtirish ko‘p vaqt va sabr talab qiladi. Bolalar yangi til grammatik qoidalarini tushunishda muammolarga duch keladilar. Misol uchun, ingliz tilida fe'llarning zamon shakllari yoki sifatdoshlar bolalar uchun qiyin qoidalar bo‘lib qolishi mumkin.

4. So‘z boyligi va lug‘at: Kichik yoshdagi bolalar yangi so‘zlarni eslab qolish va ularni to‘g‘ri kontekstdan foydalanishda ko‘pincha qiynaladi. Bu holat ular o‘rganayotgan tilning ularning ona tilidan sezilarli darajada farq qilishidan ham kelib chiqadi.

Ushbu natijalar bolalarning til o‘rganish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarning murakkabligini ko‘rsatadi. Xalqaro tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, til o‘rganishdagi eshitish-tushunish qobiliyati yosh bolalar uchun eng katta qiyinchiliklardan biridir (Smith, 2018). Bundan tashqari, talaffuzni yaxshilash ko‘pincha maxsus fonetik mashqlar va o‘yinlar orqali erishiladi (Jones, 2020). Grammatik qoidalar va so‘z boyligini rivojlantirish uchun esa o‘qituvchi tomonidan tilga oid oddiy va aniq tushuntirishlar kiritilishi muhimdir. Shu bilan birga, amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun til o‘rganish jarayonida individual yondashuv, ko‘p marta takrorlash va ijtimoiy interaktiv metodlarni qo‘llash zarur (Brown, 2019).

XULOSA

Bolalarning til o‘rganish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar ko‘p qirrali bo‘lib, ularning psixologik, fiziologik va madaniy omillarga bog‘liq ekanligi kuzatiladi. Ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun mos metodlar qo‘llanilishi kerak. Til o‘rganish jarayonini yanada samarali qilish uchun esa interaktiv o‘yinlar, fonetik mashqlar, va tushuntiruvchi dars metodlari tavsiya etiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar bolalarning individual qobiliyatlarini inobatga olib, moslashuvchan yondashuvni qo‘llashlari kerak.
Kelajakdagi tadqiqotlar bu qiyinchiliklarni yanada chuqurroq o‘rganish va ularni yengish strategiyalarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lishi zarur.

REFERENCES

1. Sayyora Nabijon Qizi Xamidova, Sherzod Vahobjonovich Usmanov, & Kibrio Ergashevna Burieva (2021). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA XORIJIY TIL O‘RGATISH MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1 (3), 254-261.

2. Avlaev, O. U. (2020). THE ROLE OF SOCIAL INTELLIGENCE IN PERSONAL DEVELOPMENT. In Association with Novateur Publication India's A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 692-698.
3. Ergashevna, S. N. (2024). PROCESS IN TRAINING SPECIAL SUBJECTS, TEACHING PROCESS, CONCEPT SYSTEM APPROACH. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 4(02), 329-335.
4. Smith, A. (2018). *Early language acquisition: Listening and comprehension in children*. Cambridge University Press.
5. Jones, R. (2020). *Pronunciation difficulties in young learners*. TESOL Journal, 22(1), 45-67.
6. Brown, P. (2019). *Effective language learning strategies for young learners*. Oxford University Press.
7. Richards, C. (2017). *Grammatical structures in second language acquisition*. Linguistics Today, 10(3), 122-140.
8. Lee, S. (2016). *The role of vocabulary in language development for children*. Early Childhood Education Journal, 33(4), 78-90.

КОНЧИЛИК КОРХОНАЛАРИДА ИШЛАТИЛАЁТГАН ТАСМАЛИ КОНВЕЙЕР РОЛИКЛАРИ ИШДАН ЧИҚИШИ ТАҲЛИЛИ

Нурбек Омонбоевич Полвонов
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети таянч докторанти

Лазизжон Неъматович Атақулов
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети техника фанлари доктори

Улугбек Усмон уғли Зиёдуллаев
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети талабаси

Достон Шерали ўғли Адизов
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети талабаси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада тасмали конвейерларнинг фойдали қазилмаларни ташиш ишларида тутган ўрни, дунёдаги ва Республикамиздаги кончилик саноати тасмали конвейерларида ва уларнинг роликларида юза келадиган тўхталишлар, улар оқибатида юзага келадиган камчиликлар ҳамда уларни бартараф этиш бўйича таҳлили кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: Тасмали конвейерлар, резина матоли тасмалар, роликлар, подшипниклар, режали тўхталишлар, режасиз тўхталишлар, техник омил, технологик омил, конвейер унумдорлиги.

ABSTRACT

In this article, the role of belt conveyors in the transportation of minerals, the breakdowns of belt conveyors and their rollers in the mining industry in the world and in our Republic, the shortcomings caused by them, and the analysis of their elimination are considered.

Keywords: Belt conveyors, rubber fabric belts, rollers, bearings, planned stops, unplanned stops, technical factor, technological factor, conveyor productivity.

КИРИШ

Ўзбекистон Республикасида фойдали қазилмаларни очиқ усулда қазиб олаётган йирик кончилик корхоналарини ривожлантириш стратегияси, маҳсулот сифатини яхшилаш,


жаҳон бозоридаги рақобатбардошлигини янада ошириш ва ишлаб чиқариш ҳажмини босқичма-босқич оширишга қаратилган бўлиб, бунда, кончилик корхоналаридаги кончилик машиналари паркини жадал суъратларда янгилашга, модернизация қилишга ва корхонанинг унумдорлигини ошига олиб келувчи катта қувватли янги ускуналарни харид қилишга асосий эътибор қаратилмоқда.

Олимлар тамонидан олиб борилган илмий изланишлар натижасига кўра, тасмали конвейерларнинг иш жараёнини такомиллаштириш, енгил конструкцияни яратиш, юритма ва ишчи ускуналар элементларининг тизимли автоматик параметрлари ёрдамида бошқаришни амалга ошириш лозим. Ташиш ишларида юк оқимининг нотекис тақсимланиши юритмага ортиқча юклама тушиши, тасмаларнинг ейилиши ва узилиши, ролик таянчларига ортиқча юкламанинг тушиши натижасида тўхталишлар сонини орттиради. Тасмали конвейерларда юзага келадиган камчиликларни ўз вақтида бартараф этилиши ускунанинг унумдорлиги ошишига олиб келиб келиш билан бирга иқтисодий жиҳатдан самарадорликни ҳам таъминлаб беради.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ


1. **Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar**: axborot madaniyatini shakllantirishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu jarayon yoshlarni axborotni avtomatik ravishda qabul qilish emas, balki uning mazmunini chuqur tahlil qilish va unga savollar berishga o‘rgatadi. Masalan, darslarda turli mavzular bo‘yicha ma’lumotlarni qiyoslash, ularni tahlil qilish va manbalarning haqqoniyligini baholash orqali yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyati oshiriladi.

2. **Media savodxonlikni rivojlantiruvchi darslar**: axborot madaniyatining muhim jihatlaridan biri media savodxonlikdir. Bu darslar orqali yoshlar turli media manbalardan foydalanishda tanqidiy yondashishni, media orqali tarqatilayotgan axborotni to‘g‘ri tushunishni va manbaga qarab axborotni baholashni o‘rganadilar. Masalan, televizion yoki internet manbalaridagi axborotni tahlil qilish, turli axborotlarni qiyoslash, ularning maqsad va manfaatlarini aniqlash yoshlarga media savodxonlikni rivojlantirishga yordam beradi.

3. **Axborot manbalarini qiyoslash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi topshiriqlar**: axborot madaniyatini shakllantirish uchun axborot manbalarini qiyoslash va ularning ishonchliligini baholash ko‘nikmalari alohida o‘rin tutadi. Dars jarayonida yoshlar turli manbalardan ma’lumot olib, ularni tahlil qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar bajaradilar. Bu metod axborotni faqat qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish va turli manbalardan kelgan ma’lumotlarni qiyoslash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

4. **Guruhlarda ishlash va muammolarni birgalikda hal qilish**: axborot madaniyatini shakllantirishda guruhli ishlar interaktiv metod sifatida faol qo‘llaniladi. Bu jarayonda yoshlar bir-birlari bilan muloqot qilib, axborotni birgalikda tahlil qiladilar va uni turli jihatlardan o‘rganadilar. Masalan, guruhdagi yoshlar turli mavzular bo‘yicha axborotni qidirib topish, uni tahlil

qilish va natijalarni birga muhokama qilish orqali axborot madaniyatini rivojlantiradilar.

5. **Ta’limda loyiha yondoshuvi**: axborot madaniyatini shakllantirish uchun loyiha metodlaridan foydalanish ham juda samarali hisoblanadi. Bu metod yoshlarni mustaqil axborot qidirish, uni tahlil qilish va yangicha loyihalar yaratishga undaydi. Loyihalar ustida ishlash jarayonida yoshlar axborotni faol qabul qiladilar, turli manbalardan foydalanib, ularni tahlil qiladilar va o‘z loyihalarini yaratishda undan samarali foydalanadilar.

Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari axborot madaniyatini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari yoshlarga axborotni tez va samarali izlash, uni tahlil qilish va qayta ishlash imkoniyatini beradi. Axborot madaniyatini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishda, bizningcha, quyidagi jihatlarga e’tbor qaratish maqsadga muvofiq:

1. **Internet va elektron manbalardan foydalanish**: internet turli axborot manbalariga kirish imkoniyatini berib, yoshlarning axborotni topish va tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Turli elektron manbalar, bilim platformalari va internetdagi ma’lumotlar yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonda yoshlar axborotni faol izlashlari, ularning mazmunini qiyoslashlari va turli manbalardan kelgan ma’lumotlarni tahlil qilishlari mumkin.

2. **Axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish**: axborot texnologiyalari orqali axborot xavfsizligi masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Axborot madaniyatini shakllantirish jarayonida yoshlar shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, internet xavfsizligi qoidalariga rioya qilish va zararli manbalardan qochishni o‘rganishlari zarur. Axborot xavfsizligini ta’minlash yoshlarning axborot texnologiyalari bilan ishlashdagi muhim ko‘nikmalaridan biridir.

3. **Onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish**: axborot madaniyatini rivojlantirishda onlayn ta’lim platformalari yoshlarga o‘z bilimlarini mustaqil ravishda oshirish imkoniyatini beradi. Turli platformalar orqali yoshlar axborotni izlash, mustaqil loyihalar ustida ishlash va ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradilar. Masalan, Coursera, Khan Academy va boshqa ta’lim platformalari yoshlarga keng bilim manbalaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

4. **Dasturiy ta’minot va axborot tahlili vositalari**: axborot madaniyatini rivojlantirishda turli dasturiy ta’minotlar va axborot tahlili vositalari yoshlarga axborotni chuqurroq tahlil qilishda yordam beradi. Masalan, Excel, Power BI, Google Analytics kabi vositalar axborotni qayta ishlash va tahlil qilishda keng foydalaniladi. Yoshlar bu vositalardan foydalanib axborotni

qayta ishlaydilar, uni tahlil qiladilar va to‘g‘ri xulosalar chiqarishni o‘rganadilar [5].

Axborot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va axborot texnologiyalari yoshlarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Interaktiv metodlar, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish yoshlarga axborotni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish va uni ishonchli manbalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Axborot madaniyati yoshlarni axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlab, ularning tanqidiy fikrlash va axborot xavfsizligiga rioya qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

O‘quvchilarda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Axborot oqimlarining shiddatli o‘sishi, yolg‘on axborotlar tarqalishi va globallashuv jarayoni yoshlarni axborotni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish va uni tanqidiy baholashga yo‘naltirish zaruratini kuchaytirmoqda. Axborot madaniyati yoshlarni yolg‘on ma’lumotlardan himoya qilish, axborot xavfsizligiga rioya qilish va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga yordam beradi. Shuningdek, axborot madaniyati ularni global axborot jamiyatida to‘g‘ri yo‘naltirib, tanqidiy fikrlovchi va axborotdan samarali foydalanuvchi shaxslarga aylantiradi.

Xulosa

Axborot tushunchasi ta’lim jarayonidagi markaziy tushunchalardan biri bo‘lib, uni to‘g‘ri tushunib, faoliyatda maqsadga muvofiq qo‘llash pedagogik mazmunning asosini tashkil qiladi. Axborotni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish va qayta ishlash o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Bu jarayon yoshlarning intellektual rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Axborot madaniyatini shakllantirish masalasi pedagogika sohasida keng o‘rganilgan. Pedagogik tadqiqotlardan kelib chiqqan holda, axborot madaniyatini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Shuningdek, milliy va xalqaro metodlarni uyg‘unlashtirish ushbu jarayonda samaradorlikni oshiradi. Globallashuv davrida axborot bilan ishlash ko‘nikmalari yoshlar uchun muhim ahamiyatga ega. Axborot oqimlari kengayib, yolg‘on ma’lumotlar tarqalishi kuchayib borayotgani sababli, o‘quvchilarda axborotni tanqidiy qabul qilish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Bu jarayon yoshlarni axborot xavflaridan himoya qiladi va ularni to‘g‘ri qaror qabul qilishga tayyorlaydi. Pedagogik yondashuvlar yordamida axborot madaniyatini shakllantirish interaktiv metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar, media savodxonlik darslari va guruhli ishlar

yoshlarni axborot bilan to‘g‘ri ishlashga o‘rgatadi. Axborot xavfsizligi axborot madaniyatining muhim qismi bo‘lib, yoshlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va axborot xavflariga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan. Axborot madaniyati shakllangan yoshlar shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qoidalariga amal qiladilar va axborot xavfsizligiga rioya qiladilar.

REFERENCES

1. Rorti R. Otveti na voprosi «Logosa» // Logos. — 1999. — № 5. — S. 20—21.
2. Djon Dyui. Shkoli budushego // Narodnoye obrazovaniye. 2000, №8. http://jorigami.ru/PP_corner/Classics/Dewey/Dewey_Schools_of_Future.htm
3. Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. 2011. Beverly Hills: Corwin/Sage. –R.255.
4. Francis Fukuyama. Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity. Free Press, 1995. ISBN 0-02-910976-0
5. Zamonaviy raqamli axborot tizimlaridan talaba-yoshlarning foydalanishida ta’limtarbiyaning ahamiyati. I.Q.Ximmatov, M.A.Sulaymonov https://mppam2024.qarshidu.uz

NEYROPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA ZAMONAVIY KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Sabohat Ilhomovna Xolmatova
Mustaqil tadqiqotchi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda neyropedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Kitobxonlik madaniyati, insonning bilimga va ma’naviy rivojlanishga bo‘lgan intilishi sifatida qaralib, bu jarayonda neyropedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi ta’limda individual yondashuv, xotira va diqqatni oshirish kabi omillarga asoslangani ta’kidlanadi. Maqolada neyropedagogik yondashuvlar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun vizual va audio yordamchi vositalar, interaktiv muhokamalar, audio kitoblar, va tanqidiy fikrlash kabi usullar tavsiya etilgan. Natijada, kitobxonlik madaniyati o‘quvchilarning intellektual va ma’naviy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik madaniyati, neyropedagogika, kognitiv rivojlanish, ta’lim texnologiyalari, tanqidiy fikrlash, xotira, interaktiv ta’lim.

РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННОЙ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется значимость и эффективность использования нейропедагогических технологий для развития культуры чтения у учащихся. Культура чтения рассматривается как стремление человека к знаниям и духовному развитию, и подчеркивается, что применение нейропедагогических технологий в этом процессе основано на таких факторах, как индивидуальный подход в обучении, улучшение памяти и внимания. В статье рекомендуется использовать такие методы, как визуальные и аудиоподдерживающие средства, интерактивные обсуждения, аудиокниги и развитие критического мышления для продвижения культуры чтения с помощью нейропедагогических подходов. В результате культура чтения оказывает положительное влияние на интеллектуальное и духовное развитие учащихся.

Ключевые слова: культура чтения, нейропедагогика, когнитивное развитие, образовательные технологии, критическое мышление, память, интерактивное обучение.

DEVELOPING A MODERN READING CULTURE IN STUDENTS THROUGH NEUROPEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

ABSTRACT

This article analyzes the significance and effectiveness of using neuropedagogical technologies to foster a culture of reading in students. A culture of reading is viewed as an individual's pursuit of knowledge and spiritual growth, and it is emphasized that applying neuropedagogical technologies in this process is based on factors such as personalized learning approaches, enhancing memory, and increasing attention. The article recommends methods such as visual and audio support tools, interactive discussions, audiobooks, and critical thinking development as strategies for promoting a culture of reading through neuropedagogical approaches. As a result, a culture of reading positively impacts the intellectual and spiritual development of students.

Keywords: reading culture, neuropedagogy, cognitive development, educational technologies, critical thinking, memory, interactive education.

KIRISH

Kitobxonlik madaniyati insonning bilimga intilishi, kitob o‘qish orqali ma’naviy va intellektual rivojlanishga erishishi, fikrlash qobiliyatini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan mos ko‘nikmalar va odatlar tizimini anglatadi. Kitobxonlik madaniyati nafaqat kitoblarni o‘qish, balki ularni to‘g‘ri tushunish, tahlil qilish, tanqidiy fikr yuritish va o‘qilgan kitobning mazmunini hayotda qo‘llay bilishni ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy jamiyatda bu madaniyat juda muhim, chunki kitobxonlik orqali inson nafaqat bilim oladi, balki turli sohalardagi axborotlarni tushunadi, o‘zining shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi va jamiyatda bilimli, tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Axborot texnologiyalari rivojlanayotgan sharoitda, ko‘plab insonlar axborotni tezkor qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lsa ham, kitobxonlik madaniyati ularda yetarli darajada shakllanmagan. Kitob o‘qish va uni tushunish jarayoni miyaning chuqurroq fikr yuritishga qodir bo‘lgan imkoniyatlarini ishga soladi, bu esa shaxsning ma’naviy rivojlanishiga, fikrlashni tartibga solishga va o‘ziga xos shaxsiy qiymatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. [1; 45] Shu sababli, kitobxonlik madaniyati nafaqat shaxsiy rivojlanish uchun, balki jamiyatda bilimli va madaniyatli shaxslarni tarbiyalash uchun ham muhimdir.

Neyropedagogik texnologiyalar orqali o‘quvchilarda kitob o‘qish jarayoniga to‘g‘ri yondashuv va fikr yuritish qoidashlarini shakllantirish mumkin. Bunda kitoblardan olingan ma’lumotlar o‘quvchilarning uzoq muddatli xotirasida saqlanishi, tushunish va anglash

jarayonida chuqurroq qabul qilinishi ta’minlanadi. Shu bilan birga, neyropedagogik texnologiyalar ko‘makchi vositalar orqali vizual va audio axborotni qo‘shish, assotsiatsiyalarni rivojlantirish va o‘quv jarayonini yoqimliroq qilish imkoniyatini ham beradi. [2; 122]

Maqolaning maqsadi — kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda neyropedagogik texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklarini o‘rganish va ularning o‘quvchilarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish va intellektual rivojlanishga ta’sirini tadqiq qilishdir. Shu asosda quyidagi vazifalar belgilanadi:

1. Kitobxonlik madaniyatining pedagogik va neyropsixologik jihatlarini o‘rganish;

2. Neyropedagogik texnologiyalarni kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda qo‘llash usullarini tahlil qilish;

3. O‘quvchilarda kitobxonlikka bo‘lgan qiziqish va axborotni qayta ishlash qobiliyatini oshirish uchun neyropedagogik usullarning natijadorligini baholash;

4. Neyropedagogik texnologiyalarni kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda samarali qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Shunday qilib, mazkur maqola kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda neyropedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini yoritishga qaratilgan.

METODOLOGIK ASOS

Maqola uchun metodologik asos bo‘lgan tadqiqotlar quyidagi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ular kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, neyropedagogika va kognitiv psixologiya sohalaridagi tadqiqotlari orqali ushbu mavzuda ilmiy asoslar yaratgan.

L.S.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi ta’limda shaxsga individual yondashuvni ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi. U kognitiv rivojlanish jarayonida ijtimoiy o‘zaro aloqalarning ahamiyatini yoritadi, bu esa kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda qo‘llaniladigan neyropedagogik texnologiyalarga asos bo‘ladi. [1] Jan Piaje bolalarda kognitiv rivojlanish jarayonini tushuntirib, o‘quvchilarning bilimni turli bosqichlarda o‘zlashtirish xususiyatlarini o‘rganadi. Uning ishi kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda yoshga mos metodlarni ishlab chiqishda qo‘llaniladi. [2] D.O.Xebbning "Hujayra aloqalari" nazariyasi neyronlar orasidagi bog‘lanishlarning mustahkamlanishi orqali bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlash jarayonini tushuntiradi. Ushbu nazariya kitobxonlik madaniyatini mustahkamlash uchun xotira mashqlari ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. [3] G.Gardnerning "ko‘p intellektlar nazariyasi" insonning har xil bilim olish qobiliyatlariga e’tibor qaratishni

talab etadi. Uning ishi kitobxonlikni rivojlantirishda individuallikni hisobga oluvchi neyropedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga asos bo‘ladi. [4] M.Spitser neyrobiologiya va ta’limning o‘zaro bog‘liqligi haqida yoritgan. Uning tadqiqotlari kitobxonlik madaniyatiga ta’sir etuvchi neyrofiziologik jarayonlarni tushunishga yordam beradi. [5] N.Z.Alimova axborot va media savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlari orqali o‘quvchilarda axborotni tanqidiy tushunish va qabul qilish qobiliyatini oshirish usullarini ishlab chiqadi. [6] M.A.Turdiyev axborot xavfsizligi va axborot savodxonligini shakllantirish bo‘yicha ish olib boradi. Uning ishi kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda tanqidiy tahlil va axborot xavfsizligini ta’minlashning ahamiyatini tushuntiradi. [7] Z.I.Karimova ta’limda kognitiv rivojlanish va shaxsga moslashtirilgan metodlarni ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlari orqali kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda shaxsiy kognitiv xususiyatlarni hisobga olishga asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqadi. [8]

Tadqiqotda adekvat holatda o‘rganishni ta’minlashga qaratilgan nazariy (qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish, tahliliy-sintetik), diagnostik (so‘rovlar, test, kuzatish, suhbat), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) metodlar majmuidan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Neyropedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonidagi afzalliklari. Neyropedagogik texnologiyalar — bu ta’lim jarayonida inson miyasining kognitiv va neyrofiziologik xususiyatlarini hisobga olishga asoslangan yondashuvlardir. Neyropedagogik usullar orqali o‘quv jarayonida individuallikni hisobga olish, vizual va audio vositalardan foydalanish, diqqat va xotirani kuchaytirish, o‘zlashtirish jarayonini yoqimli va qiziqarli qilish kabi afzalliklar ta’minlanadi. [6;89] Bu yondashuvlar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ham o‘ta muhimdir, chunki ular orqali o‘quvchilarda kitobga nisbatan qiziqish uyg‘otish, kitob mazmunini yaxshiroq tushunish va uzoq muddatli xotirada saqlash imkoniyati yaratiladi.

Kitob o‘qish jarayonida miya faoliyati va kognitiv jarayonlarning ahamiyati. Kitob o‘qish jarayonida inson miyasida bir necha kognitiv jarayonlar ishga tushadi, jumladan, diqqatni jamlash, vizual va audio ma’lumotlarni qayta ishlash, assotsiatsiyalarni shakllantirish, xotirada saqlash va tanqidiy mulohaza yuritish kabi faoliyatlar amalga oshadi.

Kitob o‘qish jarayonida miya faoliyati to‘g‘risidagi tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, matn o‘qish jarayonida turli zonalar faol bo‘lib, kitobdagi ma’lumotlarni tushunish va

anglashda muhim o‘rin tutadi. Neyrobiolog M.Spitser ta’kidlaganidek, “Kitob o‘qish jarayoni inson miyasining chuqur fikrlash qobiliyatini ishga tushiradi va ushbu jarayon insonning umumiy intellektual darajasini oshirishga xizmat qiladi” [5; 163] Shuningdek, vizual va audio ma’lumotlarni birgalikda qabul qilish natijasida xotirada uzoqroq muddat saqlanadi.

Neyropedagogik yondashuvlar orqali kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari. Neyropedagogik yondashuvlar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda o‘quvchilarning shaxsiy kognitiv xususiyatlarini hisobga olishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarning diqqatni jamlash qobiliyati, xotirada ma’lumotni saqlash va mulohaza qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Vigotskiyning ta’limotida ta’kidlanganidek, “shaxsning rivojlanishi uning yaqin rivojlanish zonasiga muvofiq amalga oshirilishi zarur” (Vigotskiy, 1982). Shu asosda, neyropedagogik texnologiyalar orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish va o‘quvchining rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish mumkin.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish kabi muhim ko‘nikmalarni ham neyropedagogika yordamida rivojlantirish mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda neyropedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari.

1. Vizual va audio yordamchi vositalardan foydalanish orqali kitobga qiziqishni oshirish. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda vizual va audio yordamchi vositalardan foydalanish o‘quvchilarda kitobga qiziqish uyg‘otadi va matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Zamonaviy neyropedagogik texnologiyalar turli xil vizual va audio vositalar orqali ma’lumotni qabul qilish jarayonini yoqimli va qiziqarli qiladi.

• **Videolavhalar va illustratsiyalar qo‘shish:** Kitobdagi syujetni yoki tushunchalarni to‘liqroq tushunish uchun videolavhalar yoki rasmlar qo‘shish mumkin. Bu yordamchi vositalar orqali o‘quvchilar kitob mazmuniga qiziqish uyg‘otadi va o‘qish jarayonini osonroq qabul qiladi.

• **Audio kitoblardan foydalanish:** Ovozli kitoblar matnni qabul qilishda sezilarli yordam beradi, ayniqsa vizual axborotni qabul qilishda qiyinchilikka duch keluvchi o‘quvchilar uchun. Ovozli kitoblar orqali o‘quvchilar kitobni quloq orqali eshitishlari mumkin, bu esa matnni yaxshiroq tushunishga va xotirada saqlashga yordam beradi.

• **Qisqa vizual va audio hikoyalar:** Asar mazmunini qisqacha vizual va audio tarzda bayon qilish o‘quvchilarga

kitobning asosiy g‘oyalarini tushunish va qiziqish uyg‘otish uchun yaxshi usuldir. Masalan, kitob bosh qahramonlari yoki muhim voqealarni to‘g‘ridan to‘g‘ri tasvirlaydigan qisqa videolar yoki animatsiyalar ishlatish mumkin. [3; 71]

2. Xotirani mustahkamlash va diqqatni jamlashga yordam beruvchi kognitiv mashqlar. Kognitiv mashqlar xotira va diqqatni mustahkamlash uchun muhimdir. Kitob o‘qish jarayonida ushbu mashqlar o‘quvchilarning diqqatni uzoq muddat jamlab, mazmunli o‘qishni ta’minlaydi, matnni xotirada uzoq muddat saqlashga yordam beradi.

• **Fokus va diqqatni jamlash mashqlari:** Matnni o‘qishda diqqatni jamlashni o‘rgatish uchun maxsus mashqlar tavsiya etiladi. Masalan, "aqliy nuqta" mashqi (fikrni bir nuqtada jamlash) yoki har bir bo‘limdan so‘ng qisqa tanaffuslar qilish orqali o‘quvchilarning diqqatini tiklashga yordam beradi.

• **Qisqa muddatli yodlash mashg‘ulotlari:** Kitobdagi ma’lumotlarni tez yodlashga yo‘naltirilgan qisqa muddatli yodlash mashqlari o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi. Buning uchun, o‘quvchilarga asarning muhim fikrlarini takrorlash, asosiy nuqtalarni qayta yozish yoki vizual diagrammalar tuzish tavsiya etiladi.

• **Xotirani rivojlantiruvchi ma’no yodlash texnikasi:** Matnni yodlashda o‘quvchilar ma’noni qayta ishlab, tushunchalarga bog‘liq assotsiatsiyalar orqali xotirada saqlashlarini o‘rganishadi. Masalan, biror ma’lumotni o‘z hayotlari bilan bog‘lash yoki voqeani tasavvurda aniq ssenariy sifatida tasvirlash xotirani mustahkamlashga yordam beradi. [7; 52]

3**. Assotsiatsiyalar va vizuallashtirish orqali kitob mazmunini yaxshiroq tushunish usullari.** Assotsiatsiyalar va vizuallashtirish orqali matnni yaxshiroq tushunish, o‘quvchilarda kitob mazmunini tanqidiy tahlil qilish va eslab qolish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu neyropedagogik metodlar ko‘makchi vositalar orqali o‘quv jarayonida asarning ma’nosini chuqurroq anglashga yordam beradi.

• **Assotsiatsiyalar tuzish mashg‘ulotlari:** O‘quvchilarda kitob mazmuniga oid assotsiatsiyalarni rivojlantirish ularning tushunish jarayonini chuqurlashtiradi. Bunda kitobdagi personajlar yoki voqealarni shaxsiy tajribalari bilan bog‘lash orqali o‘quvchilar asar mazmunini o‘zlari uchun ahamiyatli qilib qabul qiladilar.

• **Vizual diagrammalar va maynd-maplar:** Matn mazmunini vizuallashtirish orqali tushunishni yaxshilashga ko‘mak beradi. Maynd-maplar, sxemalar va diagrammalar yordamida kitobning asosiy g‘oyalari, personajlar munosabatlari yoki hodisalar orasidagi bog‘liqliklarni tushunishga yordam beradi.

• **Mazmunli simulyatsiyalar va tasavvuriy sayohatlar:** O‘quvchilar kitob mazmunini tasavvur orqali yanada yaxshi o‘zlashtirishlari uchun simulyatsiyalar yoki "tasavvuriy sayohatlar" mashqlaridan foydalanish mumkin. Masalan, o‘quvchilar asarning muhim

epizodlarini yoki qahramonlarni tasavvurda kuzatishlari orqali ma’lumotlarni to‘liq qabul qiladilar.

Amaliy neyropedagogik usullar orqali kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.

1. **Elektron kitoblar va interaktiv kitobxonlik platformalaridan foydalanish.** Zamonaviy elektron kitoblar va interaktiv kitobxonlik platformalari o‘quvchilarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Elektron kitoblar va interaktiv platformalar kitob o‘qish jarayonini jonli va samarali qilishga yordam beradi.

• **Elektron kitoblarning afzalliklari:** Elektron kitoblar o‘quvchilarga istalgan vaqtda va istalgan joyda kitob o‘qish imkonini beradi. Bu ularga kitob o‘qish odatini rivojlantirishda yordam beradi. Shu bilan birga, elektron kitoblarda yorqin illustratsiyalar, foydali qo‘shimchalar va interaktiv elementlar mavjud bo‘lishi mumkin, bu esa o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

• **Interaktiv kitobxonlik platformalari:** Bugungi kunda turli interaktiv kitobxonlik platformalari mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarga kitoblarni birgalikda o‘qish va muhokama qilish imkonini beradi. Masalan, onlayn kitob klublari, kitob bilan bog‘liq savol-javoblar, mazmunni chuqurroq o‘rganish uchun testlar va topshiriqlar kabi interaktiv elementlar yordamida o‘quvchilar o‘qish jarayonida faol ishtirok etadilar. Bu usullar orqali o‘quvchilarda kitobga nisbatan qiziqish va tanqidiy qarash rivojlanadi. [4; 76]

2. Ovozli kitoblar va podkastlar yordamida kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish. Ovozli kitoblar va podkastlar o‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular kitob o‘qishga vaqt yo‘qotmasdan ma’lumot qabul qilish imkonini beradi va audio ma’lumotni yaxshi qabul qiladigan o‘quvchilar uchun foydali hisoblanadi.

• **Ovozli kitoblar:** Ovozli kitoblar, xususan, yosh o‘quvchilar yoki vizual axborotni qabul qilishda qiyinchilikka duch keluvchilar uchun juda foydali. Ular kitob mazmunini quloq orqali qabul qilish orqali to‘liq tushunishlari mumkin. Shuningdek, ovozli kitoblarni eshitish orqali tasavvur qila olish va matnni anglash qobiliyatlari rivojlanadi. Bu usul o‘quvchilarga diqqat jamlash va xotirani rivojlantirishga yordam beradi.

• **Podkastlar:** Podkastlar kitob muhokamasi yoki o‘quvchilarning qiziqishlariga mos ma’lumotlarni tinglash uchun qo‘llanilishi mumkin. Podkastlar orqali ular yangi kitoblar haqida bilib olishlari, shuningdek, mashhur asarlar yoki yangi kitoblarni muhokama qilishlari mumkin. Bu yordamchi vosita o‘quvchilarda kitobga qiziqish uyg‘otib, ularni kengroq o‘qishga rag‘batlantiradi.

3. **Muhokama va bahslar orqali o‘quvchilarda kitobxonlikka qiziqish uyg‘otish.** Muhokama va bahslar orqali o‘quvchilarda kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bunday jarayonlar o‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi, ularda fikr bildirish va mulohaza qilish istagini uyg‘otadi.

• **Kitob muhokamalari:** Oliy o‘quv yurtlari yoki maktablar darajasida kitob muhokamalari tashkil etish orqali o‘quvchilar o‘qilgan kitobning mazmunini chuqurroq tushunish va uning asosiy g‘oyalarini anglashga harakat qiladilar. Bunday muhokamalar o‘quvchilarga kitob haqidagi fikrlarini bayon qilish, o‘z tushunchalarini boshqalar bilan bo‘lishish imkonini beradi.

• **Bahslar va savol-javob mashg‘ulotlari:** Kitob bo‘yicha bahslar va savol-javob sessiyalari o‘quvchilarda kitobdagi ma’lumotlarga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Masalan, kitobning bosh qahramoni yoki muhim voqealar haqida bahs yuritish orqali o‘quvchilar asar mazmuniga chuqurroq kirishadi va turli nuqtayi nazarlardan qarashni o‘rganadilar. Savol-javob mashg‘ulotlari orqali esa o‘quvchilar asarning murakkab qirralarini o‘rganishga harakat qiladilar.

• **Interaktiv kitobxonlik sessiyalari:** Turli guruhlarda onlayn yoki oflayn formatda o‘tkazilgan interaktiv sessiyalar kitob o‘qish jarayonini ijtimoiy va qiziqarli qiladi. Masalan, kitobning boshqa o‘quvchilarga tasavvurga asoslangan vizual taqdimotlar yoki qisqacha namoyishlar ko‘rinishida taqdim qilinishini tashkil etish mumkin. Bu orqali o‘quvchilar kitobni o‘qish jarayonida faol ishtirok etib, o‘z qiziqishlarini yanada oshiradilar.

Shunday qilib, elektron va audio vositalar, shuningdek, interaktiv muhokamalar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda samarali amaliyotlardir. Ular orqali o‘quvchilarda kitobga qiziqish uyg‘otish, mulohaza va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularda uzoq muddatli kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mumkin.

XULOSA

Neyropedagogik texnologiyalar kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda o‘quvchilarning intellektual va ma’naviy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu texnologiyalar orqali o‘quv jarayoni o‘quvchilarning individual kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, bu esa kitob o‘qish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Vizual va audio yordamchi vositalar, interaktiv platformalar va muhokama sessiyalari o‘quvchilarning diqqatini oshirish, xotirani mustahkamlash va kitobga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishda samarali vositalar hisoblanadi. Shu bilan birga, neyropedagogik

texnologiyalar tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va axborotni to‘g‘ri qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Neyropedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning umumiy bilim va madaniyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular orqali o‘quvchilar turli xil axborot manbalarini tanqidiy baholash, ma’naviy qadriyatlarni tushunish va madaniyatli mulohaza qilish kabi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Kitobxonlik madaniyati orqali shakllangan bilimlar va ko‘nikmalar jamiyatda mas’uliyatli va bilimli fuqarolarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Neyropedagogik texnologiyalarni ta’limda keng qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:

1. **Ta’lim muassasalarida elektron va interaktiv kitobxonlik platformalarini joriy etish:** Elektron va interaktiv vositalardan keng foydalanish orqali o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyati va axborotni qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

2. **Audio kitoblar va podkastlarning qo‘llanilishini rag‘batlantirish:** Kitobxonlikni rivojlantirishda audio vositalardan foydalanish vizual axborotni qabul qilishda qiyinchilikka duch keluvchi o‘quvchilar uchun foydali. Bu usul ularning kitobxonlik madaniyatiga nisbatan qiziqishini uyg‘otadi.

3. **Kitob muhokamalari va interaktiv sessiyalar tashkil etish:** Kitobxonlikni rivojlantirish uchun muntazam ravishda kitob muhokamalari, bahslar va savol-javob sessiyalari tashkil etish orqali o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish mumkin. Bu usul o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

4. **Mazmunni chuqurroq tushunish uchun vizual va audio yordamchilarni ta’lim jarayoniga kiritish:** Vizual va audio materiallardan foydalanib o‘quvchilarning diqqat jamlash, xotirada saqlash va mazmunli tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish tavsiya etiladi.

Umuman, neyropedagogik texnologiyalarni keng qo‘llash orqali o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va ularning umumiy bilim saviyasini oshirishga erishish mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarni madaniyatli, bilimli va mas’uliyatli shaxslar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Vigotskiy L.S. Mishleniye i rech. – Moskva: Pedagogika, 1982.
2. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950.
3. Hebb D.O. The Organization of Behavior: A Neuropsychological Theory. – New York: Wiley, 1949.
4. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.

5. Spitzer M. Lernen: Gehirnforschung und die Schule des Lebens. – Heidelberg: Spektrum Akademischer Verlag, 2002.
6. Alimova N.Z. Axborot savodxonligi: nazariy va amaliy asoslar. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018.
7. Turdiyev M.A. Axborot xavfsizligi va axborot savodxonligi: ta’limdagi innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti, 2020.
8. Karimova Z.I. Ta’limda kognitiv rivojlanish va shaxsga moslashtirilgan yondashuvlar. – Toshkent: Zebo prints, 2017.

COMPARATIVE STUDY OF NEOLOGISM IN ENGLISH AND FRENCH FOR SPORT

Dildora Suyun kizi Abdiyeva
Student of CSPU
abdiyevadildora026@gmail.com

Scientific advisor: **Aminova Sohila Abduhalimovna**
aminovasohila@gmail.com

ABSTRACT

This comparative study investigates the creation and usage of neologisms in the English and French languages within the realm of sports. Neologisms, which are newly invented words or phrases, play an essential role in mirroring cultural changes, technological progress, and globalization in the sports arena.

Keywords: Sportification, fanfluence, tie-break in tennis, terminology ,VAR (Video Assistant Referee) freestyle, motorsports.

INTRODUCTION

The research examines how neologisms come into being, develop, and are embraced in both English and French, with a focus on their morphological, semantic, and syntactic characteristics. By analyzing common word formation patterns-such as borrowing, compounding, blending, and affixation-in both languages, the study reveals the similarities and differences in linguistic innovation. It also looks at the impact of English as a global lingua franca on sports terminology and its influence on French, alongside the efforts of French language authorities to maintain linguistic integrity. Through this analysis, the study seeks to enhance the understanding of the dynamic relationship between language, culture, and sports.

MAIN PART

A neologism is a newly created word, phrase, or term that is starting to gain popularity but hasn't been fully embraced by mainstream language yet. These new terms arise from shifts in culture, technology, science, or social trends, and they often illustrate the evolving character of language.

Sports Neologisms in English

In English, new sports terms are frequently formed through various methods:

1. Borrowing: English often adopts terms from other languages, particularly French, for sports vocabulary. Examples include "rendezvous" (a meeting place) in Formula 1 and "grand prix" (which means "big prize") in motorsports.

2. Compounding: This involves merging two existing words to create new ideas, such as "goalkeeper," "track-and-field," or "freestyle" in swimming.

3. Acronyms and Abbreviations: These are widely used in sports, such as "VAR" (Video Assistant Referee) in football and "MVP" (Most Valuable Player) across various sports.

4. Brand Influence: Sports brands and media contribute to the popularization of terms, such as *"nikefication,"* which refers to the impact of Nike on sports culture.

The development of sports vocabulary in the English language represents a dynamic phenomenon influenced by a range of linguistic strategies, such as lexical borrowing from other languages, compounding, and the formation of acronyms. Additionally, the impact of brands and media plays a significant role in enriching this specialized lexicon, thereby illustrating the intricate relationship between language and cultural practices within the realm of sports. As new trends and innovations arise, the terminology will inevitably evolve, mirroring the constantly shifting landscape of athletic competition and its global relevance. This continuous evolution not only facilitates improved communication among fans and athletes but also highlights the broader cultural implications of sports within society.

Sports Neologisms in French

The French language, which prioritizes linguistic purity particularly through the efforts of institutions like the *Academie française* takes different approaches to the incorporation and creation of neologisms:

1.Gallicization: Foreign sports terms, especially those from English, are modified to align with French phonetics and structure. For instance, "football" is often shortened to "le foot" in informal contexts, and "le jogging" is commonly used to refer to running.

2. Creation of New Terms: French authorities sometimes opt to invent new words rather than borrow existing ones. For example, "*courriel*" was developed as a substitute for the English term "email," and similar initiatives have been seen in sports, such as "*jeu décisif*," which replaces the English term "tie-break." French authorities occasionally choose to invent new words rather than adopt foreign ones. For instance, the term *courriel* was developed to substitute the English word email, and similar initiatives are evident in sports terminology. The phrase *jeu décisif* is used in place of the English term tie-break in tennis. Certain phrases are translated directly from English into French. An example of this is temps additional, which refers to added time in football.

The development of sports terminology in the French language exemplifies not only linguistic flexibility but also the continual negotiation between the acceptance of global influences and the preservation of cultural uniqueness. As sports evolve and new trends emerge, it will be pertinent to examine how these strategies adapt and which new terms will be introduced into the French lexicon.

The Impact of Culture on the Creation of Neologisms

English: The widespread influence of English in sports media, such as ESPN and Sky Sports, along with its extensive use for global communication, has resulted in a rapid incorporation of English sports terminology. For example, words like dribble, offside, and penalty are commonly adopted into other languages, including French.

French: In France, there is a strong focus on maintaining the purity of the French language, which leads to greater resistance against English neologisms. The Commission *d'enrichissement de la langue française* frequently proposes French substitutes for English terms. Nevertheless, in the realm of sports, younger individuals tend to prefer English borrowings due to their international exposure, despite pushback from older generations and official bodies.

Both English and French depend significantly on sports media to promote new words. Social media, broadcasting, and commentaries present new terminology that mirrors current trends in sports. English terms often gain global traction, impacting French speakers who participate in international events such as the FIFA World Cup or the Olympics.

Challenges and Insights

English Prevalence: A significant number of new sports terminology comes from English, driven by the global spread of sports culture, especially in contemporary sports such as basketball, soccer, and e-sports.

Safeguarding the French Language: Although France actively develops new French vocabulary, the appeal and practicality of English terms often overshadow these efforts.

CONCLUSION

In conclusion, a comparative analysis of sports neologisms in English and French highlights significant differences in how each language adapts. English is more inclined to innovate rapidly, often prioritizing creativity over linguistic purity, while French shows greater resistance by developing its own terms to preserve its linguistic identity. Nonetheless, the influence of globalization and the prevalence of English in the sports arena have led to the

incorporation of many English terms into everyday French, despite their lack of official recognition.

REFERENCES

1. Muhlisaxon Kurbanova. “THE ROLE OF NEOLOGISMS IN THE LANGUAGE OF MODERN MEDIA”. Current Research Journal Of Philological Sciences , DOI: https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-11-18, ISSN 2767-3758, November 2021.
2. Sokhila Aminova. Comparative Analysis of "A Thousand Splendid Suns" and a Similar Work in Uzbek Literature, Texas Journal of Philology, Culture and History ISSN NO: 2770-8608, March 2024. Pp 1-3.
3. Vinogradova N.V. Computer slang and literary language: competition problems. Studies on Slavic languages. No. 6.- Seoul, 2001. S.203-216.
4. Hymes, D. H. On Communicative competence. The Communicative Approach to Language Teaching / D. H. Hymes. – Oxford, 1981.

АСИМПТОТИЧЕСКОЕ РАЗЛОЖЕНИЕ ПЕРИОДИЧЕСКОГО РЕШЕНИЯ СИНГУЛЯРНО ВОЗМУЩЕННОЙ СИСТЕМЫ ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА, СОДЕРЖАЩЕЙ СЛАБУЮ НЕЛИНЕЙНОСТЬ

М. М. Сайдаматов
Университет геологических наук

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается система дифференциальных уравнений в частных производных с малыми параметрами ε, μ при старших производных. При некоторых условиях на коэффициенты, доказано существование 2π-периодического по t решение и построено асимптотическое разложение решение задачи.

Ключевые слова: асимтотическое разложение, пограничные функции, малый параметр, остаточный член.

ABSTRACT

The article considers a system of partial differential equations with small parameters ε, μ at higher derivatives. Under certain conditions on the coefficients, the existence of a 2π-periodic solution in t is proved and an asymptotic expansion of the solution to the problem is constructed.

Keywords: asymptotic expansion, boundary conditions, small parameter

ВВЕДЕНИЕ

Целью исследования является развитие асимптотического метода пограничных функций для сингулярно-возмущенных систем уравнений имеющий слабую нелинейность [1]. Понятие асимптотического разложения функции и асимптотического ряда были введены Анри Пуанкаре при разрешении задач небесной механики. Отдельные случаи асимптотического разложения были открыты и применялись ещё в XVIII в. Асимптотические разложения и ряды играют важную роль в различных задачах математики, механики и физики.

Рассмотрим гиперболическую систему дифференциальных уравнений

$$\begin{cases} \varepsilon^2\mu^2\left(\dfrac{\partial^2 z}{\partial x^2}-\dfrac{\partial^2 z}{\partial t^2}\right)=\dfrac{\partial z}{\partial t}-y \\ \varepsilon^2\mu^2\left(\dfrac{\partial^2 y}{\partial x^2}-\dfrac{\partial^2 y}{\partial t^2}\right)=\dfrac{\partial y}{\partial t}+z-\mu^2(1-z^2)y+\mu^2\alpha(x)\cos t \end{cases} \quad (1)$$

Здесь $x\in[0,\ell], z, y$ – неизвестные скалярные функции, ε,μ – два малых положительных параметра, $\alpha(x)$ – непрерывно дифференцируемая функция.

Зададим для решений $z=z(x,t,\varepsilon,\mu), y=y(x,t,\varepsilon,\mu)$ системы (1) граничные при $x=0, x=\ell$ условия

$$z|_{x=0}=z|_{x=\ell}=y|_{x=0}=y|_{x=\ell}=0 \quad (2)$$

Будем искать 2π - периодическое по t решение задачи (1), (2).

При $\mu=0$ или $\varepsilon=0$ система (1) вырождается в систему обыкновенных дифференциальных уравнений, следовательно, для определения решения вырожденной системы требуются не все дополнительные условия, заданные для системы (1), а лишь их часть-условие периодичности по t . Для задачи (1), (2) реализуется критический случай.

В этой задаче будет построена асимптотика периодического решения по невязке.

Вырожденная система имеет семейства 2π-периодических решений, а период малой вынуждающей силы также равна 2π. Наличие нелинейности обеспечивает существование решения возмущенной ($\mu\neq 0$) системы, период которого также равен 2π.

Формальное 2π - периодическое по t решение задачи (1), (2) будем искать в виде

$$u(x,t,\varepsilon,\mu)=\bar{u}(x,t,\varepsilon,\mu)+\prod u(\xi,t,\varepsilon,\mu)+Qu(\eta,t,\varepsilon,\mu)=$$

$$=\sum_{k=0}^{\infty}\mu^k[\bar{u}_k(x,t,\varepsilon)+\prod_k u(\xi,t,\varepsilon)+Q_k u(\eta,t,\varepsilon)] \quad (3)$$

Здесь $\xi=\dfrac{x}{\varepsilon\mu}, \eta=\dfrac{(\ell-x)}{\varepsilon\mu}.$

В (3) и в дальнейшем под u понимается z и y в совокупности, т.е. если выписывается некоторое соотношение для u, то это значит, что имеют место два в точности такие же соотношения для z и y .

Регулярные члены $\bar{u}_k(k=0,1,2...)$ определяются [1] путем формальной подстановки в систему (1) ряда

$$\bar{u}(x,t,\varepsilon,\mu) = \sum \mu^k \bar{u}_k(x,t,\varepsilon)$$

и приравнивания коэффициентов при одинаковых степенях μ, тогда для $\bar{z}_k$, $\bar{y}_k$ получается система

$$\begin{cases} \dfrac{\partial \bar{z}_k}{\partial t} = \bar{y}_k + \varepsilon^2\left(\dfrac{\partial^2 \bar{z}_{k-2}}{\partial x^2} - \dfrac{\partial^2 \bar{z}_{k-2}}{\partial t^2}\right) \\ \dfrac{\partial \bar{y}_k}{\partial t} = -\bar{z}_k + \varepsilon^2\left(\dfrac{\partial^2 \bar{y}_{k-2}}{\partial x^2} - \dfrac{\partial^2 \bar{y}_{k-2}}{\partial t^2}\right) + (1-\bar{z}_0^{\,2})\bar{y}_{k-2} - 2\bar{z}_0\bar{y}_0\bar{z}_{k-2} + N_k \end{cases} \qquad (\mu^k)$$

Здесь через N_k обозначена некоторая функция, зависящая известным образом от $\bar{z}_j, \bar{y}_j$, $j = 0,1,\ldots$ $j < k$.. Нетрудно видеть, что все системы (μ^k) однотипны: они представляют собой системы обыкновенных дифференциальных уравнений и их решения определяются лишь условием периодичности по t.

Для построения функции пограничного слоя соответственно в окрестностях $x = 0$ и $x = \ell$

$$\Pi u(\xi,t,\varepsilon,\mu) = \sum_{k=0}^{\infty} \mu^k \Pi_k u(\xi,t,\varepsilon) \quad , \quad Qu(\eta,t,\varepsilon,\mu) = \sum_{k=0}^{\infty} \mu^k Q_k u(\eta,t,\varepsilon)$$

будем применять стандартную процедуру теории сингулярных возмущений [1,2].

Тогда для определения $\Pi_k u(\xi,t,\varepsilon)$ получим систему вида

$$\begin{cases} \dfrac{\partial^2 \Pi_k z}{\partial \xi^2} = \dfrac{\partial \Pi_k z}{\partial t} - \Pi_k y + \delta(\xi,t,\varepsilon), \\ \dfrac{\partial^2 \Pi_k y}{\partial \xi^2} = \dfrac{\partial \Pi_k y}{\partial t^2} + \Pi_k z + \sigma(\xi,t,\varepsilon) \end{cases} \qquad (\mu^k{}_{\Pi})$$

где

$$\delta(\xi,t,\varepsilon) = \begin{cases} 0, & k = 0,1, \\ \varepsilon^2 \dfrac{\partial^2 \Pi_{k-2} z}{\partial t^2}, & k = 2,3,\ldots \end{cases}, \quad \sigma(\xi,t,\varepsilon) = \begin{cases} 0, & k = 0,1 \\ \varepsilon^2 \dfrac{\partial^2 \Pi_{k-2} y}{\partial t^2} - [1-(\Pi_0 z)^2]\Pi_{k-2} y, & k = 2,3,.. \end{cases}$$

Функции $Q_k u(\eta,t,\varepsilon)$ определяется аналогичными системами.

Дополнительные условия для пограничных функций получим из граничных условий (2) $\Pi_k u(0,t,\varepsilon) = -u_k(0,t,\varepsilon)$. Кроме того, из свойства пограничных функции имеем $\Pi_k u(\xi,t,\varepsilon) \to 0$, $\xi \to \infty$. А из условия 2π-периодичности по t имеем

$$\bar{u}_k(x,t,\varepsilon) = \bar{u}_k(x,t+2\pi,\varepsilon), \qquad \Pi_k u(\xi,t,\varepsilon) = \Pi_k u(\xi,t+2\pi,\varepsilon)$$

Аналогичные дополнительные условия будут и для функций $Q_k u$.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Теорема. При достаточно малых ε, система (1) с граничными условиями (2) имеет формальное 2π-периодическое по t решение $z(x,t,\varepsilon,\mu)$, $y(x,t,\varepsilon,\mu)$, представимое в виде рядов (3) и при постановке в систему (1) частичных сумм N-ого порядка ряда (3) равенство (1) оказывается справедливым с точностью до величин порядка $0(\mu^{N+2})$.

REFERENCES

1. Васильева А.Б., Бутузов В.Ф. Сингулярно возмущенные уравнения в критических случаях. М.: Изд-во МГУ. 1978.-106 с.
2. Васильева А.Б., Волков В.Т. О периодических решениях сингулярно возмущенных уравнений параболического типа. // Дифференциальные уравнения. 1985, т.21. № 10. с.1755-1760.
3. Сайдаматов М.М. Об одном критическом случае в задаче о периодическом решении сингулярно возмущенного уравнения гиперболического типа // Изв. АН УзР сер. Физ-мат. наук. 1986. № 5 с.19-23.

ILMIY MATNLARDA EKSPRESSIVLIK VA EMOTSIONALLIKNING QO‘LLANILISHI

Fazliddin Shukurovich Ro‘ziqulov
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, f.f.n.

Sarvinoz G‘ayratjon qizi Urinboyeva
Samarqand davlat chet tillari instituti 2-bosqich magistranti
urinboyevasarvinoz17@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ilmiy matnlardagi ekspressivlik va emotsionallikni muhim jihatlari o‘rganilgan, uning birqancha, matnning o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishiga, qiziqish uyg‘otishiga va fikrlarning ta’sirchanligini oshirishga yordam berish jihatlari ko‘rib chiqilgan. Ilmiy matnda ekspressivlik va emotsionallikni o‘rganish tarixi, lingvistika, psixologiya va adabiyot nazariyasi rivojlanishi hissa qo‘shgan olimlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ilmiy matn, ekspressivlik, emotsionallik, his-tuyg‘ular, fikrlar, til va nutq, til tizimi, uzatuvchi va qabul qiluvchi, ifoda va obrazlilik.

ABSTRACT

